

Termiz davlat universiteti

Fizika-matematika fakulteti

«Amaliy matematika» kafedrası

"KOMPYUTER GRAFIKASI VA WEB-DIZAYN"

kursidan

Ma`ruzalar to'plami

**«Amaliy matematika» kafedrasining
2017 yil 26 avgustdagi umum yig'ilishida muhokama qilingan**

Tuzuvchi:

Katta o'qituvchi: Toyirov Akbar Xasanovich "Kompyuter grafikasi va Web-dizayn" kursidan
(ma`ruzalar to'plami). - T.: TerDU, 2017 _____

(imzo)

Termiz - 2017

Kirish

Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyasining va ularni amalga oshirish vositalarini juda tez rivojlanishi axborot jamiyatning shakllanishini oldindan belgilab beradi. Bunday jamiyatda inson faoliyatining hamma sohalarida mehnat qilayotganlarning mutlaq ko'pchiligi axborotlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va uning eng yuqori shakli bilimlarni tarqatish bilan shug'ullanadi. Bu sohada Internet texnologiyalari muhim rol o'ynaydi.

Internet hayotimizning bir bo'lagiga aylandi desak xato qilmagan bo'lamiz, biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanishga odatlandik.

Internet turli xil insonlarni yagona maqsad bilan birlashishiga sabab bo'lmoqda. Hamma Internet tarmog'idan biror turdagi axborotni olishga harakat qiladi. Shunday vaqtlar keladiki, hujjatni Internetda chop etish malakasi yozuv mashinkasidan foydalanish kabi har bir hatto o'rta ma'lumotga ega bo'lgan insonning qo'lidan keladi.

I.A.Karimov "Ishonch" gazetasining 2002 yil 1 iyun sonidagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda dasturiy vositalarni, ma'lumotlarning axborot bazalarini ishlab chiqish, respublika, tarmoq va mahalliy axborot kommunikatsiya texnikasini ishlab chiqish sohalarida ishlash uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash haqida ta'kidlab o'tdi.

Shu sababdan, "Informatika" sohasi mutaxassislariga, ularning informatsion intellektual faolligi va zamonaviy texnologik madaniyatligiga yuqori talablar qo'yilmoqda. Tashkilot va muassasalarning samarali ishlashi mutaxassis va umuman, jamoaning muvaffaqiyati tadqiqodchi va foydalanuvchilarning zamonaviy kompyuter va Web-texnologiya uslublari va instrumental vositalarini qanday darajada o'zlashtirib olganliklariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Demak, hozigi kun talabalarini davr talabiga javob bera oladigan yetuk mutaxassis bo'lib etishishlarida, ularga "Kompyuter grafikasi va Web-dizayn", "Internet asoslari" va hokazo fanlarini o'qitish – davr talabidir.

Biz tavsiya etayotgan "Kompyuter grafikasi va Web-dizayn" ma'ruzalar to'plamining maqsadi ham Web-sahifasini yaratish misolida amaliy dasturlashtirishning nazariy asoslarini va tamoyillarini, ularning funktsional va strukturaviy tashkil etilishini, maxsus dasturlashtirish tillarini ishlatgan holda dinamik Web-sahiflari yaratish usullarini va uslubiyatlarini o'qitishdan, o'rgatishdan iboratdir.

Mazkur ma'ruzalar to'plamini yaratishda O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim bo'yicha amaldagi direktiv hujjatlariga, el-yurt tan olgan, tanigan, ardoqlagan insonlar **A.A. Aripov, S. G'ulomov, S. Qosimov, A. Abduqodirov, F. Zokirova, S. Rahmonqulova, A. Abdug'aniev** va h.z.larning darsliklari, o'quv qullanmalariga, shuningdek Respublikamizda va chet ellarda to'plangan ko'p yillik ilmiy-pedagogik tajribalar hamda yangi pedagogik texnologiyalarning yangi ilg'or ta'limotlariga asoslanildi.

Termiz davlat universiteti «Amaliy matematika» kafedrasida katta o'qituvchisi
Toyirov A.X. ning ««Kompyuter grafikasi va Web-dizayn»» fanidan
oliy o'quv yurti talabalariga uchun tayyorlagan
“Ma’ruza matni”ga

Taqriz

Hozirgi vaqtda zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etishda, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan Internetga kirib borishni kengaytirishda, yuqori malakali dasturchilar tayyorlashda Web texnologiyalarining ahamiyati juda katta. Shuningdek, har bir tashkilot qaysi sohada ish olib bormasin o'zini butun dunyoga ko'z-ko'z qilish uchun internetda o'z o'rnini yaratish va o'zining xo'jalik faoliyatida internetdan foydalanish zarurligini his qilmoqda.

Ma'lumki, har qanday dunyo xamjamiyatidagi obro'-e'tiborli geopolitik mavqie zamonaviy kompyuter texnologiyalarining rivojlanish darajasi, jumladan, telekommunikatsiya tizim va tarmoqlari, dunyo axborot makoniga kirish usullari va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Axborotlarni global almashuvining noyob imkoniyatlarini esa, Internet - butun dunyo tarmog'i beradi.

Demak, ayni vaqtda, Oliy o'quv yurti talabalarini Respublikamiz qudratini dunyoga tanitadigan zamonaviy davr talabiga mos etuk mutaxassis bo'lib etishishlarida, ularga “Web-dizayn” imkoniyatlarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar Web-texnologiyalari sir-asrorlarini o'rganish ila Web-sahifalar hosil qilishni, axborotlarni qayta ishlash va saqlashni, xalqaro va lokal tarmoqda matn, grafik, elektron jadval, ma'lumotlar bazasi va namoyishlardan tashkil topgan elektron hujjatlar hosil qilish malakasiga ega bo'lishadi.

Muallif tomonidan taqdim etilayotgan ma'ruza matnida, aynan yuqorida keltirilgan fikrlarning isbotini ko'rish mumkin, ya'ni Web-texnologiyalari sir-asrorlarini mustaqil o'rganish uchun bu ma'ruza matni juda qo'l keladi. Ma'ruzada Web sahifalar, WWWning tuzilishi, Web saytlarning tuzilishi, Web-saytlarni yaratish, Brauzerlar, Web brauzerda ishlash, Gipermatn va giper murojaat, URL, Interfaol formalar, Web serverlar, Web xizmatlar, Matnni hoshiyalash tillari, HTML, XML – the extended markup language, HTML hujjatning tuzilishi, HTML hujjatdagi matnlarni formatlash va h.z. mavzularda tayanch nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Ma'ruzada keltirilgan misollar Web-sayt yaratishga qiziquvchilar, talabalar, o'quvchilar va har bir kompyuter foydalanuvchisiga tushunarli tilda, sodda, tayanch ma'lumot bo'la oladigan tarzda yoritilgan. Ma'ruza matnining yana bir afzallik tarafi shunda-ki, uning elektron variantida har bir foydalanuvchi uchun muhim ma'lumotlarning mavjudligi (taqdimotlar, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron variantda dasturlar, misollar va h.z.) mustaqil bilim olishda katta yordam beradi. « Kompyuter grafikasi va Web-dizayn » fanidan yaratilgan ma'ruza matni nafaqat “Informatika o'qitish metodikasi” ta'lim yo'nalishida balki, “Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi talabalariga uchun, shuningdek, Oliy o'quv yurtining boshqa yo'nalish talabalariga ham mos kelishini ta'kidlab o'tish joizdir. O'quv-metodik majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim bo'yicha amaldagi direktiv hujjatlariga asoslanilgan holda bayon etilgan. Majmua Respublika Oliy o'quv yurtlari ta'lim dasturlariga mos keladi va uni chop etish foydali deb hisoblayman.

Termiz davlat universiteti
«Amaliy matematika» kafedrasida mudiri

f.-m.f.d. Normurodov Ch.B.

Mavzu: Internetda dizayn: vazifalar, yondashuvlar, yechimlar. HTTP, FTP protokollarida ishlash. (2 soat)

1 – ma`ruza

Reja:

1. Word Wide Web (WWW) rivojlanish tarixi.
2. WWW ga kirish.
3. WWW asosiy kontseptsiyalari.
4. WWW loyihasi.
5. WWW ning tuzilishi. HTTP, FTP protokollarida ishlash.

Tayanch iboralar.

WWW, gipermatn, gipermedia, WWW buyruqlari, brauzerlar, Web – server, Web – sahifa.

Word Wide Web (WWW) rivojlanish tarixi

Butun dunyo cho'lg'ami (pautina) Word Wide Web (WWW) yoki (W3) **1989** yili paydo bo'ldi. Uning mohiyati Shveysariyadagi CERN (The European Laboratory for particle physics–elementar zarrachalarning Evropa laboratoriyasi) deb nomlangan laboratoriyaning bir guruh olimlari ishlab chiqdilar. Ularning fikricha, har xil elektron hujjatlar o'zaro almashuv paytida istagan kompyuterda bir xil ko'rinishga ega bo'lishi kerak. Tabiiyki, bunday hujjatlar bilan ishlash asosi etib internet tanlangan. CERN global tarmoqdagi eng gavjum joylardan biri hisoblangan. Bu muammo bilan laboratoriya xizmatchisi fizik **Tim Berners-Li** shug'ullandi va 1991 yilda o'z rejasini oxiriga etkazdi. CERN olimlari navbatdagi avlod HTML (Hyper text Markup Language) va WWW larning rivojlanishini bilib bergan WWW (w3 consortium), deb nomlangan Konsortsiyuning yuzaga kelishiga sababchi bo'ldilar.

1960 yili amerikalik olim **Teodor Xolm Nelsonning** shunga o'xshash muammo bilan mashg'ul bo'lganini aytib o'tish zarur. U o'z oldiga shunday maqsad qo'ygan edi: insoniyat yaratgan har xil qiymatdagi matnli hujjatlarni maxsus kompyuter tarmog'iga birlashtirish va ularni o'zaro mantiqan bog'lash. Bunda foydalanuvchi asosiy yoki qo'shimcha axborotli ixtiyoriy hujjatning bir joyidan boshqasiga o'tishi mumkin. 1965 yili Nelson T.X. bunday matnli axborotlarni tashkil etish uslubini gipermatn, o'zining amalga oshmagan loyixasini esa, Xanadu deb nomladi. Ana usha T. Nelsonning Xanadudagi g'oyasi WWW ning rivojiga turtki bo'ldi.

Fizik **Tim Berners-Li** o'zining yaratgan o'zaro bog'langan platformali mustaqil matnli hujjatlarni yozish tilini **HTML** deb nomladi. Bu hujjatlar o'zaro gipersso'lkalar (giperaloqa) yordamida bog'lanadi. Gipersso'lka–bu internet sahifasidagi boshqa ob'ekt bilan bog'lovchi ajratilgan so'z turkumi. Axborotning har tarkibiy kislmlari orasidagi aloqa. U WWW doirasidagi ob'ektdan ob'ektga o'tishni ta'minlaydi. Gipermatnli hujjatlar bilan tanishib chiqish uchun Tim Berners-Li Web–(sharhlovchi) deb nom olgan programma yozdi.

1993 yili amerikalik talaba **Mark Andressen Mosaic** Web–sharxlovchi dasturini yozdi. Bu dastur birinchilar qatori grafik interfeysga ega bo'ladi va sichqoncha bilan ishlay boshlaydi. Mosaic ishlatish uchun qulay UNIX, PC va Macintosh platformalarida ishlaydi va bepul tarqatiladi.

Biroq, vaqt o'tgach tadqiqotchi **Mosaic** asoschi **Silicon Graphics** bilan birlashdi. Ular hozirgi kunda boshlovchi **brauzer–Netscape** ni yaratdilar. Taxminan Webdagi barcha trafiklarning 80% Netscape ga to'g'ri keladi. Xonadonlardagi kompyuterlarni Netscape bilan tekin yuklash mumkin.

Keyinroq bozorda Microsoft kompaniyasi mahsuloti **Internet Explorer** nomli yangi **brauzer** paydo bo'ldi. U ham tezda internet tarmog'iga kiritila boshladi. Qaysi bir jihatdan WWWning mashhur bo'lib ketishi Microsoft Windowsga o'xshab ketadi. Windows MS DOS matn barcha vazifalarni qulay grafik interfeys orqali bajaradi. Xuddi shunday WWWning grafik mohiyati internet va elektron aloqa vositalari e'tiborini jalb etdi.

Kelajakdagi WWW brauzer va kompyuterlarda axborotlarning tashqi ko'rinishi bilan boshqariladigan, ishlatishda eng qulay til HTML bilan chambarchas bog'lanadi. Oxirgi yillar mobaynida HTML da bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1999 yil 24 dekabr maxsus notijorat tashkilot WWW Consortium (W3S) tomonidan qabul qilingan HTML fayllari, audio–videokliplar bilan ishlashda, ayniqsa sahifalarni o'zaro bog'lashda katta qulayliklar yaratdi.

WWW ga kirish.

WWW – kompyuter tarmoqlarida kerakli ma'lumotni ko'rishni **gipermurojaat** deb ataluvchi usul bilan kompyuter tarmoqlarida joylashtirish usuli. WWW - World Wide Web nom Tim Berners-Lee (CERN laboratoriyasi) tomonidan kiritilgandir. U boshqacha qilib, butun dunyo "**o'rgimchaklari**" deb ham ataladi. Buning sababi, o'rgimchak yashashi uchun turli yangi yo'llar tashkil qilib, bu yo'llar orqali tegishli nuqtalarga yurishiga o'xshab WWWda ham turli yo'llar orqali tegishli ma'lumotga yetib borish va uni ko'rish imkoniyati borligidir. WWWda nuqtalar rolini kompyuter o'ynaydi. Yo'llar sifatida telefon yo'llari ishlatiladi.

Shuningdek, boshqacha aytganda, **World Wide Web (WWW) — butun dunyo Urgimchak uyasi** — Internetning eng **ommaviy axborot xizmatlaridan** biri hisoblanadi.

Internet uzoq, vaqtlar mobaynida turli xil kompyuter tarmoqlarining chital tizimi bo'lib, ular bo'yicha asosan elektron axborot uzatilgan. Kompyuter buyruq va dasturlarini ishlatishning nozik tomonlarini boshidan kechirmagan yangi odam bu chigal tizimda o'zini ishonchsiz va bug'iq xis qiladi. Oddiy va ko'rgazmali shaklda, «ko'rsat — bos» tamoyili bo'yicha yaratilgan yangi texnologiya foydalanuvchiga tarmoqqa punktlari so'rovlarini aniq berish va o'nga kerak bo'lgan ayni narsani tanlashni o'rgatdi. Bu texnologiya World Wide Web dasturi bilan amalga oshiriladi.

Ko'pchilik foydalanuvchilarning haqiqiy vaqt oralig'ida ma'lumotlarni uzatish vositalariga faol qiziqishi aynan shu texnologiyani paydo bo'lishi bilan kelib chiqdi. Qisqa vaqt ichida WWW Internet ni axborot supermagistraliga yoki «**dunyodagi axborot Urgimchak uyasiga**» aylantirdi. WWW millionlab odamlarga bir birlari bilan to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish rejimida muloqat qilishga imkon beradigan yangi va nisbatan arzon texnologiyadir. Tarmoq bo'yicha faqat matnli fayllargina emas, balki tovush, grafika va videotasvirlar ham muvaffaqiyatli uzatila boshlandi. Kompyuterdagi ma'lumotlar bazasita va tijorat tarmoqlariga ega bo'lgan Internet da cheksiz iste'mol bozorini va ishbilarmonlik ma'lumotlarini tarqatish uchun asosiy kanalni qurdilar, bular ularga tarmoqning virtual kengligida punktlari biznesini samarali qilish imkonini beradi.

Nima uchun WWW texnologiyasi «butun dunyo urgimchak uyasi» deb atalgan?

Birinchidan, bu texnologiyaga muvofiq tarmoq strukturasi uzellarga ega bo'lib, ularda kompyuterlar — serverlar va mijozlar joylashgan; ular odatda mos ravishda Web-serverlar va Web-mijozlar deb ataladi. 1997 yil boshida Internet da 145166 ta doimiy ishlaydigan Web-server va 646162 ta Web-mijoz bor edi. Bu kompyuterlar butun dunyo bo'yicha, hamma kitalarda va hamma mamlakatlarda joylashgan, shuning uchun tarmoq butun dunyoni urab olib, undan qandaydir virtual shahar (yoki mamlakat) yaratdi, undagi uy— kompyuterga qo'l uzatsa etgundekdir.

Ikkinchidan, ko'pchilik kompyuterlardan foydalanuvchilarga odat bo'lgan daraxtsimon ierarxik strukturadan farqli ularoq, WWW tarmog'i o'rgimchak uyasiga o'xshagan strukturaga ega: rang bilan ajratilgan so'zni yoki so'z birikmasini bosib, siz uzingizga kerak bo'lgan butun dunyo urgimchak uyasining uzelliga, tarmoqda mavjud bo'lmagan markazni chetlab uggan holda, etib borasiz.

Uchinchidan va oxirgisi, Internet o'z ildizlari bilan Amerika mudofaa vazirligini ishlab chiqishlariga borib taqolganligi uchun boshlanishda tarmoq bo'yicha aloqaning ishonchiligi va mustaxkamligi hattoki uning bir nechta uzellari ishdan chiqqan sharoitlarda ham ta'minlanishi kelishib olingan. SHuning uchun tarmoq bo'yicha ma'lumot WWW ning bir uzeli bilan boshqasiga, shu daqiqada bo'sh va ishonchli bo'lgan (fizik urgimchak uyasi bo'yicha mumkin

bo'lgan harakatlanishga o'xshashlik aniq qurilmoqda) eng rang-barang yo'llar bilan (hech kim kuzatmagan va ularni kuzatish ehtimoli mumkin bo'lmagan) uzatilishi mumkin.

Web-serverlar ma'lumot saxifalariga ega bo'lib, ular odatda **Web-saxifalar** deb ataladi.

Web-server taqdim etgan ma'lumotlarning xususiyatlari quyidagilardir:

- ✚ u turli variantlarda taqdim etilishi mumkin — formatlashgan matn, grafik, xatto jonli, ruxli tasvirlar ko'rinishida;
- ✚ u yangi joriy serverni, joriy saxifani, saxifadagi joriy xatboshini chiqarish uchun bir-biri bilan kesishadigan yuborishlar bilan ta'minlangan.

Boshqacha aytganda, Web-serverning saxifalari ikkita sinfga bo'linishi mumkin:

- ✚ o'zicha mazmunli;
- ✚ gipermatnli aloqani ta'minlash uchun saxifalar — vositachilar.

Kerakli ma'lumotni qidirish yo qidirish vositalarini yoki gipermatnli yuborishlarni ishlatish bilan amalga oshiriladi.

Bunday yuborishlar asosida Hyper Text Transfer Protocol (HTTP) — gipermatnni uzatish texnologiyasi bo'yicha gipermatn texnologiyasi yotadi.

Gipermatn — bu boshqa hujjatlariga yuborishlarga ega bo'lgan hujjatdir. Gipermatnli hujjat ichida matnning ba'zi bir lavhalarini aniq ajratilgan. Ularni sichqoncha yordamida ko'rsatish, masalan, ajratilgan matnning mavzusiga mos ravishda shu hujjatning boshqa qismiga, shu kompyuterdagi boshqa hujjatga yoki Internetda ulangan boshqa istalgan kompyuterdagi hujjatga avtomatik ravishda o'tish imkonini beradi. Gipermatnli hujjatlar o'rtasidagi aloqa qo'litli so'zlar yordamida amalga oshiriladi. qo'litli so'zni topib, foydalanuvchi qo'shimcha ma'lumotni olish uchun boshqa hujjatga o'tishi mumkin. Yangi hujjat ham gipermatnli yuborishlarga ega bo'ladi. Bunda gipermatnlarni maxsus tili — Hypertext Markup Language (HTML) ishlatiladi. Mashina ichidagi gipermatnli hujjatlar Tuzilish jihatdan matnli fayllar ko'rinishiga ega bo'lib, ularga maxsus HTML ko'rsatmalari o'rnatilgan.

Web sahifalar odatda HTML hujjat, ya'ni HTML (Hyper Text Markup Language - gipermatnli belgilash tili) tilida yozilgan hujjat sifatida tayyorlanadi.

Bu holda yozilgan hujjatlarni tabiiy ko'rinishda (keng ommaga tushunarli bo'lgan) kompyuter ekranida tasvirlash uchun maxsus programmalar ishlatiladi. Bunday programmalar Browser (ko'ruvchi, sharhlovchi)lar deb ataladi.

Gipermatn va gipermedia

WWW (qisqacha - Web) sistemasida ma'lumotlar **gipermatnli hujjatlar** shaklida olinadi. **Gipermatn** boshqa matnli hujjatlariga yo'l ko'rsatuvchi matndir. Bu esa boshqa matnlarga (bu matnlar qaysi mamlakatning serverida turishidan qat'iy nazar) tezda o'tish imkonini beradi. Matnlar bilan bir qatorda WWW hujjatlarida rangli harakatdagi tasvirlarni, turli video kliplarni, umuman multimedia ma'lumotlarini ham ko'rish mumkin. Matndan tashqari boshqa shakldagi ma'lumotlarni ham beruvchi hujjatlar **gipermedia** hujjatlari deyiladi.

Web – Internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to'plami bo'lib, ularning soni soat sayin ko'payib bormoqda. Bu fayllarda ma'lumotlarning turli xillarini: matn, grafik, tasvirlar, video, audio ma'lumotlarini uchratish mumkin.

Webning eng asosiy xususiyatlaridan biri unda turli ob'ektlarga (matn, video, grafik) **gipermurojaatning** mavjudligidir. Matnlarda **kalit so'zlar** deb ataluvchi so'zlar orqali dunyoning ixtiyoriy burchagida Internet doirasida joylashgan ma'lumotlarga murojlat qilish va u orqali ma'lumotlarni topish **gipermurojaat** deb ataladi. Ajratilgan so'z va frazalar – gipermatn aloqalari qisqacha **giperaloqalar** deb yuritiladi. Bu giperaloqalar orqali boshqa hujjatlariga murojaat qilib, unda yangi giperaloqalarni yaratish mumkin va hokazo. Shunday qilib, Web - gipermatnli sistema bo'lib, unda ma'lumotlar ixtiyoriy tartibda (chiziqsiz bo'lmagan) joylashadi. Uni na boshi, na oxiri bor. Unda ma'lumotlar ixtiyoriy joyda joylashgan bo'ladi. Bunday ma'lumotlar faqat giperaloqalar bilan bog'langan xolos. Hozirda giperaloqalar faqat matndagi ajratilgan so'zlar bilangina emas, hatto tasvirlar, grafiklar, ularning qismlari orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, Webda biror mamlakatning goeografik kartasi mavjud bo'lsa, uning

bir bo'lagiga sichqonchani yo'llab bosilsa, u orqali Web ma'lumotlariga kiriladi. Webda ma'lumotlar Web sahifalari shaklida beriladi. Bu sahifalar maxsus HTML tilida tashkil qilinadi.

Internetda ma'lumotlar Web sahifalar ko'rinishida tasvirlanadi. Web sahifalarni ko'rish vositalariga "**brauzerlar**" deyiladi. **Web sahifa** - Internet uchun maxsus hujjat fayli bo'lib, u Html (Hyper text Marker Language - gipermatnlarni ajratadigan til) asosida yaratiladi.

Web bir sahifadan boshqa sahifaga murojaat qilishni ta'minlaydi. Webni katta kutubxona ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Web tugunlarini kitobga o'xshatsak, «Web sahifalari» esa bu kitoblarning sahifalariga mos keladi. Sahifalarda yangiliklar, rasmlar, kinofilmlar, ovoz yozuvlari va h.k. bo'lishi mumkin. Har bir kompyuter foydalanuvchisi Webga ulanganda dunyo bo'yicha tarqalgan ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda Web texnologiyalari dasturiy vositalarining juda katta sinfi yaratilmoqda. Ular Web sahifa va saytlarini avtomatik ravishda yaratish va chiqarish uchun eng kuchli dasturiy vositalar bo'lib, ular sirasiga - **Microsoft FrontPage** va **Micromedia Flash** dasturlar paketlarini misol qilish mumkin. Bu dasturlar Web sahifani Html tilida yaratadi. **Microsoft FrontPage** dasturi Web sahifani yaratish va uni ko'rsatish uchun muharrirlik vositasidir. Bu Web sahifani yaratish muharririni o'rganish Html tilini o'rganishga qaraganda ancha oson bo'ib, uni o'rganish ko'p vaqt talab qilmaydi.

Oxirgi yillarda paydo bo'lgan Flash texnologiya webdizaynerlar orasida keng tarqala boshladi. Buning asosiy sabablaridan biri Flash texnologiya Web-saytlariga ovoz va grafika elementlaridan foydalanib, ularning dinamik ko'rinish olishiga imkon yaratishidir.

Micromedia Flash sistemasida Web sahifalar uchun animatsion modellarni yaratish imkoniyati juda katta. Unda animatsiyalarni bir necha formatlarda saqlash imkoniyati bor. Rasmlarni, ovozlarni va vektorli grafikani Flash sistemasi **.WSF** kengaytmali faylda saqlaydi. **FLA** formatida saqlanadigan animatsiya fayllari faqatgina Micromedia Flash muhitida ishlaydi. Bu formatning foydali tomoni shundaki, uni xohlagan paytda qayta tahrirlash mumkin. Micromedia Flash sistemasi animatsiyalarni Html formatida saqlash imkoniyatiga ham egadir.

Bosh sahifa. Bosh sahifa biror sub'ektning, shaxs yoki tashkilotlarning borligi belgisi bo'lgan Web sahifadir. Odatda bosh sahifa shaxsning rasmi, uning avtobiografiyasi, mutaxassisligi va boshqa ma'lumotlarni aks ettiradi. Tashkilotlarda esa uning nomi, tuzilishi va faoliyati bilan bog'liq bosh ma'lumotlar bo'ladi.

Internet va **Web** bir xil narsami? Yo'q, albatta. Web o'z sahifalarini saqlash va uzatish uchun Internetdan foydalanadi. Web Internetning imkoniyatlaridan biri deyish mumkin. World Wide Web Internetga o'xshab har tomonlama uzluksiz o'zgarib turadi. Har doim yangi serverlar paydo bo'ladi, eskilari esa o'z-o'zidan yo'qoladi. Yangi-yangi WWW browserlari yaratiladi, avvalgi ma'lumotlar takomillashtiriladi, yangi imkoniyatlari qo'shiladi. Internetning yangi servislarida ishlash uchun qaydnomalar ishlab chiqiladi. Uning ajoyib xususiyatlaridan biri Internetda mavjud boshqa sistemalar bilan do'stona munosabatda bo'lishi va ular bilan birgalikda foydalanish mumkinligidadir. Bunda gap UseNet, FTP, Telnet va boshqalar kabi Internet xizmatlari ustida ketyapti. Web orqali siz gazetalardagi ma'lumotlarni, turli yangiliklarni, turli sohaga oid ma'lumotlarni, kitob va jurnallarni, kompakt disklarni sotib olish uchun pul sarflamasdan, eng muhimi ortiqcha kuch sarflamay, biror joyga kitob, gazeta, kompakt disk va hokazolarni izlab bormasdan, ish joyingizda bir zumda olasiz. Bu asrimizning katta mo'jizasi emasmi axir. Shu joyda bir misol keltiraylik. Bizda soliq sistemasida daromadlarni deklaratsiya (e'lon) qilish joriy qilindi. Shu munosabat bilan soliq idorasiga vaqtini ketkazib borib yurmasdan, avvaldan tayyorlangan Web sahifa orqali tegishli blankani to'ldirsangiz kifoya, qanchadan-qancha fuqarolarning vaqti tejalandi. Asabni joyida qolganligini aytmaysizmi?

WWWning yaratilish tarixiga biroz nazar tashlasak, 1989 yili CERN (Yevropa elektron zarralar fizikasi laboratoriyasi) tadqiqotchilari o'z oldilariga shunday sistema yaratish masalasini qo'yishadiki, bu sistema turli ilmiy guruhlar o'zaro aloqa qilishlarini ta'minlashi kerak edi. CERN tadqiqotlarida turli shaharlarda faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy markazlar va doimiy axborot almashishga qiziqqanlar qatnashdilar. Biroq bu oson kechmadi, matnni ko'rish yoki grafik

tasvirlarni ko'rishda doimo qidirilayotgan hujjatning joylashgan o'rnini qidirishga va bu harakatlarni bajarish uchun bir necha amaliy dasturlardan foydalanishga to'g'ri keldi. TelNet, FTPlarga o'xshash, grafik tasvirlarni ko'ruvchi dasturga o'xshash dasturlar kerak bo'ldi. Shuning uchun sistemani ishlab chiqishda, maqsadga yetish uchun juda ko'p oraliq qadamlardan foydalanildi. 1990 yil oxirida CERN tadqiqotchilari matn va grafik holatlarda ko'rish uchun NeXT oilasiga tegishli programma yaratishdi. 1991 yilda WWW sistemasi CERNda keng foydalanila boshladi. WWWning dastlabki foydalanuvchilariga gipermatnli hujjatlar va UseNet telekonfirentsiya maqolalariga kirish huquqi berildi. Rivojlanish etapidagi Internet servis turlariga **interfeys** qo'shildi (WAIS, FTP va boshqalarga o'xshash): 1992 yili CERN WWW loyihasi to'g'risida juda keng ma'lumot tarqatishni boshladi. Internetning butun jahon jamiyati tomonidan tan olinishi turli xil, rang-barang ma'lumotlarga kirish imkoniyati paydo bo'lganidir. Ko'p sonli WWWdan foydalanuvchilar uchun ishlashni osonlashtiruvchi dasturlar yozishga kirishishdi. 1993 yildan boshlab WWW Internetning resurslari ichida eng ommaviysiga aylandi.

Gipermatnli aloqalar. Gipermatnli hujjatlarning asosiy ajralib turadigan qismi, bu hujjatlarga qo'yiladigan giperizohlardir. Giperizohlar "jonli" ravishda namoyon bo'ladi. Y'ani oddiy matnlarga qo'yilgan, masalan, quyidagicha izoh "qo'shimcha ma'lumotni ikkinchi varaqdan olasiz" kabi izohda, siz uni ikkinchi varaqqa o'tsangiz olasiz. Gipermatnlarda esa o'sha izohlarning o'zi ham harakatlanadi. HTML tili buyruqlarni o'z ichiga oladi. Boshqa hujjatlarga yo'l ko'rsatuvchi va olib boruvchi giperizohlar ham gipermatnli aloqalarning asosiy qismi hisoblanadi. Giperaloqalar faqat kalitli so'zlar orqaligina bo'lmay, balki turli ob'yektlar, hatto rasmlarning bo'laklari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

WWW asosiy kontseptsiyalari

Internet tushunchasiga o'xshab **World Wide Web** muayyan ma'lumotlar resurslarini o'zida jamlagan serverlar to'plamidir. Amalda World Wide Web doimo o'zgarishda, yangi-yangi **World Wide Web kontseptsiyalari** bilan tanishish «**dunyo o'rgimchaklari**»ni tushunish imkonini beradi.

WWW loyihasi

World Wide Web haqida to'la ma'lumotlarni quyidagi manzil (ushbu manzil CERN tadqiqot markazida yuzaga kelgan server **World Wide Web** sahifasiga o'tkazadi) <http://info.cern.Ch/hypertext/www/theprojekt>. **Html** bo'yicha olib, unda WWW sistemasi haqida texnik axborotlar va boshqa ko'p ma'lumotlarni ko'rish mumkin. WWW serveri ro'yxatida mavzular bo'yicha birlashgan guruhlar ro'yxatini, mamlakatlar bo'yicha va axborot servisi turlari bo'yicha turli ma'lumotlar tanlanadi. U erda WWW server va mijoz ta'minoti haqida ma'lumotlar ham olinadi.

Hujjatlar bilan ishlashni tezlashtirish

Hujjatlar bilan ishlashni tezlashtirish maqsadida Webda ma'lum buyruqlar mavjud. WWW buyruqlar ro'yxati quyidagilardir:


- b** avvalgi hujjatga qaytish;
- o** hujjatning keyingi sahifasiga o'tish;
- g** ko'rsatilgan axborot resursga bevosita o'tish;
- h** sahifani chiqarish (yordam berish yo'li bilan);
- Ho** boshlang'ich hujjatga qaytish;
- I** joriy hujjatda boshqa hujjatlarni murojaatlarini ko'rsatish;
- m** programmadan foydalanish haqidagi ma'lumotlarni ekranga chiqarish;
- n** avvalgi hujjatdan keyingi murojaatga o'tish;
- con** hujjatga murojaat bilan o'tish;
- quit** WWW dan chiqish;
- V** ko'rib chiqilgan hujjatlarning ro'yxatini chiqarish;
- v con** ko'rsatilgan hujjatga qaytish;

- return** bir sahifa pastga o'tish;
- t** hujjatning keyingi sahifasiga qaytish;
- u** hujjat ichida bir sahifaga yuqoriga chiqish.

WWW ning tuzilishi. HTTP, FTP protokollarida ishlash.

1. Butun olam to'ri Internetning eng innovatsion va eng ko'p ishlatiladigan qismidir. To'ri bo'ylab yurar ekansiz, matn, grafika ovoz va videolardan tashkil topgan sahifalarni ko'rasiz. Bir sahifadan ikkinchisiga o'tish uchun **gipermurojaatlardan** foydalaniladi. Gipermurojaatlardan foydalanish imkonini beruvchi til **HTML – Hypertext Markup Language (gipermatnni hoshiyalash tili)** deb ataladi.

2. Tarmoq **klient-server modeli** asosida ishlaydi. Klientning dasturiy ta'minoti **veb brauzer** deb ataladi. Server dasturiy ta'minoti **mezbon kompyuterda** ishlaydi. Tarmoqdan foydalanish uchun avval internet bilan bog'laniladi, so'ng veb brauzer ishga tushiriladi.



3. Veb brauzerda siz ko'rmoqchi bo'lgan resursning **URL** ini yozasiz yoki bu resursga tegishli gipermurojaatni tanlaysiz. Resurslarning joylashgan o'ri nomlari URL lardir. Sizing veb brauzeringiz URL ni talabnomani **HTTP (Hyper Text Transfer Protocol – gipermatnni uzatish protokoli)** yordamida veb serverga uzatadi. Bu protokol veb brauzer va veb serverni bir-biri bilan bog'lash yo'lini aniqlaydi.

4. Veb server talab qilingan sayt, xujjat, ob'ekt yoki boshqa resursni qidirib topadi va uni klient kompyuteridagi veb brauzerga jo'natadi. qabul qilib olingan resurs klient kompyuteri ekranida veb brauzerda aks etadi. Shu bilan **HTTP** bog'lanish yopiladi va keyin yana qayta ochilishi mumkin.

5. **HTTP** yordamida veb serverga kelgan talabga ko'ra veb server qanday resurs so'ralayotgani va uning qaerda joylashganini aniqlab oladi.

6. Talabnoma Internetga jo'natiladi. Internetdagi marshrutizatorlar bu talabnoma qaysi serverga jo'natilishi kerakligini topadi. URL da **http://** dan keyingi ma'lumot resurs qaerda joylashganligini bildiradi. Unga asosan marshrutizatorlar talabnomani kerakli serverga jo'natadi.

7. URL lar, masalan **http://www.zn.uz/books/2057/html**, odatda to'rttagacha qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qism **http://** foydalaniladigan protokolni aniqlaydi. Ikkinchi qismi odatda **www** bo'ladi va Internetning qanday resursiga ulanish kerakligini bildiradi. Uchinchi qismi ancha uzun bo'lishi mumkin (**zn.uz**) va qaysi serverga ulanish kerakligini ko'rsatadi. To'rtinchi qism serverdagi maxsus papkani, xujjatni, veb saytning bosh sahifasini yoki boshqa resursini bildiradi.

Nazorat savollari:

1. WWW bu nima?

2. WWW sistemasida ma'lumotlar qanday hujjatlar shaklida olinadi?
3. Matndan tashqari boshqa shakldagi ma'lumotlarni beruvchi hujjatlar qanday hujjatlar deyiladi?
4. Bosh sahifa deganda nimani tushunasiz? Internet va Web bir xil narsami?
5. Gipermatnli aloqalar haqida tushunchangiz.

A d a b i y o t l a r :

1. «Internet va elektron pochta asoslari» M. Aripov. Toshkent, 2000
2. «Internet va undan foydalanish asoslari» Marahimov A.R., Rahmonqulova S.I. Toshkent, 2002
3. Alimov Q., Abduvoxidov A va boshqalar. Zamonaviy axborot - kompyuter texnologiyalari. O`quv qo`llanma. T: - TDIU, 2004.

Mavzu: Web-sahifaning tuzilishi va yaratish imkoniyatlari, asosiy tushunchalari.

(2 soat)

2 – ma`ruza

Reja

1. Veb sahifalar.
2. Veb saytlarning tuzilishi
3. Veb saytlarni yaratish
4. Brauzerlar
5. Veb brauzerda ishlash
6. Veb brauzer ishidagi muammolar

Tayanch iboralar

Veb sahifa, Veb sayt, brauzer, HTML, Dinamik HTML, XML, AJAX, gipermatn, gipermurojaat, URL, interfaol formalar, Web serverlar, Veb xizmatlar, taqsimlangan hisob-kitoblar.

Odatda juda ko`pchilik Internet haqida gapirganda, aslida ular World Wide Web – butun olam to`rini nazarda tutadilar. To`r Internetning eng qiziq, eng progressiv, eng ko`zga ko`ringan va eng tez rivojlanayotgan qismidir. To`rning juda tez rivojlanishi Internetga bo`lgan ulkan qiziqish manbaini tashkil etadi. Internet tarmog`i bo`ylab sayohat qilish deganda, aslida to`rdan foydalanish nazarda tutiladi.

Bu mashg`ulotda butun olam to`ri haqidagi o`tilgan mavzularni takrorlab so`ngra to`rning asosini tashkil qiluvchi veb (to`rdagi) sahifalarning qanday tuzilishidan tortib, Internetga ulangan yuzlab kompyuterlarning imkoniyatini qanday birlashtirishgacha bo`lgan turli texnologiyalarni o`rganishga urinib ko`ramiz. Shuningdek, biz veb brauzer (to`rni kuzatish darchasi) va URL (uniform resource locators – resurslarning yagona standartdagi lokatori) ni ham ko`rib chiqamiz.

Veb sahifalar

World Wide Web (Butun olam to`ri) Internetning eng progressiv va ko`p foydalaniladigan qismidir. Siz to`rda yurar ekansiz, undagi multimedia sahifalarini ko`rasiz. Bu sahifalar matn, rasm, ovoz va videodan tashkil topgan gipermatn ko`rinishida bo`ladi. To`r gipermatn orasidagi bog`lanishlardan foydalanadi va bu narsa to`rning bir joyidan ikkinchisiga o`tish imkonini beradi.


Gipermatn ko`rinishidagi Veb sahifalarni ko`rish va ular orasidagi bog`lanishlar imkonini beradigan til **HTML – Hypertext Markup Language (Gipermatnni hoshiyalash tili)** deb ataladi. To`r klient-server modeli asosida ishlaydi. Bunda klient kompyuterida ishlaydigan dasturiy ta`minot **Web browser (brauzer** deb o`qiladi va **to`rni ko`rish darchasi**, degan ma`noni anglatadi) deb ataladi. Server dasturiy ta`minoti to`rning mezbon kompyuterlarida ishlaydi.

Butun olam to`ridan foydalanish uchun avval kompyuterni internetga ulash va Web browserni ishga tushirish kerak.

Veb saytlarning tuzilishi

1. Bosh sahifa veb saytning birinchi sahifasidir. **Veb sayt** bitta sahifadan yoki o`nlab va hatto, yuzlab sahifadan iborat bo`lishi mumkin. Oxirgi holda bosh sahifa veb saytning mundarijasi vazifasini bajaradi va veb saytdagi ma`lumotlarni topishni osonlashtirish uchun xizmat qiladi.

2. Bosh sahifada ajratilgan yoki ostiga chizilgan **gipermurojaatlar** joylashgan bo`ladi. Ular saytdagi boshqa sahifalarga o`tishga xizmat qiladi.



3. Serverda joylashgan va bir-biri bilan bog`langan xujjatlar birgalikda **veb saytni** tashkil etadi. Bitta serverda har biri alohida sohada (alohida papkada) joylashgan ko`plab saytlar bo`lishi mumkin. Ular bitta vincersterda ko`plab papkalar joylashgani kabi joylashishadi. Ba'zi veb saytlar juda katta bo`ladi yoki ularga har doim ko`plab murojaatlar bo`ladi. Bunday saytlarni joylash uchun bitta server etarli bo`lmaydi. Bunday hollarda bitta sayt bir necha serverlarga yoki bir necha kompyuterlardan iborat serverga joylanadi.

4. Sayt yaratishda uning har bir sahifasidan orqaga va bosh sahifaga qaytish imkoni ko`zda tutilishi kerak. Bu usul foydalanuvchi uchun juda qulay bo`lib, u sayt ichida adashib qolmaydi. Foydalanuvchi har doim bosh sahifaga qaytib, boshqa yo`nalishda sayt bo`ylab yura oladi.

5. Sayt ichidagi sahifalarning har biri ixtiyoriy boshqa sahifa bilan bog`lana olishi mumkin. Lekin ko`pgina saytlar **piramida**, ya'ni **daraxtsimon** ko`rinishdagi tuzilishga ega bo`ladi. Bunday tuzilishga ega saytlarda foydalanuvchi adashib qolmaydi, chunki bunday saytning tuzilishi foydalanuvchi uchun tushunarli va uning saytda adashib qolishi mumkin emas.

6. Veb saytlar odatda uch xil tuzilishga ega. Birinchi tur **chiziqli** bo`lib, har bir sahifaga undan oldinda joylashganidan o`tiladi. Har bir kitob varaqlari shunday tuzilishga ega.

7. **Ierarxik (piramida, daraxtsimon)** tuzilishga ega saytlarda kerakli malumotlarni topish yanada osonroq. Bunda umumiyroq ma'lumotlardan ancha tor ma'lumotlarga o`tib boriladi. Kitoblarning mundarijalari shu tarzda tuzilgan. Kitob mundarijasida kerakli bobni, undan kerakli pragrafni va undan kerakli sahifani topishimiz mumkin. Shunga o`xshash, elektronika bilan savdo qiluvchi internet do`kon veb sayti bosh sahifasida printerlarni, undan lazerli printerlarni, undan HP kompaniyasining printerlarini, undan esa HP-1200 printerini tanlashimiz mumkin.

8. Uchinchi usul **tasodifiy** deb ataladi. Bu turdagi tuzilmaga ega saytlarda sahifalarning bir biri bilan bog`lanishlarida qonuniyat topish qiyin. To`rda saytlar bir biri bilan aynan shu ko`rinishda bog`langan.

Veb saytlarni yaratish

1. Dastlab veb sahifa uchun kerak bo`ladigan materiallar yig`ib olinadi. Veb sahifaning mazmunini tashkil etuvchi materiallar uning **kontenti (content - mazmun** degan ma'noni bildiradi) deb ataladi. **Kontent** ixtiyoriy ko`rinishda bo`lishi mumkin. Oilaviy fotoalbomdagi rasmlar, she'riy mashqlar, biron muammo haqidagi shaxsiy fikrlar, sayroqi qushlarning xonishi, kichkintoyning birinchi qadam bosishi tushirilgan videolavha va boshqa narsalar sayt kontenti tarkibiga kirishi mumkin. Matn ixtiyoriy muharrirda, masalan MS Word da tayyorlanishi mumkin.

2. Yaxshi tanlangan bir necha tasvir veb sahifani jonlantirib yuboradi. Masalan, oilaviy sahifada oila a'zolarining birgalikda tushgan suratlari yaxshi ko`rinadi. Rangli navigatsiya tugmalari bir tomondan sahifada chiroyli ko`rinsa, ikkinchi tomondan foydalanuvchiga saytda


adashib qolmaslik imkonini yaratadi. Internetda tasvir muharrirlari juda ko'p bo'lib, ularning ba'zilari bepul, ba'zilarini ma'lum vaqtgacha bepul ishlatish mumkin.

3. Bir qator dasturlar ham **HTML** kodini yozmasdan, matn, tasvir va boshqa ko'rinishdagi ma'lumotlardan veb sahifa yaratishga mo'ljallangan. Bunday dasturlarga misol sifatida Microsoft kompaniyasining **Front Page** dasturini keltirish mumkin. Lekin bunday dasturlar bilan ishlaganda ham **HTML** kodini bilish zarar qilmaydi.

Yangi sahifani internetda chop etishdan oldin uni brauzerda ko'rib va kamchiliklarini to'g'rilab chiqish kerak. Iloji bo'lsa, yangi veb sahifani turli brauzerlarda ko'rib chiqishdan erinmaslik kerak, chunki turli brauzerlar, umuman olganda, sahifalarni turlicha ko'rsatadi.

4. Agar sahifaga ovoz yoki video materiallarni joylash mo'ljallangan bo'lsa, ularni avval raqamli ko'rinishga o'tkazib olish yoki raqamli materiallardan foydalanish kerak. Bunday materiallarning hajmi ancha katta bo'lib, ularni yuklash uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Ba'zan foydalanuvchilar bunday fayllarning yuklanishini kutmay, sahifadan chiqib ketadilar. Shu sababli, bunday materiallardan foydalanishda chegarani bilish kerak. Bundan tashqari, bunday materiallarni internet uchun mo'ljallangan formatlarga o'tkazib, iloji boricha ularning hajmini qisqartirish kerak.

5. Tayyor veb sahifa **xosting xizmatini** taklif qiluvchi kompaniyalarning serverlariga joylashtiriladi. Odatda bunday xizmat pulli bo'lib, bepul xizmatlar ham uchraydi. Bepul xizmatlar kompaniya saytida sizning veb sahifangiz bu sayt nomi bilan birgalikda joylashtiriladi.



Brauzerlar

Internetning boshqa qismi kabi WWW – butun olam to'ri ham **klient-server** modeli asosida ishlaydi. Tarmoqqa kirgan foydalanuvchi **veb brauzer (tarmoqni ko'rish darchasi)** deb ataluvchi **klient dasturiy ta'minotidan** foydalanadi. Eng ko'p ishlatiladigan veb brauzerlar bu **Internet Explorer** va **Opera** deb nomlanadi. Veb brauzer ma'lumot yoki boshqa resurs o'rab tarmoqdagi serverga ulanadi.

Server so'ralgan ma'lumotni qidirib topadi va veb brauzerga jo'natadi. Veb brauzer qabul qilib olingan ma'lumotlarni kompyuter ekranida tasvirlaydi.

Veb brauzer serverga ulanganda, **HTML (Hypertext Markup Language – Gipermatnni hoshiyalash tili)** deb ataluvchi tilda yaratilgan sahifalarni jo'natishni so'raydi. Veb brauzer veb sahifadagi hoshiyalash tili farmoyishlaridan foydalanib, veb sahifani ekranda aks ettiradi. Veb brauzerlar dasturlash tillari, masalan, Java, ActiveX, skript (script – stsenariy) tillari yoki AJAX texnologiyasi asosida yaratilgan ilovalar, xujjatlar, animatsiyalar va shunga o'xshash ob'ektlarni aks ettira oladi.

Ba'zi ma'lumotlar, masalan ovoz yoki animatsiyani veb brauzerlar tasvirlay olmaydilar. Bunday hollarda veb brauzerlar yordamchi (**helper**) yoki qo'shimcha (**plug in, plugin**) deb


o`qiladi) ilovalardan foydalanishga majbur bo`ladi. Buning uchun bunday ob'ektlar va ularni aks ettiradigan ilovalar veb brauzerlarning konfiguratsiyasida sanab o`tilishi kerak bo`ladi.

Yillar o`tishi bilan veb brauzerlarning imkoniyatlari kengayib bormoqda. Hozirgi kunda veb brauzerlar HTML sahifalarni yaratish va ularni Internetda chop etishdan tortib, videokonferentsiyalar o`tkazishgacha bo`lgan imkoniyatlarga ega. Veb brauzerlar shaxsiy kompyuter va internet orasidagi devorni olib tashlayapti. Hozir internetni foydalanuvchi kompyuteri imkoniyatlarining davomi deb qarash mumkin.

Veb brauzer yagona ilova bo`lmay, bir qator dasturiy vositalar yig`indisidir. Veb brauzerlar veb sahifalarni yuklash va aks ettirish bilan birga, internetdan kompyuterga zarar etkazishi mumkin bo`lgan troyan dasturlar, elektron pochta spami, xaking (**hucking – xakerlar hujumi**) va fishing (**fishing – baliq ovlash** yoki **beruxsat ma'lumot qidirish**) kabi amallardan himoya qilish imkoniyatlariga ham ega.

Brauzerlardan foydalanishda dilni xira qiladigan narsa, ularning serverlarga murojaat qilganlarida paydo bo`ladigan muammolardir. Bu muammolar texnik, dasturiy yoki tashkiliy ishlardagi kamchiliklar asosida yuzaga kelishi mumkin. Brauzerlarning xato haqidagi xabarlar bu muammolarning tabiatini ochib berishi va foydalanuvchiga nima qilish kerakligini o`rgatishi mumkin. Shu sababli quyida xatolar haqidagi xabarlar bilan ham tanishib chiqamiz.

Veb brauzerda ishlash




1. Veb brauzer (**to`rni ko`rish darchasi**) to`rning klient-server modeli asosida qurilgan dasturiy taminotining klient qismini tashkil etadi. Veb brauzerlar veb sahifalarni klient kompyuterida ko`rish uchun xizmat qiladi. Ularning turli qurilmalar: **Windows, Macintosh, Unix** operatsion tizimlari ostida ishlovchi kompyuterlar, uyali telefonlar va cho`ntak kompyuterlari va boshqa qurilmalar uchun mo`ljallangan variantlar mavjud. Bir turdagi qurilmalarda ham turli brauzerlar foydalaniladi. Windows operatsion tizimi ostida ishlaydigan kompyuterlar **Internet Explorer** (Microsoft kompaniyasi) va **Opera** (Nescafe kompaniyasi) brauzerlari keng tarqalgan.

2. Veb sahifalar **HTML (Hyper Text Markup Language – gipermantni hoshiyalash tili)** yordamida yaratiladi. Veb brauzerlar Veb sahifalarni HTML farmoyishlarini talqin qilish yordamida sizning kompyuteringiz ekranida aks ettiradi. Veb sahifalar tarkibiga matn bilan birga rasmlar, ovoz, video, hamda gipermurojaatlar kiradi.

3. HTML farmoyishlari veb brauzerda matn, tasvir, gipermurojaatlarni ham tasvirleydi. Bu gipermurojatlar yordamida turli amallar bajariladi. Agar gipermurojaat boshqa sahifaga o`tish uchun xizmat qilsa, bu sahifa ekranga chiqariladi. Gipermurojaat faylni yuklash uchun xizmat qilsa, bu fayl sizning kompyuteringizga yuklanadi.

Veb brauzer ishidagi muammolar

1) Veb brauzer o`z ishini muvaffaqiyatli bajarishi uchun turli qurilmalar, dasturiy vositalar va ma'lumotlardan foydalanadi. Ulardan birortasida muammo paydo bo`lsa, veb brauzer o`z vazifasini bajara olmaydi va paydo bo`lgan xatolik haqida sizni ogoh etadi. Bu xabarlarni to`g`ri talqin qilish paydo bo`lgan muammoni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. quyida ko`p uchraydigan xatolar haqidagi xabarlar bilan tanishib chiqamiz.



2) **503 Service is unaviable – Xizmatni chiqarishga behuda urinish.** Bu xatoga juda ko`p sabablar olib kelishi mumkin. Lekin ularning bari veb brauzer veb serverga ulana olmaganligini bildiradi.

3) **403.9 Access Forbitten – Kirish taqiqlangan.** Bir vaqtda foydalanuvchilar soniga ba'zi saytlarda chegara qo`yilgan bo`ladi. Foydalanuvchilar soni ko`payib ketganda, ulardan ba'zilariga kirish vaqtinchataqiqlanganligi haqida xabar yuboriladi. Bunday xabar kelganda, saytga kirishga qayta-qayta urinishga to`g`ri keladi.

4) **401 Unauthorised or 403 forbidden (401 vakolat berilmagan yoki 403 taqiqlangan).** Ba'zi saytlar faqat qayd qilingan foydalanuvchilarga xizmat ko`rsatadi. qayd qilinmagan foydalanuvchilar esa bu haqida ogohlantiriladi. Bunday saytlar xizmatidan foydalanish uchun foydalanuvchi unda odatda bepul bo`lgan qayd qilish jarayonidan o`tishi kerak.

5) **404 Not Found – topilmadi.** Bu xabar veb sayt bilan aloqa o`rnatilganligini, lekin unda siz so`ragan sahifa yo`qligini bildiradi.

6) **Server Does Not Haves a DNS Entry – Server nomi soha nomlari tizimida mavjud emas.** Internetda mavjud barcha serverlar o`z nomlariga ega va bu nomlar DNS serverlarida saqlanadi. Biror serverga kirishdan oldin DNSga murojat qilib, undan server manzili olinadi. Yuqoridagi xabar, odatda, veb sayt nomi noto`g`ri yozilganda yoki bu veb sayt o`z faoliyatini to`xtatganda, paydo bo`ladi.

Nazorat savollari:

1. WWW bu nima va u haqida nimalarni bilasiz?
2. WWW ning Internetdan farqi nimada va u nima uchun xizmat qiladi?
3. WWW imkoniyatlari haqida gapirib bering.
4. Veb sahifalar: WWW ning tuzilishi, Veb saytlarning tuzilishi, Veb saytlarni yaratish haqida gapirib bering.
5. Brauzerlar: Veb brauzerda ishlash, Veb brauzer ishidagi muammolar haqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Абдуг’аниев. Интернет технологиялари. Тошкент, 2011, 88 б.
2. Sh. Qudratxo`jaev. Internet: tarixi, tuzilishi, texnik xavfsizlik. Toshkent, «O`zbekiston», 2011

Mavzu: Web-sahifalar va web-saytlar yaratishda foydalaniladigan uskunaviy dasturiy vositalar va web-dasturlash. (2 soat)

3 – ma`ruza

Reja

1. Web-dizaynda qo`llaniladigan dasturiy vositalar
2. Hoshiyalash tillari
3. Still tasnifli tillar
4. Mijoz va server tomonidan dasturlash
5. Web serverlar

Tayanch iboralar

Web serverlar, Veb xizmatlar, taqsimlangan hisob-kitoblar, brauzer.

Web-dizaynda qo`llaniladigan dasturiy vositalar

Bugungi kunning talablaridan kelib chiqib to'laqonli web-saytlar yaratishda bir qancha turdagi dasturiy vositalardan foydalaniladi.

Chunki to'laqonli web-saytni shakllantirish uchun uning turli formatdagi informatsion obyektlariga turli muharrirlar yordamida ishlov beriladi. Masalan, saytga tegishli turli formatdagi tasvirlar (rasmlar) grafik muharrirlar yordamida yaratiladi va ularga ishlov beriladi.

Shu kabi to'laqonli web-saytlar yaratishga xizmat qiluvchi dasturiy vositalarni to'rtta katta guruhga ajratish mumkin



Undan tashqari web-muharrirlarning ham turlari juda ko'p. Ular o'zining imkoniyati, tezkorligi, interfeysi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi. 3.1-jadvalda shunday dasturlardan asosiylari keltirilgan.

3.1-jadval


Web-muharrirlar ro'yxati

No	Dasturnomi	Izoh
1.	Bloknot (Notepad)	Windows operatsion tizimi standart vositalaridan bo'lib, undan HTML tilini yaxshi bilgan o'rganuvchilar foydalanadi.
2.	HomeSite4.5	HTML-muharrir. Teglarni ranglar bilan ajratish, bir vaqtning o'zida bir nechta faylda qidirish va almashtirish va boshqalar.
3.	UltraEdit-32	Dasturchilar uchun keng imkoniyatli matn muharriri. Bir vaqtning o'zida bir nechta faylni tahrirlash imkoniyati mavjud.
4.	Web Page Maker	Dastur Software Inc mahsuloti hisoblanadi. Qisqa vaqt ichida web-sahifa yaratish va yuklash imkoniyatini beradi. Unda HTML tilini bilish shart emas.
5.	DTM Lome 1.2	Ishboshlovchilar va professionallar uchun oddiy,

		tezkor va qulay HTML-muharrir.
6.	Artisteer. 2.3.0.20943	Dastlabki web-dizaynni avtomatlashtirgan dastur. Photoshop, CSS, HTMLlarni bilish talab qilinmaydi.
7.	CodeLobster PHP Edition 3.3	Juda qulay PHP. HTML. CSS muharriri
8.	Amaya	web-brauzer va HTML-muharrir The World Wide Web Consortium (W3C) tomonidan ishlab chiqilgan.
9.	NeonHTML	O'zida visual uskunalarini birlashtirgan HTML va CSS-muharrir.
10.	Serif WebPlus X2	Professional darajadagi web-saytlar yaratishga mo'ljallangan web-dizayn dasturi
11.	PHP Designer 2008 Professional 6.2.5.2	PHP tilida ish boshlayotgan va professional foydalanuvchilar uchun dastur. PHP dan tashqari dasturda HTML, MySQL, XML, CSS, JavaScript, VBScript, JAVA, C, Python va Rubylarni ham ishlatish mumkin.
12.	Dreamweaver CS4	Murakkab strukturali web-saytlarni loyihalash, yaratish va boshqarishga mo'ljallangan professional dastur.
13.	WapEditor 0.6d	Qulay va ko'p funksiyali web sahifalar yaratishga mo'ljallangan dastur.
14.	Best Address HTML Editor 2008 Professional 12.2.0	Ko'p funksiyali HTML-muharrir. Dasturda DHTML kodlari yordamida menyu yaratish imkoniyatlari mavjud.
15.	DzSoft PHP Editor 4.2.1	PHP—skriptlar yozishga va HTML-sahifalar yaratishga mo'ljallangan dastur.
16.	SaveChm 1.2	Rasmi web-sahifalarni tezkorlik bilan CHM (Windows-help) formatida saqlovchi dastur.
17.	MenuEditor 1.0.3.231	Web-saytlarda harakatlanish uchun qulay menyularni yaratishga mo'ljallangan dastur
18.	QuickPage 2008 (3.0.3.254)	Web-saytlar yaratishga mo'ljallangan professional dasturiy vosita.
19.	AAA Web Album	Bu dasturiy vosita web-sahifalar uchun fotoalbomlar yaratish uchun mo'ljallangan.
20.	MultipleFile Searchand Replace2.0	Bir vaqtning o'zida web saytning bir nechta fayllari bilan ishlashga mo'ljallangan dasturiy vosita
21.	Incomedia Website Evolution X5 7.0.9	Foydalanish uchun qulay bo'lgan. Tushunarli interfeys va qadamba-qadam yordamchidan foydalanib bir necha minutda web-sayt yaratish mumkin
22.	Arachnophilia 5.3.2177	Java asosida qurilgan HTML-muharrir Sun Microsystems mahsuloti hisoblanadi
23.	WebPage Maker v2.5 Rus	Dasturning arxivida bir qancha tayyor sayt shablonlari mavjud bo'lib, bir necha daqiqada HTML-sahifalar yaratish imkonini beradi
24.	Incomedia WebSite Evolution7.0	Shaxsiy web-saytlar yaratishga mo'ljallangan dastur
25.	Ace HTML Pro v6.03.0	Web-saytlar yaratish va ularga xizmat ko'rsatuvchi dasturlar paketi
26.	Sothink DHTMLMenu 8.3 build 71210	Web-ustalar uchun mo'ljallangan dasturlar paketi
27.	HTML Reader 2.5	HTML—sahifalar yaratish, tuzatish va ko'rishga mo'ljallangan dastur.

28.	PHP Designer Professional v6.0.0	2008	PHP, HTML, XHTML, CSS, Perl, C*, JavaScript, VB. Java va SQL muharriri.
29.	Atani 4.3.4 Rus		Web-sahifalar uchun bannerlar yaratishga mo'ljallangan dastur
30.	Sothink DHTMLMenu		DHTML menyular yaratishga mo'ljallangan dastur. Dasturdan foydalanishda DHTML yoki JavaScript bilish talab qilinmaydi
31.	TIGER CMS v1.0 Lite		Shaxsiy web-sahifalar yaratishga mo'ljallangan dastur

Web-dizaynda qo'llaniladigan bir qancha dasturiv vositalar mavjud. Bir qancha uskunaviy dasturlar, turli dasturlash tillari va boshqalar. Eng ko'p qo'llaniladigan tillarga misol qilib, HTML— gipermatnlarni belgilash tili, PHP, ASP, Java, JavaScript, DHTML va boshqa tillarni aytish mumkin. Web-dasturlash tillari ikki guruhga bo'linadi: mijoz va server tillari. Biz yuqorida web-serverga ta'rif berdik. Unga ko'ra server sizning saytingiz saqlanadigan, brauzerning so'rovlari qayta ishlanadigan qaysidir sahifadagi dasturlar saqlanadi. Undan tashqari serverga quyidagicha ta'rif berish mumkin: server—tarmoqishini ta'minlovchi maxsus kompyuter. Server disklarida kompyuterlarni birgalikda ishlash imkonini beruvchi dasturlar, ma'lumotlar ba'zalari va boshqalar saqlanadi. Bundan tashqari, serverlar modimli va fakslil aloqalarni, ma'lumotlarni bosmaga chiqarishishlarini amalga oshiradi. Serverda joylashgan dasturlardan foydalanish doirasi umumiy masalaning qo'yilishiga ko'ra cheklangan bo'lishi mumkin.



Web-texnologiyani (Internet-texnologiya) o'rganishni Web-dizaynning quyidagi uchta tushunchasini o'rganishdan boshlanadi: Web-sahifa, Web-sayt va Web-server.

Web-sahifa – o'zining unikal adresiga ega bo'lgan va maxsus ko'rish dasturi yordamida (brauzer) ko'riluvchi xujjatdir. Unga matn, grafika, ovoz, video yoki animatsiya ma'lumotlar birlashmasi - multimediyali xujjatlar, boshqa xujjatlarga gipermurojaatlar kirishi mumkin.

Web-sayt – bir qancha web-sahifalarning mantiqiy birlashmasi.

Web-server – tarmoqqa ulangan kompyuter yoki undagi dastur hisoblanib, umumiy resurslarni klientga taqdim etish yoki ularni boshqarish vazifalarini bajaradi. Web-serverlar ma'lumotlar bazalari va multimediyali ma'lumotlarni bir biriga moslashtiradi; Web-serverda Web-sahifa va Web-saytlar saqlanadi.

Internet tarmog'idagi Web-sahifalarni ko'rishingiz uchun WWW (World Wide Web) deb ataluvchi servisdan foydalanasiz.

World Wide Web (WWW, Butun dunyo o'rgamchak to'ri) – bu klient-server texnologiyasi asosida tashkil etilgan, keng tarqalgan Internet xizmatidir.

Matni hoshiyalash tillari va ularning qisqacha tasnifi

Web-texnologiyaning (Internet-texnologiya) Web-dizayn qismini o'rganishni esa razmetkali til yoki **matni hoshiyalash til** tasnifi bilan boshlaymiz.

Maxsus til mavjud bo'lib, bu til yordamida matnlar, grafik ma'lumotlar Web-sahifa xujjatga joylashtiriladi va bu xujjatni barcha kompyuterda ko'rish imkoniyati mavjuddir. Bunday

maxsus tillar razmetkali tillar yoki **matnni hoshiyalash tillari** deb ataladi. Ularning asosiy vazifasi – Web-sahifaga “ma'lumotlarni joylashtirish” va ular orasidagi aloqani (giperssilklar ya'ni giperaloqalar) ta'minlashdan iborat.

Matnni hoshiyalash tillarini veb sahifadagi yo'l harakati belgilariga o'xshatish mumkin. Ularni yana musiqachi uchun nota belgilari, deb qarash mumkin. **Hoshiyalash tillari** veb sahifani ekranda qanday boshqarish va ekranda ko'rsatish farmoyishlari to'plamidir. Bu farmoyishlar **teglar (tag – nishon, etiketka, degan ma'noni anglatadi)** deb ataladi va matn ko'rinishida bo'lgan veb sahifaga joylanadi.

Teglarda alohida fayllarda joylashgan grafik tasvirlarga murojaatlar ham bo'lishi mumkin. Bunday teglar veb brauzerga shu tasvirlarni chaqirish va veb sahifada aks ettirish kerakligini bildiradilar. Teglari yordamida veb sahifaga **gipermurojaatlar** ham kiritiladi. Bu gipermurojaatlarni faollashtirganda, foydalanuvchi bu teglarda ko'rsatilgan yangi veb sahifa va resurslarga o'tadilar yoki boshqa fayllarni veb brauzerga yuklab oladilar. Shunday qilib, veb sahifa hoshiyalash tilida tasvirlangan va har qanday veb brauzer ekranda aks ettira oladigan teglar to'plamidir.

Veb sahifada aks etishi kerak bo'lgan va boshqa matn muharrirlarida tayyorlangan xujjat tarkibida sarlavha, paragraflar, ro'yxatlar, turli shaklda formatlangan matn bo'ladi. Bu matnni veb brauzer tushunmaydi, chunki u hali hoshiyalash tillari yordamida hoshiyalanmagan va shu sababli u veb brauzerda bo'sh joy kabi aks etadi. Bu matnni veb brauzer to'g'ri tasvirlashi uchun unga mos teglarni qo'yib chiqish kerak. Bu esa **HTML** tili yordamida amalga oshiriladi. **HTML** – butun olam to'ringing ishchi tili. Uni barcha veb brauzerlar tushunadi, uni barcha qurilmalar qo'llab quvvatlaydi, ya'ni u bilan ishlay oladi.

Hoshiyalash tillari dasturlash tillaridan tubdan farq qiladi. Dasturlash tillari yordamida murakkab ilovalar, masalan matn yoki rasm muharriri yaratish mumkin. Hoshiyalash tillari ularga nisbatan birmuncha sodda bo'lib, ma'lumotni qanday tasvirlash uchun ishlatadi. Masalan, hoshiyalash tili yordamida, matndagi belgilarni qalin yoki qiyshiq qilib aks ettirish mumkin. Hoshiyalash tillarida uning farmoyishlari, ya'ni teglari, xujjat ichida, u aks ettirishi kerak bo'lgan matn bilan birga joylashadi.

HTML (Hypertext Markup Language – gipermatnni hoshiyalash tili) butun olam to'ringing hoshiyalash tilidir. Dastlab World Wide Web tizimi matnli ma'lumotlarni va HTML xujjatlarni ko'rishga mo'ljallangan, matnni taxrirllovchi tilga o'xshash tizim bo'lgan. Ayni damda HTML tili WWW daga eng ommabop tillardan biri hisoblanadi. HTML tilida yozilgan ma'lumotlar o'z ichiga matn fayllar, grafik ma'lumotlar va boshqalvni oladi.

Xujjatlar orasidagi aloqani ta'minlash va ma'lumotlarni formatlash vositalari teg (tag) deb ataluvchi vosita orqali amalga oshiriladi.

Web-sahifaning matn va teglari aralash ravishda HTML-xujjat deb ataluvchi faylining ichiga joylashtiriladi. Qanday tegni qo'llaganingizga qarab brauzer oynasida ma'lumotlar turlicha ko'rinadi. HTML xujjatga ma'lumotlarni joylashtirish va tahrirlash uchun yuzlab teglar mavjud. Masalan, <p> va </p> teglari abzatsni tashkil etadi, <i> va </i> juft teglari esa, matnni yozma (kursiv) holda ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga gipermatnli silklar teglari ham mavjud. Ushbu elementlar foydalanuvchiga gipermatn ustiga sichqoncha kursori bosilganda boshqa xujjatga bog'lanish imkonini beradi.

Demak, uning yordamida veb xujjatlar formatlanadi, ular tarkibiga gipermatnlar orasidagi bog'lanishlarni ta'minlaydigan teglar kiritiladi. HTML xujjatlari oddiy matn xujjatlaridir. Uni yaratish va tahrirlash uchun siz ixtiyoriy matn muharriridan foydalanishingiz mumkin. Bundan tashqari, HTML uchun maxsus yaratilgan ko'plab, bepul va pulga sotiladigan HTML muharrirlari ham mavjud.

Tarmoq kun sayin rivojlanib bormoqda, U bilan birga HTML ham kengaymoqda va o'zgarmoqda. Uning asosida **dinamik HTML** umumiy nomi bilan atalgan bir qator texnologiyalar yaratildi. Bu texnologiyalar veb sahifalarning bundan buyon statik, ya'ni o'zgarmas bo'lib qolmasligini ta'minlaydi. Ular yordamida HTML animatsiyalarni yaratadi va

ko`rsatadi, veb sahifalar interfaol ko`rinishda ishlay oladi va yana ko`plab ilgari iloji bo`lmagan imkoniyatlar yaratadi.

XML (Extended Markup Language – kengaytirilgan hoshiyalash tili) butun olam to`riga yanada ko`proq o`zgarishlar olib keldi va bu jarayon yana davom etmoqda. Bu til boshqa hoshiyalash tillaridan butkul farq qiladi. Bu tilda veb sahifalarning mazmuni uni taqdim etishdan, ya'ni shaklidan butunlay ajratilgan. Masalan, bevosita matnda belgilarning o`lchamini o`zgartirish o`rniga sahifa kontenti qanday ko`rinishda tasvirlanishi kerakligi haqida qoliqlar va stil varaqlarini yaratadi.

XML Veb xizmatlari deb nom olgan butunlay yangi texnologiyaning negizini tashkil etadi. Bu texnologiya asosida veb brauzeridan foydalanib, Internet orqali butkul yangi turdagi xizmatlarni etkazib berish mumkin.

XML bilan bog`liq **AJAX** nomli texnologiya Internetdan xuddi kompyuterning ish stolidagi ilovalar kabi foydalanish imkonini beradi.


HTML

1. Ma'lumotlarni veb brauzer tasvirlay olishi uchun ularga HTML teglarini joylash kerak. Bu jarayon **matnni hoshiyalash** deb ataladi.

2. Barcha HTML fayllar teglardan boshlanadi va ular bilan tugaydi. Teglar sarlavhalar paragraflarni tasvirlashda, belgilarning ko`rinishi va rangini tanlashda, © kabi maxsus belgilarni matnga kiritishda, abzatslarni ajratishda va boshqa narsalarda ishlatiladi.

3. HTML xujjat ixtiyoriy kompyuterdagi veb brauzer orqali ekranga chiqarilishi mumkin. Bu narsa HTML formatining platformalarga bog`liq bo`lmasligini ta'minlaydi. HTML xujjat qanchalik katta va murakkab bo`lsa, uni internetdan yuklash va ekranda tasvirlash shunchalik ko`p vaqt oladi.

4. Yuklangan veb sahifalarni nafaqat ekranda ko`rish, balki ularni saqlab qo`yish ham mumkin. Saqlangan veb sahifalar HTML fayl qo`rinishida bo`ladi va ularni ixtiyoriy vaqtda veb brauzer orqali ekranga chiqarish mumkin.



Dinamik HTML

1. **Dinamik HTML** an'anaviy **HTML** dan farqli ravishda veb sahifalarini jonlantirib yuboradi. Oddiy HTML da yaratilgan veb sahifa brauzer yordamida yuklangach, statik holatda, ya'ni o`zgarmas bo`lib qoladi. Uni o`zgartirish uchun foydalanuvchi tomonidan biror bir amal, masalan keyingi sahifani yuklash kerak bo`ladi. **DHTML** yordamida esa foydalanuvchi hech nima qilmasa ham sahifa o`zgarishi mumkin. Masalan, sahifadagi matn rangi biroz vaqt o`tgach o`zgarishi, uchishga tayyor turgan raketa uchib ketishi mumkin. **DHTML** da serverdagi veb sahifalarni dinamik tarzda yaratish mumkin. Masalan, bugun sotuvda chiqariladigan kitoblar ro`yxati kitoblarga bag`ishlangan yangi veb sayt yaratilayotgan paytda ma'lum emas va u faqat dinamik HTML yordamida yaratiladi.



2. **DHTML** o'z ishini veb sahifa yuklangandan keyin serverga murojaat qilmasdan bajaradi. Shu sababli u ba'zi interfoal vazifalarni serverga bog'lanib ishlaydigan texnologiyalarga nisbatan juda tez bajaradi. **DHTML** da u bajarishi kerak bo'lgan farmoyishlar veb sahifaning ichiga **HTML** teglari yordamida kiritiladi.

3. **DHTML** ko'pincha yagona texnologiya sifatida qabul qilinsa-da, aslida bu umumiy tushuncha veb sahifa sizning kompyuteringizga yuklangandan keyin boshqa texnologiya bilan birga yoki yolg'iz holda veb sahifalarga o'zgartirish kiritiladigan bir qator texnologiyalar yig'indisidir. Ularga misol sifatida **DOM (Document Object Model – xujjat ob'ektlari modeli)**, **CSS (Cascade Style Sheets – Stillarning kaskadli varaqlari)**, **Script (stsenariy)** larga asoslangan dasturlash tillari – **JavaScript, VBS (Visual Basic Script)** larni keltirish mumkin.

4. **DOM (Document Object Model – xujjat ob'ektlari modeli)** veb sahifadagi har bir element va ob'ektni aniqlab beradi. Bu ob'ektlar ustida turli amallar bajarish yoki ularning xossalarini o'zgartirish yordamida veb sahifalarni dinamik tarzda boshqarish imkonini beradi. Bu ob'ektlar ichida shriftlar, rasmlar, vizual elementlar, veb brauzer nomi, bugungi sana va hozirgi vaqt kabi ko'rinmas ob'ektlar ham bor.

DOM ishlatilmasa, veb sahifa o'zgarimasligicha qoladi. **DHTML** esa **DOM** yordamida, masalan veb sahifadagi har bir harfning yoki sahifadagi barcha harflarning rangini o'zgartira oladi.

5. **CSS (Cascading Style Sheets – stillarning kaskadli varaqlari)** aslida **shablon (qolip)** lar bo'lib, veb sahifa elementlarini formatlash va uning stili haqidagi axborotdan foydalanishi uchun ishlatiladi. Bir sahifa uchun bir necha shablonlar yaratish mumkin va ular bir-birini to'ldiradi. Shu sababli ular **kaskadli** deb ataladi.

Bundan tashqari, **CSS** da bir tasvir ustiga ikkinchisini chiqarish imkoniyati ko'zda tutilgan. Bu narsa veb sahifalarda sodda animatsiyalarni oson yaratish uchun xizmat qiladi.

6. Stsenariylar tili yordamida **DHTML** dagi yumushlarning ko'plari bajariladi. Bu tillar **DOM** ob'ektlari bilan ishlaydi, uning elementlari va xossalarini o'zgartira oladi, **CSS** qiladigan barcha amallarni bajara oladi. Ular yordamida **DHTML** qiladigan barcha ishlar amalga oshiriladi. Masalan, stsenariy yordamida matn ustiga sichqonchani olib kelganda, matn rangi o'zgaradigan qilish mumkin. Veb sahifalarda keng ishlatiladigan – ochiladigan **navigاتورlar** ham stsenariylar yordamida yaratiladi.


XML – The Extended Markup Language

1. **XML (Extensible Markup Language – kengayuvchan hoshiyalash tili)** veb dizaynerlar oldida turgan bir qator muammolarni hal qiladi. Undan foydalanilmasa, kompyuterlar, uyali telefonlar, cho'ntak kompyuterlari kabi turli qurilmalarga mo'ljallangan sayt

yaratish uchun aslida uchta turli sayt yaratishga to'g'ri kelardi. Ulardan biri HTML yordamida kompyuterlar uchun, ikkinchisi WAP yordamida uyali telefonlarga, uchinchi **Web Clipping (clipping – qisqartirish, kesib tashlash,** degan ma'noni anglatadi) degan texnologiya asosida cho'ntak kompyuterlariga mo'ljallangan bo'lar edi.

2. XML ni tushunish uchun uning asosiy kontsentsiyasi bo'lgan gipermatnning shakli va mazmuni bir-biridan qanday ajratilishini bilib olish kerak. XML tilida kontent (tasvirlanishi kerak bo'lgan ma'lumot) ni aks ettirish farmoyishlari o'rniga kontentni tavsiflash farmoyishlaridan foydalaniladi. Masalan, kontent tarkibiga matndagi harflar o'lchami haqidagi farmoyishlar bo'lmaydi. Buning o'rniga, XML veb sahifa kontentining turini aniqlovchi teglar ishlatiladi. Bunday sahifalarni ekranda tasvirlash uchun butunlay boshqa usuldan foydalaniladi. Bu usulda bitta sahifa bir necha usullarda tasvirlanishi mumkin va uning uchun sahifa kontentiga o'zgartirish kiritishi shart emas. O'zgartirishlar faqat bu sahifaning dizayniga tegishli bo'ladi.

3. Veb sahifaga XML kontent joylangan bo'lsin. Veb saytga turli qurilmalar: kompyuterlar yoki uyali telefonlardan kirish ko'zda tutilgan bo'lsin. Misol uchun saytga uyali telefondan kirilgan bo'lsin.



XSLT (Extensible Style Language Transformations – Stillarning kengaytirilgan tili almashtirishlari) XML li kontentga qo'llanishi mumkin. XSLT yordamida XML ga turli stillardagi dizaynni qo'llash mumkin. Masalan, XML ni HTML sahifaga yoki WAP sahifaga aylantirish mumkin.

4. XML li saytga birorta qurilmadan kirilganda, bu qurilmaning turini aniqlashga to'g'ri keladi. Saytga kirgan qurilma turini aniqlash uchun CGI (Common Gateway Interface – umumiy shlyuz interfeysi) stsenariysidan foydalaniladi.

Saytga kirgan qurilma turi aniqlangach, bu narsa XML ga ma'lum qilinadi. XML esa XSLT dan foydalanib, kerakli stildagi dizayn yordamida veb sahifa yaratadi va kontent qurilma ekranida to'g'ri aks etadi.

AJAX – Asynchronous JavaScript and XML

1. AJAX (Asynchronous JavaScript and XML – Asinxron Java Script va XML) veb dizaynlarga interfaol veb saytlar yaratish imkonini beradi. Bu veb saytlar sekin ishlaydigan statik saytlardan ko'ra ko'proq bitta kompyuterda ishlaydigan dasturlar, masalan MS Word ga o'xshab ketadi.

2. AJAXdan foydalanib yaratilgan saytga kirilganda, u xuddi HTML sayti kabi yuklanadi. HTML sahifa AJAX dan interfaollikni yaratish uchun foydalanadi. Foydalanuvchi ko'proq ma'lumot olishni talab qilganda (masalan, xaritani tanlaganda), JavaScript so'rovnomani yaratadi.

3. JavaScript so'rovnomani to'g'ridan-to'g'ri veb saytga jo'natmaydi. U XML http so'rovni bajaradi. Veb saytga bog'lanish paytida JavaScript foydalanuvchi bilan muloqatni davom ettiradi. So'ralgan ma'lumot XML formatida yoki boshqa formatda bo'lishi mumkin.



4. XML http so`rovi bajarilayotganda veb sahifa va JavaScript bo`sh bo`ladilar va ular foydalanuvchi bilan muloqatni davom ettiradilar. AJAX texnologiyasiz buning iloji bo`lmas edi.

5. Serverdan ma'lumot kelgach, XML http uni JavaScript ga qaytaradi. JavaScript ma'lumotni olgach, uni aks ettiradi. Bunda sahifaning faqat bir qismidagi ma'lumot yangilanadi, qolgan qismi esa o`zgarmaydi. Bu esa ma'lumotlarni ekranga chiqarishni tezlashtiradi va interfaol muloqat uchun asos yaratadi.

Web serverlar

Veb sahifa va veb saytlarga xizmat ko`rsatish uchun mezbon kompyuterlar va serverlarda ishlatish uchun server dasturiy ta'minoti kerak bo`ladi. Veb saytlar va bu saytlarni yaratish, boshqarish uchun mo`ljallangan dasturiy ta'minot mezbon kompyuterda joylashgan bo`ladi, mezbon kompyuterlar bog`lanish protokollarini boshqaradi. Mezbon kompyuterlar Unix, Windows yoki Macintosh kabi turli operatsion tizim ostida ishlaydilar. Bu operatsion tizimlarning hammasi tarkibiga TCP/IP protokolini qo`llab-quvvatlovchi dasturiy vositalar kiradi.

Server dasturiy ta'minoti serverlarda joylashgan bo`lib, klient kompyuteridagi veb brauzer talablariga ko`ra so`ralgan veb sahifalarga xizmat ko`rsatadi va boshqa amallarni bajaradi. Server dasturiy ta'minoti TCP/IP bog`lanishlar uchun javob bermaydi. Buni serverdagi operatsion tizim bajaradi. Lekin server dasturiy ta'minoti operatsion tizim yordamida HTTP bog`lanishlar va talablarini qo`lga kiritadi va ularni qayta ishlaydi.

Server dasturiy ta'minotining har xil turlari, masalan ma'lumotlar ombori serveri, FTP serveri, tarmoq serverlari mavjud. Xususan, veb server HTTP serverining bir turi bo`lib, uning vazifasiga klient kompyuterlariga HTTP protokoli yordamida turli ma'lumotlarni jo`natish kiradi.

Odatda, klient kompyuteridagi veb brauzer serverga HTML xujjatni jo`natish kabi talablarni qo`yadi. Server bunday talablarni olgach, unga javob beradi. Bu javobning boshida uzatish haqida ma'lumot, qolgan qismi HTML fayldan iborat bo`ladi.


Albatta, veb serverlar sahifalarni veb brauzerga uzatishdan boshqa ishlarni ham qiladi. U veb sahifadagi CGI stsenariylarini mos CGI ilovalariga uzatadi. Bu stsenariylar tashqi mini-dasturlarni ishga tushiradi. Zarurat bo`lganda, bu dasturlar ishining natijalarini veb server orqaga veb brauzerga qaytaradi. Bulardan tashqari, veb serverlar tarkibiga konfiguratsiya fayllari va utilitlar kiradi, ular veb saytlarni turli usullarda himoya qilish va boshqarish imkonini beradilar.

Veb server dasturiy ta'minoti.

1) Klient kompyuteri dasturi (**brauzer**) serverga kerakli ma'lumot haqida talabnoma yuboradi. Bu talabnoma veb server tomonidan qayta ishlanadi.

Yagona **IP** manziliga ega mezbon kompyuterda bir necha turdagi serverlar joylashgan bo`lishi mumkin. Shu sababli bitta kompyuterga joylashgan turli serverlar kompyuterning turli

kirish portlaridan foydalanadilar. Kirish portallari **0** dan **65535** gacha raqamlab chiqilgan bo`ladi. Mezbon kompyuterlar **IP** manzilidan tashqari domen (soha) nomlariga ega. Bu nomlarga mos keladigan **IP** manzillarni aniqlash uchun **DNS (Domain Name System – domen nomlari tizimi)** dan foydalaniladi.



2) Brauzer yuborgan talabnomalar zarur hujjatlarning formatini belgilab beradi. Agar veb brauzer NTML faylni so`rsa, bu fayl bevosita veb brauzerga jo`natiladi.

3) Agar veb brauzer boshqa formatdagi, masalan ma'lumotlar omboriga tegishli ma'lumotni so`rsa, bu talabnoma CGI orqali tegishli ilovaga uzatiladi. CGI stsenariyi orqali topilgan yoki qayta ishlangan ma'lumotlar serverga qaytariladi. Server esa ularni brauzerga uzatadi.

4) Odatda har bir server oldindan aniqlangan kirish portidan foydalaniladi. Bu portlarning nomerlari quyidagicha bo`lishi mumkin. (raqamlar 16 lik sanoq sistemasida keltirilgan):

- 1) NTTR server – # 80.
- 2) FTP server – #21.
- 3) Gopher server – #70.
- 4) Telnet server – # 23.
- 5) Usenet server – # 119.
- 6) WAIS server – # 210.

Nazorat savollari:

1. HTML tili operatorlarini ba'zilarini ma'nosini tushuntiring.
2. Mantiqiy formatlash teglariga qaysi operatorlar kiradi, misollar keltiring.
3. Fizik formatlash teglariga qaysi operatorlarni aytilish mumkin, ularga misollar keltiring.
4. Brauzer bu nima? Qanday WEB texnologiyalar dasturlarini bilasiz?
5. Web sahifalarni ko`rish vositalariga nima deyiladi? Web sahifa fayli qanday kengaytmaga ega bo`ladi? Gipermatr va gipermurojaat nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Абдуг'аниев. Интернет технологиялари. Тошкент, 2011, 88 б.
2. Sh. Qudratxo`jaev. Internet: tarixi, tuzilishi, texnik xavfsizlik. Toshkent, «O`zbekiston», 2011
3. «Internet va undan foydalanish asoslari». Marahimov A.R., Rahmonqulova S.I. Toshkent, 2002

Mavzu: HTMLga kirish, uning asosiy elementlari. Teg tushunchasi. (2 soat)

4 – ma`ruza

Reja

1. Hyper Text Markup Language (HTML)ni belgilash tili to'g'risida umumiy ma'lumot.
2. HTML ning asosiy teglari.
3. Identifikatorlar.
4. HTML tilida ranglar.

Tayanch iboralar

HTML, teg, asosiy teglar, ranglar, hujjat sarlavhasi, hujjat tanasi, ochiluvchi teglar, yopuvchi teg, gipermatn, giper murojaat.

Hyper Text Markup Language (HTML)ni belgilash tili to'g'risida umumiy ma'lumot

Butun dunyo o'rgimchagi to'ri – **World Wide Web (WWW)** HTML gipermatn bog'lanish tili yordamida tuzilgan Web-sahifalardan iborat HTML ancha murakkab til (**Standart Generalived Marnup Language**) **SGML**ning hisoblanadi. Ananaviy tushuncha bo'yicha HTML butunlay dasturlash tili hisoblanmaydi. HTML–hujjatni belgilash tili. HTML–hujjatni tadqiq qilishda matnli hujjatlar teg(tag)lar bilan belgilanadi. Ular maxsus burchakli ishoralar bilan o'rlagan bo'ladi, (< va >). Teglar matnlarni formatlashda va matnga har xil nomatn elementlarni masalan, grafiklar, qo'shimcha ob'ektlar va shu kabilarni o'rnatishda ishlatiladi.

HTML tilining **asosiy qoidalari** quyidagicha:

1 - qoida. HTMLdagi istagan harakat teglar bilan aniqlanadi. Bitta teg (chap) harakatning bosh qismida, ikkinchisi esa, (o'ng) oxirida turadi. Bunda teglar « < » yoki « > » ishoralar bilan yonma-yon turadi. Yolg'iz o'zi ishlatiladigan teglar ham mavjud.

2 - qoida. Brauzer darchasidagi burchakli qavs ichiga joylashtirilgan istagan teg yoki boshqa instruktsiya tashqariga chiqarilmaydi va HTML–fayl uchun ichki buyruq hisoblanadi

Demak, **WWW** sistemasidan qandaydir hujjat yoki xabar olsangiz, ekranda yaxshi formatlangan, o'qish uchun qulay matn paydo bo'lganini ko'rasiz. Bu shuni anglatadiki, **WWW** hujjatlarida qandaydir ma'lumotlarni ekranda boshqarish imkoniyati ham mavjud. Hujjatlar tayyor, siz foydalanuvchining qaysi kompyuterda ishlashini bilmaysiz, hujjatlar aniq bir kompyuter platformalariga mo'ljallangan yoki qaysidir format bilan saqlanishini oldindan ayta olmaysiz. Kompyuterda ishlayotgan foydalanuvchi qaysi terminalda ishlashidan qat'iy nazar, yaxshi formatlangan hujjatni olish kerak. Bu muammoni **HTML** andoza tili hal qiladi. **HTML (Hyper Text Markup Language - gipermatn belgilash tili)**. **WWW** sistemasi uchun hujjat tayyorlashda ishlatiladi. **HTML** hujjatning tuzilishini ifodalovchi uncha murakkab bo'lmagan buyruqlar majmuidan iborat. **HTML** buyruqlari orqali matnlarni istagancha shaklini o'zgartirish, ya'ni matnning ma'lum bir qismini ajratib olib boshqa faylga yozish, shuningdek boshqa joydan turli xil rangli tasvirlarni qo'yish mumkin. U boshqa hujjatlar bilan bog'laydigan gipermatnli aloqalarga ega.

90-yillarning o'rtalarida internet tarmog'ining eksponentsial o'sishi oqibatida HTML tili ommaviy tus oldi. Bu vaqtga kelib, tilni standartizatsiyalash zarurati tug'ildi, chunki ko'p kompaniyalar Internetga kirish uchun ko'plab dasturiy ta'minotlar ishlab chiqdilar, to'xtovsiz o'sib borayotgan (HTML instruktsiyasi bo'yicha) o'zlarini variantlarini tavsiya qildilar. HTML tili teglarini qo'llash bo'yicha yagona bir qarorga kelish payti yaqinlashgan edi.

World Wide Web Consortium (qisqacha–**WZS**) deb nomlangan tashkilot HTML standarti (spetsifikatsiya)ni yaratish ishlarini o'ziga oldi. Uning vazifasiga brauzerlar tadqiqotchi kompaniyalarning har xil takliflarini hisobga olgan holda tilning zamonaviy rivojlanish imkoniyatlari darajasini aks ettiruvchi standartni yaratish kiradi. Spetsifikatsiyaning tasdiqlash sxemasi quyidagilardan iborat: **WZS** konsortsiumi standart loyihasini tayyorlaydi. Muhokama qilingandan so'ng, uning ishchi (draft) varianti chiqariladi, so'ngra uni ma'lum bir davrga yana muhokama qilish uchun tavsiya qilinadi. Istagan xohlovchi odam HTML standartining yangi teg va versiyalari muhokamasida ishtirok etishi mumkin. Muhokama davri tugagandan keyin,

standartning ishchi varianti tavsifnoma hisoblanadi, ya'ni HTML spetsifikatsiyaning rasmiy tan olingan varianti bo'ladi. Qabul qilingan standart (**Document Type Definition - hujjat xilini aniqlash**) **DTD** deb ataladi.

Internetda birinchi marta ko'rsatilgan (taqdim qilingan) HTMLdagi DTD–standartning 1.0 versiyasi bo'ldi. So'ngra 1995 yil noyabr oyida WWW uchun ancha aniq va o'ylab qilingan 2.0 versiya yaratildi.

1996 yil sentyabr oyida bir necha oylik muxokamadan so'ng 3.2 versiya tasdiqlandi (3.0 versiya nashr qilinmadi).

1997 yil iyun oyida HTML–standartining 4.0 versiyasi e'lon qilindi va 1997 yil dekabrda rasmiy standartga aylandi. Bugun bu qabul qilingan standartlarning eng oxirgisidir.

HTML ning asosiy teglari

HTML hujjatlari – bu matnli fayllar bo'lib, ularga belgilash teglari deb nomlangan maxsus kodlar kiritilgan. Bu teglar Web-brauzerlarga matn va grafiklarni qanday qilib sharhlash va aks ettirish lozimligini ko'rsatib turadi. HTML fayl – bu oddiy matnli fayl. Shuning uchun uni istagan matn redaktorida, masalan MS Word yoki oddiy «Bloknot»da yaratish mumkin. **HTML sahifa nima?** - bu oddiy text fayl bo'lib, **.html** qisqartmasiga ega.


Eslatib o'tish joiz, hujjat yaratilgach, uni matn formatida saqlash kerak. Lekin, bu ishni bajarishdan oldin uning kengaytmasini o'zgartirish, ya'ni TXT o'rniga HTML yoki HTMLni qo'yishni esdan chiqarmaslik kerak. HTML va HTML kengaytmasi HTML fayl uchun **standart** hisoblanadi. Bundan tashqari, bu kengaytmalar kompyuterga faylda matnlardan tashqari HTML kodlari ham mavjudligini ko'rsatib turadi. HTML tili harflar razmeriga befarqdir, ya'ni bosh va kichik harflar bir xil qabul qilinadi. Lekin teglarni yozishda ko'pincha bosh harflardan foydalaniladi.


Bundan tashqari, HTML sahifani yaratish uchun maxsus dasturlarni qidirib topib, sotib olish shart emas. Matn tahrirlovchi har qanday dastur orqali HTML sahifa yaratish mumkin.

Masalan: Windows muhitidagi matn muxarrirlari: **Notepad, TextPad, UltraEdit, EdutPlus**. Ana shunday matn tahrirlovchi oddiy dasturlardan biri bo'lgan **Notepad (Блокнот)**, Windows muhitida ishlovchi har bir kompyutreda mavjud.

Ba'zi matn muxarrirlarida HTML hujjatni web brauzerda sinab ko'rish tugmasi mavjud.

HTML xujjatni yaratishga mo'ljallangan maxsus dasturlar (HTML muxarrirlar) ham mavjud: **FrontPage, Adobe GoLive, Macromedia Dreamweaver, Nestcape Composer**. Muharrirlar 2 turga bo'linadi:

 kod muxarrirlari;

 WYSIWYG texnologiyasi (What You See Is What You Get – nimani ko'rsang o'shani olasan) asosida ishlaydigan muharrirlar. Bu muharrirlar yordamida foydalanuvchi HTML komandasi va elementlarini yozmaydi, oddiy matn muxarrirlaridek matn yozadi, tasvirlarni kerakli joyga joylashtiradi, formatini o'zgartiradi va h.k. xolos.

Web-sahifa ko'rinishi va aks ettirilayotgan axborotning qanaqaligidan qat'iy nazar, HTML va WWW spetsifikatsiyasiga asosan har bir Web-sahifada ishtirok etishi zarur bo'lgan quyidagi **to'rtta teglar** mavjud:

1. **<HTML>** brauzerga hujjat HTML tilida yozilganligi to'g'risida xabar beradi.
2. **<HEAD>** HTML–hujjatning kirish va bosh qismini belgilaydi.
3. **<BODY>** asosiy matn va axborotni belgilaydi.
4. **<ADRESS>** bu Web-sahifa to'g'risida ko'proq to'la-to'kis axborot olish uchun kerak bo'ladigan elektron pochta manziliga ega.

Bu teglar Web-brauzerga HTML–hujjatning har xil qismlarini aniqlash uchun juda zarurdir, lekin ular Web-sahifaning tashqi ko'rinishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydi. Ular HTMLga kiritilgan navbatdagi yangi ma'lumotlar uy sahifalarida to'g'ri sharhlash, shu bilan birga barcha Web-brauzerlarda bir xil ko'rinishga ega bo'lishi uchun juda zarurdir.

Demak, **HTML tili** andozasi bo'yicha hujjatga **<HEAD>** va **<BODY>** teglarini kiritish tavsiya etiladi. Brauzer HTML hujjatni o'qiganida, ularning borligi hujjat bo'limlarini aniq

ko`rsatadi. Agar ular bo`lmasa ham brauzer HTML hujjatni to`g`ri o`qiydi, lekin hujjat bo`limlari bir-biridan ajralib turmaydi.

Shunday qilib, to`g`ri tuzilgan HTML hujjat quyidagi tuzilishga ega:

<HEAD>

Sarlavhaga oid ma'lumot

</HEAD>

<BODY>

Hujjatning mazmuni

</BODY>

Bunda **<HEAD>**, **</HEAD>** orasida joylashgan sarlavhaga oid ma'lumot qismida odatda foydalanuvchiga e'tiborsiz, lekin brauzer uchun lozim ma'lumot beriladi.

<BODY>, **</BODY>** orasiga esa to`lalligicha uning operatorlari ketma-ketligi joylashtiriladi.

Masalan, sizning Web-serveringizda barcha HTML - hujjatlarni ko`radigan va ularning ro`yxatini tuzadigan dastur ishga tushirilgan. U **<HEAD>** teglari ichida joylashgan matnlarni ko`radi, xolos (bu erda hujjatlar nomi ham joylashtirilgan bo`ladi). Shunday qilib, agar uy sahifalarida **<HEAD>** va **</HEAD>** teglari bo`lmasa, u holda u ro`yxatga kiritilmaydi. Anchagina nomi chiqqan Web-serverlar – qidiruv vositalarining ko`pchiligi mana shunday ishlaydi. Ular axborotlarni **<HEAD>** teglaridan oladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda Web-sahifada ishtirok etishi zarur bo`lgan quyidagi **to`rtta asosiy teglarni** tavsiflashga harakat qilamiz.

✚ <HTML> va </HTML> teglari

Bu teglar brauzerlarga ular orasidagi matnni xuddi HTML matni kabi sharhlash (izohlash) zarurligi to`g`risida xabar beradi, chunki HTML-hujjatlari faqat matnlidir. **<HTML>** teg esa, faylning gipermatn bog`lanish tilida yozilganligini bildirib turadi.

✚ <HEAD> va </HEAD> teglari

Bu teglar Web-sahifalar nomlarini belgilaydi. Buning uchun **<HEAD>** va **</HEAD>** teglar orasida Web-sahifa nomi kiritiladi. Ya`ni **HEAD** bo`limi sarlavha hisoblanadi va u majburiy teg emas, biroq mukammal tuzilgan sarlavha juda ham foydali bo`lishi mumkin. Sarlavha qismining maqsadi hujjatni tarjima qilayotgan dastur uchun mos axborotni etkazib berishdan iborat. Hujjat nomini ko`rsatuvchi **<TITLE>** tegidan tashqari bu bo`limning qolgan barcha teglari ekranda aks ettirilmaydi. Odatda **<HEAD>** tegi darhol **<HTML>** tegidan keyin keladi. **<TITLE>** tegi sarlavhaning tegidir, va hujjatga nom berish uchun hizmat kiladi. Hujjat nomi **<TITLE>** va **</TITLE>** teglar orasidagi matn qatoridan iborat. Bu nom brauzer oynasining sarlavhasida paydo bo`ladi (bunda sarlavha nomi 60 belgidan ko`p bo`lmasligi lozim). O`zgartirilmagan holda bu matn hujjatga «zakladka» (**bookmark**) berilganda ishlatiladi. Hujjat nomi uning tarkibini qisqacha ta'riflashi lozim. Bunda umumiy ma'noga ega bo`lgan nomlar (masalan, **Homepage**, **Index** va boshqalar) ni ishlatmaslik lozim. Hujjat ochilayotganda birinchi bo`lib uning nomi aks ettirilishi, so`ngra esa hujjat asosiy tarkibi ko`p vaqt olib, kengayib ketishi mumkin bo`lgan formatlash bilan birga yuklanishini hisobga olgan holda, foydalanuvchi xech bulmaganda ushbu axborot qatorini o`qiy olishi uchun hujjatning nomi berilishi lozim.

*. Har bir HTML hujjat faqatgina bitta nomga (sarlavhaga) ega bo`ladi. So`ngra uning oldi va orqa tomonlarini **<TITLE>** va **</TITLE>** teglari bilan belgilang.

U, odatda brauzer darchasi sarlavhasida ko`rsatiladi. Konteyner **<TITLE>** tegini hujjat faylining nomi bilan adashtirmaslik kerak. Aksincha u fayl nomi va manziliga butunlay bog`liq bo`lmagan matn satridir. Fayl nomi kompyuterning operatsion tizimi (OT) orqali qat'iy ravishda aniqlanadi. Shu bilan birga, hujjatlar nomi (teg **<TITLE>** bilan birga) ni hujjat ichidagi ko`pincha **<H>** teglari bilan joylashadigan sarlavhalardan farqlash kerak bo`ladi.

✚ <BODY> va </BODY> teglari

<BODY> va **</BODY>** teglari **<HEAD>** kabi HTML hujjatning maxsus qismlarini belgilashda ishlatiladi. **<BODY>** teglari egallab olgan matn hujjatning asosiy qismi hisoblanadi.

Matnning katta qismi va boshqa axborotlar ham uning tarkibiga kiritiladi. Quyida <BODY> tegining bir qator parametrlarini keltiramiz.

<BODY> tegi parametrlari:

ALINK – faol murojaat (ссылка) ning rangini belgilaydi.

BACKGROUND – fondagi tasvir sifatida foydalaniluvchi tasvirni belgilaydi.

URL - manzilini belgilaydi.

BOTTOMMARGIN – hujjatning quyi chegaralarini piksellarda belgilaydi.

BGCOLOR – hujjat fonining ranglarini belgilaydi.

BGPROPERTIES – agar **FIXED** qiymati oʻrnatilmagan boʻlsa, fon tasviri aylantirilmaydi.

LEFTMARGIN – chap chegaralarni piksellarda belgilaydi.

LINK – xali koʻrib chiqilmagan ssoʻlkaning rangin belgilaydi.

RIGHTMARGIN – hujjat oʻng chegarasini piksellarda oʻrnatadi.

SCROLL – brauzer darchalari xarakatlantirish (prokrutka) yoʻlaklarini oʻrnatadi.

TEXT – matn rangini aniqlaydi.

TOPMARGIN – yuqori chegarasini piksellarda oʻrnatadi.

VLINK – ishlatilgan murojaat rangini belgilaydi.

BOTTOMMARGIN, **LEFTMARGIN**, **RIGHTMARGIN** va **TOPMARGIN** pametrlari matn chegarasi va darcha chetlari orasidagi masofani piksellarda belgilaydi.

✚ <ADDRESS> va </ADDRESS> teglari

Bu teglar mazkur sahifaga nisbatan kimdadir savol yoki fikr tugʻilib qolgan taqdirda kimga murojaat qilish kerakligi toʻgʻrisidagi axborotlarni oʻz ichiga oladi.

<ADDRESS> teglari bu axborotlarni asosiy blokdan ajratib olish uchun ishlatiladi. Uy sahifasiga bu teglarni kiritish uchun quyidagi qadamlarni bajaring:

1. <BODY> va </BODY> teglari orasida ismingizni va elektron pochta adresini tering.

2. Soʻngra ismingiz va adresingizga <ADDRESS> tegini kiriting.

3. Ism (nom) va adresdan soʻng, yopuvchi </ADDRESS> tegni kiriting.

Endi Web-sahifani (misol tariqasida) koʻrib chiqamiz:

<HTML>

<HEAD>

<TITLE> Web-sahifa misoli </TITLE>

</HEAD>

<BODY>

<H1> bizning Web-sahifamiz </H1>

<P> bu Web-sahifa Web-dizayner boʻlishi mumkinligini namoyish qilish maqsadida yaratilgandir. Buning uchun Web-serverga sozlanishi qiyin dastur talab qilinmaydi. Bunda sizning operatsion tizimingiz muvaffaqiyat bilan uning oʻrnini bosa oladi. </P>

</BODY>

</HTML>

Bu erda terminologiya toʻgʻrisida biroz oldindan kelishib olishimiz kerak. HTML–hujjatda xato boʻlsa, lekin baribir brauzer tomonidan chidab boʻlarli darajada koʻrsatilsa, bunday hujjatni **yaxshi rasmiylashtirilgan hujjat** deyiladi. Aksincha, rasmiylashtirishda xatosi boʻlmagan HTML hujjat **standart hujjat** deyiladi.

Sahifamiz kodiga yana bir bor nigoh tashlaymiz. Barcha **HTML hujjat** juft teglar – <HTML> va </HTML> ichida joylashganligi maʼlum boʻladi. Bu standart HTML–hujjatlarni rasmiylashtirishning **birinchi qoidasidir**. **Ikkinchi qoida** boʻyicha HTML–hujjat ikkita bir-biriga teng boʻlmagan sektsiyaga boʻlingan boʻladi.

Birinchi (kichik) **sektsiya** – bu HTML sarlavha. HTML sarlavha juft teglar – <HELD> va </HEAD> bilan ajralib turadi. U brauzer darchasida aks etmaydi, lekin brauzer oʻz ehtiyojlari uchun foydalanadigan xizmat axborotlarini oʻz ichiga oladi.

Ikkinchi (katta) **sektsiya** – bu hujjat jismi deb ataladigan shaxsiy hujjat. Xuddi mana shu hujjat jismi brauzer darchasida aks ettiriladi. Jism juft teglar – <BODY> va </BODY> bilan

ajralib turadi. Bu erdan standart HTML hujjatlarni rasmiylashtirishning **ikkinchi qoidasi** kelib chiqadi: har bir hujjatda HTML sarlavha va test gipermurojaatlari (ссылка) bo'lishi va bu ikkala sektsiyalar to'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lishli shart.

<BODY> tegida matn va fon rangi to'g'risidagi axborot mavjud bo'lishi mumkin. Buning uchun chap teg formatini ozgina o'zgartirish kerak bo'ladi.

Masalan: <BODY BGCOLOR="FFFFFF" TEXT="000000">.

Bu erda **BGCOLOR** parametri fon rangini, **TEXT** esa matn rangini aniqlab beradi. Bu misolda fon uchun **sariq**, matn uchun **qora** ranglar tanlangan.

Misollar:

1. <BODY TEXT = "#000000"> yoki <BODY TEXT = black>
2. <BODY BGCOLOR = "#ffffff"> yoki <BODY BGCOLOR = WHITE>
3. <BODY LINK = "#ff0000"> yoki <BODY LINK = RED>
4. <BODY LINK = "#00FFFF" ALINK = "#800080"> yoki <BODY VLINK = Aqua ALINK = PURPLE>

Misol:

<HTML>

<HEAD>

<TITLE> - sahifa fonini berish misoli </TITLE>

</HEAD>

<BODY BGCOLOR=YELLOW TEXT=BLACK LINK=RED VLINK=PURPLE
ALINK=GREEN>


</BODY>

</HTML>

Identifikatorlar.

HTML tilida har bir qo'llanilgan tegga unikal identifikator berish imkoniyati mavjud. Masalan matn bir necha abzatlardan tashkil topgan bo'lsin. Har bir abzatsga mos maxsus nom berish mumkin, keyinchalik HTML tilining qo'shimcha imkoniyatlari yordamida bu abzatlarni boshqarish mumkin, ya'ni ularning birortasini ko'rinmas qilish yoki shrifti rangini o'zgartirish.

Yuqoridagi ishlar faqat abzatslar uchun emas, balki Web sahifaning ixtiyoriy qismi uchun ta'luqlidir.



Rasm 5.

Biror bir tegni nomlash uchun **id** parametri ishlatiladi. Abzatslar <p> va </p> orqali ko'rsatiladi.

Misol 5.

<html>

<head><title>Abzatslar </title></head>

<body>

<p id = "p1">Birinchi abzats</p>

```
<p id =“p2”>Ikkinchi abzats</p>
</body>
</html>
```

HTML hujjatda **id parametri** qiymatlari **takrorlanmasligi** lozim, aks holda bu qiymatlar e'tiborga olinmaydi.

class parametri faqat shakl bezash ishlarida ishlatiladi. Biz Web sahifaning ayrim elementlarini sinflarga bo'lamiz, keyinchalik sinfni tasvirlash qoidalari yozuvini bir joydan o'zgartirishimiz mumkin va bu o'zgartirish avtomatik ravishda shu sinfga kirgan barcha teglarga tarqaladi.

HTML hujjatini tashkil etuvchi barcha elementlar ikki turga bo'linadi: **inline elementlar** va **blokli elementlar**.

Inline elementlar oddiy matn elementlari bo'lib satr qismi ham bo'lishi mumkin, **blokli elementlar** esa har safar yangi satrdan boshlanishi shart.

Blokli elementlar boshqa blokli elementlar va Inline elementlaridan tashkil topishi mumkin, lekin Inline elementlar blokli elementlarni o'z ichiga olmaydi. Web sahifa elementlarini bloklarga birlashtirish ularga birvarakayiga shakl berish imkonini beradi, yani, birlashtiruvchi yagona tegni aniqlab blok joylashuvini o'zgartirish mumkin. Tabiiyki bu Web sahifa elementlarining har birining joylashuvini alohida o'zgartirishdan oson.

Blokli tip elementlarini birlashtirish uchun **<div>** va **</div>** teglari qo'llaniladi.


Inline elementlari esa **** va **** teglari orqali birlashtiriladi. Yuqorida aytilganlarga asosan **<div>** tegi **** tegi ichida joylasha olmaydi.

Misol 6:


```
<html>
<head>
  <title>div blokni hosil qilish</title>
</head>
<body>
  <div>
    Faqat avtorning <div>roziligi bilan</div>bu materiallardan foydalanish mumkin
  </div>
</body>
</html>
```

Misol 6.1:

```
<html>
<head>
  <title>div blokni hosil qilish</title>
</head>
<body>
  <div>
    Faqat avtorning roziligi <div>bilan bu materiallardan</div>foydalanish mumkin
  </div>
</body>
</html>
```



Rasm 6



Rasm 6.1

**** va **<div>** teglari qo'shimcha parametrlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bizga malum bo'lgan **id** va **class** parametrlaridan tashqari **style** va **align** parametrlari ham ishlatiladi.

style parametri shu blokdagi **malumot stilini** o'rnatadi, **align** parametri shu malumotni qanday **tekislashni** aniqlaydi.


HTML hujjatida sarlavhaning o'z teglari mavjud bo'lib, ular **oltitadir**. Eng yuqori darajasi bu birinchi darajali sarlavha **<h1>** va **</h1>** teglari orqali, ikkinchi darajali sarlavha **<h2>** va **</h2>** teglari orqali va oxirgi oltinchi darajali sarlavha **<h6>** va **</h6>** teglari orqali ifodalanadi. Quyidagi misolda biz sarlavhalar tasvirini ko'ramiz:

Misol 7:

```

<html>
<head>
<title>Sarlavhalarni tasvirlash</title>
</head>
<body>
<h1>Birinch darajali sarlavha</h1>
<h2>Ikkinchi darajali sarlavha</h2>
<h3>Uchinchi darajali sarlavha</h3>
<h4>To'rtinchi darajali sarlavha</h4>
<h5>Beshinchi darajali sarlavha</h5>
<h6>Oltinchi darajali sarlavha</h6>
<p>Oddiy matn</p>
</body>
</html>

```



Rasm 8

Sarlavha teglari `` va `<div>` teglari kabi **id**, **class**, **style**, **align** parametrlarini o'z ichiga oladi.

HTML tilida ranglar

HTML tilida ranglar o'n oltilik kodining raqamlari bilan aniqlanadi. Ranglar sistemasi quyidagi uchta asosiy ranglardan iborat, ya'ni qizil, barg rang va ko'k va ular **RGB (Red Green Blue)** deb belgilanadi. Har bir rang uchun **OO** dan **FF** gacha bo'lgan oraliqdagi o'n oltilik qiymatlari beriladi. Ular **0 - 255** diapazonidagi o'nlik sanoq sistemasiga mos keladi. So'ngra, bu qiymatlar oldiga **#** (reshotka) simvoli qo'yib yoziladigan bitta son (raqam)ga birlashtiriladi.

Masalan: **# 800080** soni **binafsha rang** bilan belgilanadi.

Brouzrlarning oldingi versiyasi faqatgina 16 ta standart ranglarni (**jadval 1**) qabul qilishgan bo'lsa, zamonaviy versiyalari esa, 140 ta ranglar nomi qabul qilingan. Hozircha bu jadvalda 16 ta standart rangni yozilishini keltiramiz. Bular quyidagilardir:

1-jadval

Black	#000000	Qora	Maroon	#800000	Bordoviy
Silver	#C0C0C0	Kumushrang	Red	#FF0000	Qizil
Grey	#808080	Kulrang	Purple	#800080	Purpurnaya
White	#FFFFFF	Oq	Green	#008000	Yashil
Fuchsia	#FF00FF	Pushti	Navy	#000080	
Lime	#00FF00	Laym	Blue	#0000FF	Ko'k
Olive	#808000	Olivkoviy	Teal	#008080	
Yellow	#FFFF00	Sariq	Aqua	#00FFFF	

Nazorat savollari:

1. HTML tegi vazifasini tushuntirib bering.
2. HEAD tegi va uning ichidagi teglar xaqida gapiring.
3. HTML (Huper Text Markup Language) tili qanday til?
4. HTML ning asosiy qoidalari nimalardan iborat?
5. HTML – fayl deganda nima tushuniladi?
6. HTML – faylning kengaytmasi qanday?
7. HTML - hujjat strukturasi nimadan iborat?
8. Sarlavha va abzatslarni formatlashtirish qanday bajariladi?
9. Zaxiraga olingan HTML simvollari nimalardan iborat?
10. Giperbog'lanishning ahamiyati qanday?

11. BODY tegi va uning parametrlari.
12. Hyper Text Markup Language (HTML)ni belgilash tili to'g'risida ma'lumot bering.
13. HTML – hujjat tuzilishi qanday korinishda bo'lishi lozim?
14. HTML ning asosiy teglarini nomlarini keltiring.
15. HTML da ranglarning soni nechta.
16. Web sahifalarni ko'rish vositalariga nima deyiladi? Web sahifa fayli qanday kengaytmaga ega bo'ladi? Gipermatn va gipermurojaat nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Internet va elektron pochta asoslari» M. Aripov. Toshkent, 2000
2. «Internet va undan foydalanish asoslari». Marahimov A.R., Rahmonqulova S.I. Toshkent, 2002
3. “Web-dasturlash”. Rahmonqulova S.I. Toshkent, 2006
4. “Web-texnologiyalar”. Xaitov F.N., Sattarov A.R, Tangirov X.E.. Uslubiy qullanma. Jizzax, 2005
5. “Web-dasturlash.” Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: HTML-hujjatning asosiy strukturasi. HTML hujjatning sarlavha qismini ifodalovchi teglar. HTML hujjatning tana qismini ifodalovchi teglar. (2 soat)

5 – ma`ruza

Reja

1. Teglar haqida umumiy tushuncha.
2. HTML – hujjat tuzilishi va asosiy teglari
3. Metama`lumotlar.

Tayanch iboralar

HTML, teg, izoh, hujjat sarlavhasi, hujjat tanasi, ochiluvchi teglar, yopuvchi teg, gipermatn, giper murojaat.

HTML ning konstruksiyasi **TEG** lar deyiladi. Brauzer TEG larni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadilar. TEG tasvirlash jarayoni hatti harakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun hujjatga talluqli bo'lsa, bunday teg o'zining yopiluvchi juftiga ega bo'lmaydi. Juft teglarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi.


Masalan, har bir Web sahifa **<html>** tegi bilan boshlanib **</html>** tegi bilan yopilishi kerak. Etibor bergan bo'lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « / » belgisi bilan farq qiladi.

Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, bularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoh quyidagi «<- - » va «- ->» belgilar orasiga yoziladi.

Masalan:

<- - Bu izoh - ->

Har qanday Web sahifa **ikkita qismdan** tashkil topadi. Bular **sarlavha qismi** va **asosiy qism**. Sarlavha qismida Web sahifa haqidagi ma'lumot joylashadi, asosiy qismda esa Web sahifaning mazmuni bilan tasvirlanish qoidalari joylashadi. Sarlavha qismi quyidagi ochiluvchi **<head>** va yopiluvchi **</head>** teglari orasida joylashadi. Asosiy qism esa **<body>** va **</body>** teglari orasida joylashadi. Odatda sarlavha qismi oldidan qo'llanilayotgan HTML standartlari haqida ma'lumot yoziladi. Har qanday Web sahifaning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:



Rasm 1.

Misol 1:

```
<!DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01//EN ">
<html>
<head>
  <title>
Hujjat sarlavhasi
  </title>
```


```
</head>
<body>
  Asosiy qism
</body>
</html>
```

Birinchi `<!Doctype>` tegi o'zining parametrlari bilan brauzerga ushbu Web sahifani qaysi HTML versiyada yozilganligi haqida malumot beradi.

Web sahifa ishga tushirilganda brauzerning eng yuqori satrida yuklanayotgan hujjat mazmunini anglatuvchi qisqacha yozuv turadi. Bu yozuvni hosil qilish uchun quyidagi ochiluvchi `<title>` va yopiluvchi `</title>` teglaridan fodalanamiz.

Misol 2:

```
<html>
<head>
  <title>Web sahifa sarlavhasi</title>
</head>
<body>
</body>
</html>
```




Rasm 2.

Web sahifaning **asosiy qismi** `<body>` va `</body>` teglari orasida joylashadi. Bu oddiy matn bo'lishi mumkin. Brauzer bu matnni to'g'ridan to'g'ri interpretatsiya qilib ekranda tasvirlaydi. Bizga dastlabki Web sahifamizni yaratish uchun oddiy «**Bloknot**» matn muharriri kifoya. Quyida ko'rsatilgan misolni matn muharririda yozib, uni xotiraga yozishda kengaytmasini `*.html` yoki `*.htm` deb kiritishimiz kerak.

Misol 3:

```
<html>
<head>
  <title>Mening birinchi Web sahifam</title>
</head>
<body>
  Webga yo'naltirilgan dasturlash fanidan tayyorlayotgan ilk ishlarim
  (izoh: boshqa misol keltirishingiz mumkin)
</body>
</html>
```

Bu faylni ishga tushirish uchun sichqoncha ko'rsatkichini shu fayl ustiga keltirib chap tugmasini ikki marta bosish kerak. Natijada ekranda quyidagi ko'rinishda natija hosil bo'ladi:



Rasm 3

<body> tegi bir qancha qo'shimcha parametrlarga ega. Bu parametrlar tegning ochiluvchi qismida joylashadi. Parametrlar **ikki** qismdan iborat bo'ladi: **parametr nomi** va **parametr qiymati**. Masalan **bgcolor** parametri tasvirlanayotgan Web sahifa fonining rangini belgilaydi.

Masalan:

<body bgcolor = "green">

Parametrlarning satrli qiymatlari qo'shtirnoq ichida yoziladi. Biz quyida **<body>** tegining **parametrlari** bilan tanishamiz.

- ✚ **Background** - fon sifatida biror bir grafik tasvirdan foydalanish. Parametr qiymati sifatida grafik tasvir joylashgan manzil (URL) beriladi.
- ✚ **Text** - tasvirlanayotgan matn rangi.
- ✚ **Link** - Web sahifadagi matnli gipermurojat rangi.
- ✚ **Vlink** - foydalanuvchi tomonidan oldin murojaat qilingan gipermurojaat rangi.
- ✚ **Alink** - foydalanuvchi tomonidan tanlangan gipermurojaat rangi.
- ✚ **Lang** - Web sahifa matni yozilgan tilni aniqlash.

HTML – hujjat tuzilishi va asosiy teglari

HTML (Hyper Text Markup Language) – belgili til bo'lib, ya'ni bu tilda yozilgan kod o'z ichiga mahsus ramzlarni mujassamlashtiradi. Bunday ramzlar hujjat ko'rinishini faqatgina boshqarib, o'zi esa ko'rinmaydi. HTMLda bu ramzlarni teg (teg – **yorliq**, belgi) deb ataladi. HTMLda hamma teglar ramz-chegaralovchilar (< , >) bilan belgilanadi. Ular orasiga teg identifikatori (nomi, masalan **B**) yoki uning atributlari yoziladi. Yagona istisno bu murakkab chegaralovchilar (<!-- va -->) yordamida belgilanuvchi sharxlovchi teglardir.

Aksariyat teglar jufti bilan ishlatiladi. Ochuvchi tegning jufti yopuvchi teg. Ikkala juft teg faqatgina yopuvchi teg oldidan «slesh» (“/”) belgisi qo'yilishini hisobga olmaganda, deyarli bir xil yoziladi. Juft teglarning asosiy farqi shundaki, yopuvchi teg parametrlardan foydalanmaydi. Juft teg yana konteyner deb ham ataladi. Juft teglar orasiga kiruvchi barcha elementlar teg konteyneri tarkibi deyiladi. Yopuvchi tegda zarur bulmagan bir qator teglar mavjud. Ba'zida yopuvchi teglar tushirib qoldirilsa ham zamonaviy brauzerlar aksariyat hollarda hujjatni to'g'ri formatlaydi, biroq buni amalda qo'llash tavsiya etilmaydi. Masalan, rasm qo'yish tegi , keyingi qatorga o'tish
, baza shriftini ko'rsatish <BASEFONT> va boshqalar o'zining , </BR> va hokazo yopuvchi juftlarisiz yozilishi mumkin. Noto'g'ri yozilgan tegni yoki uning parametri brauzer tomonidan rad kilinadi. (bu brauzer tanimaydigan teglarga ham taalluqli). Masalan, <NOFRAME> teg-konteyneri faqatgina freymlarni taniydigan brauzer tomonidan hisobga olinadi. Uni tanimaydigan brauzer <NOFRAME> tegini tushunmaydi.

Teglar **parametr** va **atributlarga** (inglizcha. **attribute**) ega bo'lishi mumkin. Ruxsat etilgan parametrlar yig'indisi har-bir teg uchun individualdir. Parametrlar quyidagi **qoida** asosida yoziladi:

- ✚ Teg nomidan so'ng probellar bilan ajratilgan parametrlar kelishi mumkin;
- ✚ Parametrlar ixtiyoriy tartibda keladi;
- ✚ Parametrlar o'zining nomidan keyin keluvchi «=» belgisi orqali beriluvchi qiymatlarga ega bo'lishi mumkin.
- ✚ Odatda parametrlar qiymati « » - «qo'shtirnoq» ichida beriladi.
- ✚ Parametr qiymatida ba'zan yozuv registri muhim.

Agar parametr mohiyatida probel ishtirok etgan bo'lsa, u holda qavs, albatta yoziladi. Parametr mohiyatida (teg va parametrlar nomidan farqli ravishda) ba'zida yozuv registri muhim bo'ladi. Tegning parametr bilan yozilishiga misol:

< TABLE BORDER ALIGN= "left">

Bu erda <TABLE> tegi uchun ikkita parametr berilgan. Moxiyatsiz ko'rsatilgan birinchi parametr BORDER. Ikkinchi parametr ALIGN left mohiyatiga ega.

Shuni esda tutish lozimki, hamma teglar o'zining individual parametriga ega bo'lishiga qaramay, shunday bir qator parametrlar mavjudki, ularni <BODY> bo'limining barcha teglarida ishlatish mumkin. Bu parametrlar CLASS, ID, LANG, LANGUAGE, STYLE va TITLE lardir. Parametrlar CLASS, ID, STYLElar Internet Explorerning 3.0 versiyasidan boshlab va Netscapening 4.0 versiyasidan boshlab quvvatlanib keladi. Bu parametrlar uslub (**stil**) lardan fodalaniyganda kerak bo'ladi. Parametrlar LANG, LANGUAGE, TITLE lar faqat Internet Explorerning 4.0 versiyasidan boshlab quvvatlanib keladi. Bu parametrlar mos kelgan foydalanadigan tillarni ko'rsatadilar (masalan, Rossiya uchun LANG=ru), skript yozish tilini (masalan, LANGUAGE=Java Script) va boshqalar.

Zamonaviy HTMLda til teglari va unda ko'rsatilgan qiymatlar bilan birga, boshlang'ich HTML-kodda stseneriy kodlari (Java Script yoki VB Script) ham yoziladi. Ular to'g'risida keyingi mavzularda batafsil so'z yuritimiz.

Keling, endi HTML – hujjat yozishni boshlashda ishlatiladigan teg to'g'risida so'z yuritsak. **HTML - hujjatini yozishni** boshlashda ishlatiladigan birinchi teg bu <HTML> tegidir. U har doim hujjat yozuvining boshida bo'lishi lozim. Yakunlovchi teg esa </HTML> shakliga ega bo'lishi kerak. Bu teglar, ular orasida joylashgan yozuvning hammasi butun bir HTML-hujjatini anglatishi bildiradi. Aslida esa hujjat oddiy matnli ASCII-faylidir. Bu teglarsiz brauzer hujjati formatini aniqlab, tarjima qila olmaydi. Ko'pincha bu teg parametriga ega emas. HTML 4.0 versiyasiga qadar VERSION parametri mavjud edi. HTML 4.0 da esa VERSION o'rniga <!DOCTYPE> parametri paydo bo'ldi. Yodga olishimiz lozim, 1997 yil iyun oyida HTML–standartining 4.0 versiyasi e'lon qilindi va 1997 yil dekabrda rasmiy standartga aylandi. Bugun bu qabul qilingan (yuqorida aytib o'tganimizdek) standartlarning eng oxirgisidir.

Umuman, HTML hujjat standart hisoblanishi uchun yana prolog (muqaddima) ham kerak. Hujjatga qanday ishlov berishiga qarab u o'rnatiladi. Prolog quyidagi ko'rinishga ega:

<!DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3C//DTD HTML<4.0//EN">

Prolog bu maxsus ko'rinishga ega bo'lgan yolg'iz teg. Bu teg ochuvchi <HTML> oldida HTML–hujjatning eng oldiga o'rnatiladi va HTML 4.0–spetsifikatsiyasiga qat'iy mos kelgan holda rasmiylashtirilgan hujjat hisoblanadi.

HTML – hujjatga prologni o'rnatish–bu W3S talabidir, (Internetdagi ko'pchilik HTML hujjatlarda prolog qo'yilmaydi).

HTML 4.0 spetsifikatsiyasida monitor ekranida taqdim etilgan ta'rifdan hujjat strukturasi ta'rifini ajratish **asosiy** (**ключевой**) g'oyaga aylandi. Tajriba ko'rsatishi bo'yicha hujjatning bu ikkala ta'rifini bir-biridan ajratish platforma, muhit va shu kabilarni keng miqyosda quvvatlashga qilinadigan sarf-harajatlarni ancha kamaytirar ekan, shu bilan birga hujjatlarga o'zgarishlar kiritishni osonlashtirar ekan. Bu g'oyaga asosan, **uslub** (**стиль**) jadvali yordamida, xujjatlarni taqdim qilish usulidan ko'plab foydalanish maqsadga muvofiq keladi.

HTML – standarti to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlarni W3C konsortsiumining–Web–saytidan quyidagi adres bo'yicha olish mumkin:

<http://www.W3.org/TR/>

4.0 spetsifikatsiyasi quyidagi adresda tayinlangan:

<http://www.W3.org/TR/REC.html#4u-971218>

Metama'lumotlar


Endi biz metama'lumotlar bilan tanishib chiqamiz. Web sahifalarda meta ma'lumotlarini hosil qilish uchun **<meta>** tegi ishlatiladi, uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

<meta name="o'zgaruvchi nomi" content="o'zgaruvchi qiymati">

Agarda biz Web sahifadagi **avtor** haqida ma'lumot yozmoqchi bo'lsak uni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

<meta name="author" content="Zaripova Muqaddas">

Metama'lumotlar asosan Internetda joylashgan **qidirish** mashinalari uchun zarur. Qidirish mashinalari Web sahifalar haqidagi ma'lumotlarni qaerdan oladi degan savol paydo bo'ladi. Xuddi shu ma'lumotlarini qidirish mashinalari metao'zgaruvchilardan oladi. Web sahifa qaysi sohaga tegishli, unda qanday ma'lumotlar borligini aniqlash uchun. **<meta>** tegida **keywords** va **description** o'zgaruvchisi bor.



Rasm 4.

Keywords o'zgaruvchi Web sahifadagi **kalitli so'zlar** ro'yxatini o'zida saqlaydi. **Description** o'zgaruvchi esa Web sahifaning **qisqacha ma'lumotini (opisaniyi)** o'zida saqlaydi. Masalan, bizning Web sahifamiz kompyuter viruslari haqida tayyorlangan bo'lsin u holda HTML hujjatda meta ma'lumotlarni quyidagicha yozish mumkin:

Misol 4.

```
<!DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01 Transitional//EN">
<html>
<head>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=windows-1251">
<meta name="copyright" content="Faqat avtorning roziligi bilan materiallardan foydalanish
mumkin. http://terduinformatika.site.uz/">
<meta name="author" content="Zaripova Muqaddas">
<meta name="keywords" content="virus, kompyuter, antivirus,...">
<meta name="description" content="Web sahifadagi kompyuter viruslariga bag'ishlangan.">
<title>Kompyuter viruslari</title>
</head>
<body>
```

Kompyuter viruslari bu

```
<body>  
</html>
```

Brauzerlar foydalanuvchi tomonidan ochib ko'rilgan Web sahifalarini **kesh xotirada** saqlab qoladi. Agar foydalanuvchi yana shu sahifalarga murojaat qilsa, Web brauzer oldindan kesh xotirada mavjud bo'lgan (yana yangi sahifani internetdan olmasdan) nusxasini olib ko'rsatadi. Bu jarayon foydalanuvchining vaqtini va iqtisodini tejaydi. Endi Web sahifa qachon yangilanadi degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga metama'lumotlardagi **expres** o'zgaruvchilardan javob olish mumkin. Bu o'zgaruvchida Web sahifaning yaroqlilik muddati ko'rsatiladi. Agar kesh xotiradagi web sahifa yaroqlilik muddati o'tgan bo'lsa, brauzer tarmoqdan Web sahifani qaytadan o'qib oladi.

Misol:

```
<meta http-equiv="Expres" content="Tue,uf Aug 2002 14:56:27 Gmt">
```

Web sahifalarda ma'lumotlar tez o'zgarishi mumkin, masalan chatlarda va birja sahifalarida ma'lumotlar tez o'zgaradi. Bunday hollarda **refresh** o'zgaruvchisidan foydalaniladi va qiymatlari sekundlarda beriladi.

Masalan:

```
<meta http-equiv="Refresh" content=10>
```

Bu yozuvdan keyin **Web sahifa** har **10** sekunddan keyin avtomatik tarzda o'zi qayta yuklanadi.

Ishlatiladigan belgilar.

Kompyuterda har bir belgi qandaydir sondan iboratdir. Operatsion sistema har bir songa mos keluvchi belgini ekranda tasvirlaydi. Sonlarga mos keluvchi belgilar jadvali kodirovka (kodlash) deyiladi. Hozirning o'zida rus tili belgilari uchun kamida 5 ta kodlash usullari mavjud. Agar Web sahifa yaratilayotganda qaysi kodlash usulidan foydalanilganni brauzer aniqlay olmasa, ekranda tushunarsiz belgilar paydo bo'ladi. HTML tili Web sahifa qaysi usulda kodlanganini ko'rsatib turish imkoniyatiga ega. Buning uchun **<meta>** tegi ishlatiladi.

HTTP protokolida (bayonnomasida) oldindan aniqlangan **Content-Type** nomli o'zgaruvchi mavjud. U o'zida Web sahifa tilini va kodlash usulini saqlaydi. Umumiy ko'rinish quyidagicha bo'ladi:

```
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=windows-1251">
```

Yoki

```
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/HTML; charset=ISO-8858-5">
```

Yuqoridagi misolda o'zgaruvchining qiymati “;” belgi bilan ajratilgan **ikki** qismdan iborat.

Birinchi qism matnning HTML teglari yordamida yaratilgan oddiy matn ekanligini bildirsa **ikkinchi qism** foydalanilgan kodlash usulini ko'rsatib turadi. Yuqoridagi misolda xalqaro standartlashtirish tashkiloti (**ISO**) tomonidan tasdiqlangan standart kodlash usuli ko'rsatilgan. Afsuski brauzerlar matnda uchraydigan ba'zi bir belgilarni ekranda aks ettira olmaydi. Agar brauzer matnda **“kichik”** tengsizlik belgisini uchratsa uni teg uchun ochiluvchi qavs deb tushunadi. Matnda bu belgidan keyin hech qanday teg uchramasa matnning biror bir qismi e'tiborsiz qoldiriladi va ekranda aks ettirilmaydi. Bunday xatoliklarning oldini olish uchun matnda bunday belgilar o'rniga qo'shtirnoq ichiga olingan maxsus belgilar ketma-ketligi qo'llaniladi. Bunday belgilar ketma-ketligi albatta qo'shtirnoq ichiga olingan bo'ladi va **“&”** belgisi bilan boshlanib **“;”** belgisi bilan tugaydi.

<	<
>	>
&	&
“	"
–	&mdash

Bu belgilar haqida to'liq ma'lumotlarni quyida keltirilgan manzildan olish mumkin.

Nazorat savollari:

1. HEAD tegi va uning ichidagi teglar xaqida gapiring.
2. HTML ning asosiy qoidalari nimalardan iborat?
3. HTML – faylning kengaytmasi qanday?
4. HTML - hujjat strukturasi nimadan iborat?
5. Sarlavha va abzatslarni formatlashtirish qanday bajariladi?
6. Zaxiraga olingan HTML simvollar nimalardan iborat?
7. Giperbog'lanishning ahamiyati qanday?
8. HTML hujjatini tashkil etuvchi barcha elementlar necha turga bo'linadi?
9. Inline elementlar bu nima? Blokli elementlar-chi?
10. HTML – hujjat tuzilishi qanday korinishda bo'lishi lozim?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipov M.S., Erjonov X.D. HTML (Web-texnologiyalar fanidan ma`ruzalar matni). Urganch, 2006
2. «Internet va elektron pochta asoslari» M. Aripov. Toshkent, 2000
3. «Internet va undan foydalanish asoslari». Marahimov A.R., Rahmonqulova S.I. Toshkent, 2002
4. “Web-texnologiyalar”. Xaitov F.N., Sattarov A.R, Tangirov X.E.. Uslubiy qullanma. Jizzax, 2005
5. “Web-dasturlash.” Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: HTMLda matnlar bilan ishlash va matnlarni turli holatlarda joylashtirish.
(2 soat)

6 – ma`ruza

Reja:

5. Ranglar va o'lchov birliklari.
6. Matnlarni bezash.
7. Font tegi.

Tayanch iboralar

Color tegi, font tegi, identifikatsiya parametrlari class va id, shaklli bezash parametri style, tekislash (tenglash) parametri align, “left, right, center va justify” qiymatlari.

HTML hujjatining kodida biz hamisha biror bir bezak ob'ektlarining o'lchamlarini yoki ularning ranglari xususiyatlarini ko'rsatishimizga to'g'ri keladi.

HTML tilida rang va o'lchov birliklarini qo'llashning **standart qoidasi** mavjud.

Rang berishning **ikkita usuli** mavjud. Ko'p qo'llaniladigan usul kerak rangning **RGB** kodini ko'rsatishdir. Ma'lumki har qanday rangni uchta asosiy: **qizil, yashil va ko'k** ranglarning qorishmasidan hosil qilish mumkin. Brauzerlar bizga un olti milliondan ortiq rangni tasvirlash imkoniyatini beradi, chunki asosiy 3 ta rangdan har birining qiymati 0 dan 255 gacha qiymat qabul qiladi. Ixtiyoriy rang har biri asosiy ranglarning ulushini ifodalovchi 3 ta son majmuasidan iborat bo'ladi.

HTML tilida rang qulaylik uchun 16 lik sistemadagi 6 ta raqamlardan tashkil topadi va ularning oldiga “reshotka” “#” belgisi quyiladi.

Masalan:

Color = “#FF0000” Qizil rang ekanligini bildiradi

Rang ulushlarini ko'rsatib turuvchi raqamlar tartibiga e'tibor berish kerak. Chunki birinchi qizil, ikkinchi yashil va uchinchi ko'k rang ulushlari joylashadi. Biz yuqoridagi misolda qizil rangni tasvirladik.

Rang o'rnatishning muqobil varianti ham mavjud. Quyidagi jadvalda eng ko'p ishlatiladigan 16 ta rang uchun o'rnatilgan qiymatlar ko'rsatilgan:

1-jadval

Black	#000000	Qora	Maroon	#800000	Bordoviy
Silver	#C0C0C0	Kumushrang	Red	#FF0000	Qizil
Grey	#808080	Kulrang	Purple	#800080	Purpurnaya
White	#FFFFFF	Oq	Green	#008000	Yashil
Fuchsia	#FF00FF	Pushti	Navy	#000080	
Lime	#00FF00	Laym	Blue	#0000FF	Ko'k
Olive	#808000	Olivkoviy	Teal	#008080	
Yellow	#FFFF00	Sariq	Aqua	#00FFFF	

Quyidagi jadvaldan esa siz o'zingizga maqbul rangni tanlashingiz mumkin:

alicemblue	#F0F8FF		antiquewhite	#FAEBD7	
aqua	#00FFFF		aquamarine	#7FFFD4	
azure	#F0FFFF		beige	#F5F5DC	
bisque	#FFE4C4		black	#000000	
blanchedalmond	#FFEBCD		blue	#0000FF	
blueviolet	#8A2BE2		brown	#A52A2A	
burlywood	#DEB887		cadetblue	#5F9EA0	
chartreuse	#7FFF00		chocolate	#D2691E	
coral	#FF7F50		cornflowerblue	#6495ED	
cornsilk	#FFF8DC		crimson	#DC143C	
cyan	#00FFFF		darkblue	#00008B	
darkcyan	#008B8B		darkgoldenrod	#B8860B	
darkgray	#A9A9A9		darkgreen	#006400	
darkkhaki	#BDB76B		darkmagenta	#8B008B	
darkolivegreen	#556B2F		darkorange	#FF8C00	
darkorchid	#9932CC		darkred	#8B0000	
darksalmon	#E9967A		darkseagreen	#8FBC8F	
darkslateblue	#483D8B		darkslategray	#2F4F4F	
darkturquoise	#00CED1		darkviolet	#9400D3	
deeppink	#FF1493		deepskyblue	#00BFFF	
dimgray	#696969		dodgerblue	#1E90FF	
firebrick	#B22222		floralwhite	#FFFAF0	
forestgreen	#228B22		fuchsia	#FF00FF	
gainsboro	#DCDCDC		ghostwhite	#F8F8FF	
gold	#FFD700		goldenrod	#DAA520	
gray	#808080		green	#008000	

greenyellow	#ADFF2F		honeydew	#F0FFF0	
hotpink	#FF69B4		indiandred	#CD5C5C	
indigo	#4B0082		ivory	#FFFFFF	
khaki	#F0E68C		lavender	#E6E6FA	
lavenderblush	#FFF0F5		lawngreen	#7CFC00	
lemonchiffon	#FFFACD		lightblue	#ADD8E6	
lightcoral	#F08080		lightcyan	#E0FFFF	
lightgrey	#D3D3D3		lightpink	#FFB6C1	
lightsalmon	#FFA07A		lightseagreen	#20B2AA	
lightscyblue	#87CEFA		lightslategray	#778899	
lightsteelblue	#B0C4DE		lightyellow	#FFFFE0	
lime	#00FF00		limegreen	#32CD32	
linen	#FAF0E6		magenta	#FF00FF	
mediumblue	#0000CD		mediumorchid	#BA55D3	
mediumpurple	#9370DB		mediumseagreen	#3CB371	
mediumturquoise	#48D1CC		mediumvioletred	#C71585	
midnightblue	#191970		mintcream	#F5FFFA	
mistyrose	#FFE4E1		moccasin	#FFE4B5	
navajowhite	#FFDEAD		navy	#000080	
oldlace	#FDF5E6		olive	#808000	
olivedrab	#6B8E23		orange	#FFA500	
orengered	#FF4500		orchid	#DA70D6	
palegoldenrod	#EEE8AA		palegreen	#98FB98	
paleturquose	#AFEEEE		palevioletred	#DB7093	
papayawhop	#FFefd5		peachpuff	#FFDAB9	
peru	#CD853F		pink	#FFC0CB	
plum	#DDA0DD		powderblue	#B0E0E6	
purple	#800080		red	#FF0000	
rosybrown	#BC8F8F		royalblue	#4169E1	
saddlebrown	#8B4513		salmon	#FA8072	
sandybrown	#F4A460		seagreen	#2E8B57	
seashell	#FFF5EE		sienna	#A0522D	
silver	#C0C0C0		skyblue	#87CEEB	
slateblue	#6A5ACD		slategray	#708080	
snow	#FFFAFA		springgreen	#00FF7F	
steelblue	#4682B4		tan	#D2B48C	
teal	#008080		thistle	#D8BFD8	
tomato	#FF6347		turquoise	#40E0D0	
violet	#EE82EE		wheat	#F5DEB3	
white	#FFFFFF		whitesmoke	#F5F5F5	

yellow

#FFFF00



yellowgreen

#9ACD32



Uzunlik o'lchov birliklari

Endi uzunlik o'lchov birliklarini qo'llashni ko'ramiz. Biz Web sahifadagi ob'ek o'lchamlarini ikki xil usulda berishimiz mumkin. Birinchi usul o'lchamlar piksellarda beriladi, ikkinchi usul "o'zak" ob'ektga nisbatan protsentlarda beriladi. Agar biz Web sahifaga jadval joylashtirib uning enini **50%** deb ko'rsatsak u holda bu **50%** brauzer oynasi enining **50%** ini tashkil etadi. Jadval yacheykasining o'lchami esa shu yacheyka joylashgan butun jadval o'lchamiga nisbatan % da hisobida olinadi. Foydalanuvchi tomonidan brauzer oyna o'lchamlari o'zgartirilsa o'nga mos ravishda Web sahifa parametrlari ham o'zgaradi. Web sahifa yaratayotganda brauzer oynasi o'lchami o'zgarganda Web sahifa parametrlari o'zgarayotgan usulda yaratish kerak.

Agar biz biror bir ob'ektning enini **30** piksel o'lchamida o'rnatmoqchi bo'lsak, uning yozilishi quyidagicha bo'ladi:

Width = "30"

Agar ob'ekt eni "o'zak" ob'ektning **30%** ini tashkil qilishi kerak bo'lsa yozuv quyidagicha bo'ladi:

Width = "30%"

Parametr qiymatlari qo'shtirnoq ichiga olinishini e'tiborga olish zarur. Yuqorida ko'rilgan ikki xil usuldan tashqari ob'ekt o'lchamini berishning uchunchi bir usuli ham mavjud. Bu usulni yuqoridagi ikki usulning o'rtachasi deb hisoblasak ham bo'ladi. Bunda biz o'lchamlarni bir necha piksel soniga karrali qilib ko'rsatishimiz mumkin. Masalan bizga 3 ta satrdan iborat jadval berilgan bo'lsin. Agar har bir satr balandligi **30** pikselga karrali bo'lishini xohlasak har bir satrni hosil qiluvchi tegga quyidagi yozuvni yozishimiz lozim:

Height = "3*"

Karrali o'lcham berish belgisi sifatida yulduzcha (*) belgisi ishlatiladi. Karrali son koeffitsenti hisoblanganda (*) belgisining chap tomonidagi son 10 ga ko'paytiriladi. Brauzer bunday ob'ektlarni maksimal o'lchamda tasvirlashga harakat qiladi. Agar jadval 180 piksel balandlikka ega bo'lsa, u holda har bir satr balandligi 60 pikselga teng bo'ladi. Agar balandligi 200 piksellik jadval qo'ysak 20 piksellik joy o'z-o'zidan yo'qoladi. Agar satrlarimiz bir xil balandlikda bo'lishini hoxlasak u holda parametrning quyidagi ko'rinishini qo'llagan ma'qul:

Height = "*"

Jimlik bo'yicha yuqoridagi o'lchov berish usuli qo'llaniladi. Agar ob'ektlar guruqida o'lchamlari ko'rsatilmagan bo'lsa ular berilgan kenglikda maksimal o'lchamda teng joylashadilar.

Matnlarni bezash


HTML tilida matnni tasvirlashning bir qancha usullari mavjud. Brauzer ekranida matn satrini tasvirlash uchun hech qanday teg ishlatishga hojat yo'q. Matnni yozish kifoya. Lekin uni hattoki abzatsga bo'lish ham teglarsiz amalga oshmaydi. Har xil kompyuter tizimlarida matnlarni abzatsga bo'lish uchun har xil simvollar ishlatiladi, lekin HTML hujjati kompyuter tizimi qanday bo'lishidan qat'i nazar bir xil tasvirlanishi lozim va shuning uchun abzatsni ifodalovchi teg kiritilishiga to'g'ri kelgan. Har bir abzats boshida **<p>** tegi qo'yiladi, oxirida esa yopiluvchi **</p>** tegi qo'yiladi. Bu teg o'z parametrlariga ega. Bu parametrlar qatoriga identifikatsiya parametrlari **class** va **id**, shaklli bezash parametri **style** va **tekislash (tenglash)** parametri **align** kiradi.

Abzatsni brauzer oynasining o'ng yoki chap tomoniga tekislash, markazlashtirish yoki to'la eniga yoyib yozish uchun ularga mos ravishda **left**, **right**, **center** va **justify** qiymatlari ishlatiladi. Bularning qo'llanilishini quyidagi misolda ko'ramiz:

Misol 1.

```
<html>
<head>
<title>Abzatslarni gorizontal tanlash</title>
</head>
<body>
<p align =left>chap tomonga tekislagan abzats</p>
<p align =right>o'ng tomonga tekislangan abzats</p>
<p align =center>markazlashtirilgan abzats</p>
<p align =justify>eni bo'yicha yoyib yozilgan abzats</p>
</body>
</html>
```


Bunday kod bilan yozilgan faylning Internet Explorer brauzer tasviri 1 rasmda tasvirlangan. Internet Explorerning oldingi versiyalari bazi bir teglarni qo'llamasligi mumkin. Masalan eni bo'yiga yoyib yozish tegini brauzer qo'llamasa ekranda oddiy ko'rinishdagi matn yoziladi.



Rasm 1.

Bazan Web sahifa yaratuvchilari abzatslar oraligini kengaytirish uchun bo'sh abzatslardan foydalanishadi, yani abzatsning ochiluvchi va yopiluvchi teglarining ichiga hech narsa yozmasdan qo'llashadi. Brauzerlar esa bu narsani e'tibordan chetda qoldiradilar. Shuning uchun abzatslarni ajratish yoki biror abzatsning ichidagi satrni bo'lib keyingi satrga o'tkazish uchun `
` tegi ishlatiladi. Bu teg matnning shu qismini keyingi satrga o'tkazish kerakligini anglatadi.

Quyidagi misolda bu teg har ikkala maqsadda qo'llaniladi.



Rasm 2

Misol 2.

```
<html>
  <head>
    <title>Matnni keyingi satrga bo'lish</title>
  </head>
  <body>
    <p>Haqiqatni yomon ko`radigan odamlar uni dadil aytadiganlarni ham yomon
    ko`radilar. Felenon
    <br>“Keyingi satrga bo'lingan abzats”
    Mutolaa insonni bilimdon qiladi, suhbat zukko bo'lishga, yozib olish odati esa aniq
    bo'lishga yordam beradi. Frensis Bekon</p>
    <p>Navbatdagi abzats</p>
    <br>
    <p>“Bir bo'sh satrdan keyin yozilgan abzats”
    Qanday bo'lsalar o'shanday qolishga ahd qilganlarga nodon. Aflotun</p>
  </body>
</html>
```

Font tegi

Endi matn shriftlarini bezash usullarini ya'ni font tegini ko'rib chiqamiz. Biz **** tegini parametrlari bilan birga abzatsning ixtiyoriy joyida qo'llashimiz mumkin. Bu tegdan keyingi matnlar parametrda ko'rsatilgan qiymatlar bo'yicha ekranda tasvirlanadi. **** tegini yopiluvchi tegi **** shunday ko'rinishda bo'ladi.

**** tegi o'zining qo'llanilayotgan shrift o'lchamini ko'rsatuvchi **size**, shrift simvollarining rangini belgilovchi **color** va matn qaysi shriftda tasvirlanishini belgilovchi **face** parametrlariga ega.

Size parametri qiymat sifatida **0** dan **7** gacha bo'lgan sonlarni qabul qiladi. Bu sonlar matndagi simvollar o'lchamini bildiradi. HTML da ofis dasturlaridagidek simvol o'lchamlarini absolyut o'rnatish imkoniyati yo'q. Chunki bizga Web sahifani ko'rayotgan foydalanuvchi kompyuterida o'rnatilgan shriftlar va qanday o'lcham imkoniyatlariga ega ekanligi noma'lum. Foydalanuvchi brauzeri biz ko'rsatgan shrift o'lchamiga maksimal mos keluvchi o'lchamni tanlashi kerak. **Size** parametri qiymati sifatida biz shrift o'lchamini berishimiz mumkin. Masalan shrift o'lchamini bittaga oshirish uchun quyidagi konstruktsiyani yozishimiz kerak:

Shrift (simvol) o'lchamlarini ikki birlikka kichraytirish uchun esa quyidagini yozishimiz kerak:

Yuqoridagi teglar qatnashgan misolni ko'ramiz:

Misol 3.

```
<html>
<head>
<title>Simvol o'lchamlari</title>
</head>
<body>
<p><font size =7>ettinchi o'lchov</font> </p>
<p><font size =6>oltinchi o'lchov</font> </p>
```

```

<p> <font size =5>beshinchi o'lchov</font> </p>
<p> <font size =4>to'rtinchi o'lchov</font> </p>
<p> <font size =3>uchinchi o'lchov</font> </p>
<p> <font size =2>ikkinchi o'lchov</font> </p>
<p> <font size =1>birinchi o'lchov</font> </p>
</body>
</html>

```



Rasm 3.

“font” tegining navbatdagi parametri bu **color** parametridir. **Color** parametri quyidagicha yoziladi:

Masalan qo'llanilayotgan shrift simvollarini yashil rangda tasvirlash uchun quyidagini yozishimiz lozim:

Navbatdagi **face** parametri esa qo'llanilishi kerak bo'lgan shriftni belgilaydi. Biz matnni face yordamida **Times New Roman** yoki **Copperplate Gothic** shriftlari yordamida tasvirlanishini ko'rsatishimiz mumkin. Biz Web sahifada ishlatgan shrift foydalanuvchi kompyuterida operatsion sistemaga o'rnatilmagan bo'lishi mumkin, u holda brauzer o'z qoidalari asosida ish yuritadi. Har bir brauzerda Web sahifani yuklashda qaysi shriftlardan foydalanish kerakligini ko'rsatib turuvchi sozlash bo'limi mavjud. **Face** parametri qiymati sifatida ko'pincha **vergullar** bilan ajratilgan shriftlar ro'yxati keltiriladi. Brauzer ro'yxat bo'yicha o'z operatsion sistemasidan (tizimidan) shu shriftlarni qidiradi va birinchi topilgan shrift bo'yicha matnni tasvirlaydi. Endi esa font tegining barcha parametrlari qatnashgan misolni ko'ramiz:

Yuqoridagi tegda shu tegdan keyingi matn **to'rtinchi** o'lchamda, **qora** rangda va **Courier New** yoki bu shrift sistemaga o'rnatilmagan bo'lsa **Arial Black** shriftida tasvirlanish kerakligi e'lon qilingan.

Matn muharrirlari bilan ishlash jarayonidan bilamizki, matnlarni xar-xil ko'rinishda ifodalanish mumkin: **qalinlashtirilgan** (polujirniy), **qo'lyozma** shaklida (kursiv), **tagi chizilgan** (podcherknuti) ... Bu elementlarni ixtiyoriy grafik brauzerlar bir xil ko'rinishda ifodalaydilar. Ba'zi bir fizik stillar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Fizik stillar:

Element	Vazifasi
, 	Qalinlashtirilgan matn (polujirniy)
<i>, </i>	Qo'lyozma shaklidagi matn (kursiv)
<tt>, </tt>	Harflar oralig'ini kengaytirish
<u>, </u>	Tagi chizilgan matn (podcherknutiy)
<big>, </big>	Kattalashtirilgan matn
<small>, </small>	Kichiklashtirilgan matn
_,	Pastki indeks
[,]	Yuqori indeks

Fizik stillarni ishlatish qoidasi:

1. Matnni kiriting.
2. Matn oldiga kursorni olib kelib kerakli tegni ochuvchisini yozing.
3. Matn oxiriga kursorni olib keling.
4. Yopuvchi tegni yozing.

Mantiqiy stillar:

Mantiqiy stillar brauzerga matnni qay tartibda ekranga chop etish kerakligini bildiradi. Mantiqiy stillar fizik stillar ishlaymay qoladigan holatlar uchun ham o'rinli bo'lishi mumkin: uyali telefon internetga ulanganda tegi orqali qalinlashtirilgan matn uchrab qolsa, uni o'qiy olmaydi. Bu holatda elementi kerakli natijani bera oladi.

Element	Vazifasi
, 	<i> tegiga analog teg, matnni ajratish
, 	 tegiga analog teg, juda sezilarli ajratish
<cite>, </cite>	Mazkur hujjatga sitata keltirish.
<dfn>, </dfn>	Dastur kodi, biror terminni aniqlash
<samp>, </samp>	Dasturning matnli natijasi.
<kbd>, </kbd>	Klaviaturadan kiritiladigan matn ya`ni foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matn
<var>, </var>	O'zgaruvchi yoki miqdor. Dastur kodidagi o'zgaruvchilar
<abbr>, </abbr>	Abbreviatura
<code>, </code>	biror dasturlash tili kodini belgilash
<acronym>, </acronym>	Akronim

Yuqorida aytib o'tganimizdek HTML bizga simvollarni (matnlarni) **kursiv**, **qalin**, **tagiga chizilgan** yoki **ustidan chizilgan** holatlarda tasvirlash imkonini beradi.

Misollar fizik stillarga:

 Qalinlashtirilgan matn (polujirniy)

 <i> Qo'lyozma shaklidagi matn (kursiv) </i>

 <tt> Harflar oralig'ini kengaytirish </tt>

 <u> Tagi chizilgan matn (podcherknutiy)</u>

 <big> KATTALASPHTIRILGAN MATN</big>


 <small> kichiklashtirilgan matn</small>

 C_n

ax²+bx+c=0

Misol 4.

```
<!DOCTYPE html PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01 Transitional//EN">
<html>
<head> <title>Turli xil ko'rinishda yozish </title> </head>
<body>
<p> <font face = "Times New Roman">matnlar <b> qalin </b>yoki <i>kursiv </i>
ko'rinishda bo'lishi mumkin <br>
Bir vaqtning o'zida <b> <i>ham qalin ham kursiv </b></i>ko'rinishda bo'lishi ham
mumkin </p>
<p><u>tagi chizilgan </u> va <strike>usti chizilgan</strike>
ko'rinishda ham bo'ladi</p>
<p><tt> yoki kengaytirilgan </tt></p>
<p> bo'lishi mumkin </p>
<p>Biz simvol o'lchovini<big> kattalashtirishimiz
</big>va<small> kichraytirishimiz</small> mumkin</p>
</body>
</html>
```



Rasm 4.

Misol mantiqiy stillarga:


Misol 5.

```
<html>
<head>
<title> Tasvirlashning standart varianti </title>
</head>
<body>
<p> <font face = "Times New Roman"> Bu oddiy matn </p>
<p> Bu <em> ajratilgan</em> va <strong> juda sezilarli ajratilgan </strong> matn
</p>
<p> Bu <cite> sitata</cite>, bu esa <dfn> aniqlangan termin</dfn> </p>
<p> Biz <code> dastur kodini </code> foydalanuvchi tomonidan kiritilgan
<kbd> kbd matnini</kbd>, yana <samp> dasturning matnli natijasini </samp> va
<var> o'zgaruvchilarni </var> yozishimiz mumkin</p>
```


<p> <abbr> **Abbreviaturalar** </abbr> va <acronym> **akronim**</acronym>lar ana shunday tasvirlanadilar

</body>

</html>



Rasm 5

Misol 5.

<html>

<head>

<title> **Tasvirlashning standart varianti** </title>

</head>

<body>

<p> **Bu oddiy matn** </p>

<p> **Bu** ajratilgan va juda sezilarli ajratilgan **matn**
</p>

<p> **Bu** <cite> sitata</cite>, bu esa <dfn> aniqlangan termin</dfn> </p>

<p> **Biz** <code> dastur kodini </code> foydalanuvchi tomonidan kiritilgan

<kbd> kbd matnini</kbd>, yana <samp> dasturning matnli natijasini </samp> va
<var> o'zgaruvchilarni </var> yozishimiz mumkin</p>

<p> <abbr> **Abbreviaturalar** </abbr> va <acronym> **akronim**</acronym>lar ana shunday tasvirlanadilar

</body>

</html>

Ba'zan biror bir matn muharririda yozilgan matnni Web sahifaga joylashtirishga to'g'ri keladi. Bunday paytda matn formati matn muharririda o'rnatilgan satr uzunligiga bog'liq bo'lib qoladi. Bularidan tashqari HTML da yuqori va pastki indekslarni yozish imkoniyati mavjud. Yuqori indeksni yozish uchun ^{va} teglari, pastki indekslarni yozish uchun esa _{va} teglari ishlatiladi. Bu teglar qatnashgan quyidagi misolni ko'ramiz:

Misol 6

<html>


<head>

<title> **Yuqori va pastki indekslar** </title>

</head>

<body>

<p>Kvadrat tenglamaning umumiy ko'rinishi $ax^2+bx+c=0$ </p>
<p>Suvning ximiyaviy formulasi quyidagicha: H_2O </p>
</body>
</html>



Rasm 6.

Nazorat savollari:

17. Sarlavha va abzatslarni formatlashtirish qanday bajariladi?
18. Color tegi qanday vazifani bajaradi?
19. Font tegi qanday vazifani bajaradi?
20. Fizik stillarga xos bo'lgan teglarni sanab o'ting.
21. Mantiqiy stillarga xos bo'lgan teglarni sanab o'ting va fizik teglardan farqini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. «Internet va elektron pochta asoslari» M. Aripov. Toshkent, 2000
7. «Internet va undan foydalanish asoslari». Marahimov A.R., Rahmonqulova S.I. Toshkent, 2002
8. «Web dasturlash fanidan ma`ruza matnlari» M.S. Sharipov. Urgench, 2007
9. «Web-texnologiyalar». Xaitov F.N., Sattarov A.R, Tangirov X.E.. Uslubiy qullanma. Jizzax, 2005
10. «Web-dasturlash.» Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: HTMLda jadvallar hosil qilish teglari va ularning atributlari. (2 soat)

7 – ma`ruza

Reja:

1. Jadvallar haqida umumiy ma'lumot.
2. Jadvallarning qo'llanilishi va uni qurish.
3. Bir yacheykaga bir necha satrlarni birlashtirish.
4. Bir necha ustunlarni bir yacheykaga birlashtirish.
5. Jadvaldagi ranglar.

Tayanch iboralar

<table> va </table> teglari, <caption> va </caption> teglari, <col> va <colgroup> teglari, <thead> va <tfoot> teglar, <tbody> tegi, jadval, ustun, satr, width parametri, border parametri, cellpadding parametri, cellspacing parametri.

Jadvallar haqida umumiy ma'lumot.

Jadvallar-bu Web sahifalarda ma'lumotlarni (vizual) tashkil qilishning muhim vositalaridan biridir. Bizga ma'lumki HTMLda, bezatish elementlarini aniq koordinatalar bo'yicha joylashtirish vositalari mavjud emas. Shuning uchun jadvallardan shu maqsadda foydalanish maqsadga muvofiq. Jadvallarni Web sahifaga joylashtirib, ularning kataklariga bezatish elementlarini joylashtirish mumkin. Bundan tashqari yana freymlar deb ataluvchi vositalar yordamida ham bu ishlarni amalga oshirish mumkin. Lekin bu vosita oxirgi vaqtlarda Web masterlar orasida o'z ommaviyligini yo'qota boshladi. Biz freymlarga keyingi ma'ruzamizda batafsil to'xtalamiz.

Jadvallardan to'laligicha foydalanish qoidalarini bilish uchun ularning tuzilishini yaxshi bilish talab qilinadi. Jadval tuzishda ishlatiladigan teglarni tasniflashdan avval, oddiy jadval tuzish sxemasi bilan tanishib chiqsak. Har qanday jadval quyidagi sxema bo'yicha tuziladi:

<JADVALNI OCHUVCHI TEG>

<JADVAL QATORINI OCHUVCHI TEG>

<JADVAL BO'LAGINI OCHUVCHI TEG>

Matn, tasvir yoki jadval

</JADVAL BO'LAGINI YOPUVCHI TEG>

</JADVAL QATORINI YOPUVCHI TEG>

</JADVALNI YOPUVCHI TEG>

Har qanday jadvalda qatorlar va ustunlar mavjud bo'ladi. Jadvalning bo'lakchalarida (yacheyka) esa axborot kiritilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, bitta ustun, bitta qator va bitta bo'lakchadan iborat jadvalni tuzish uchun jadval ochiladi va yopiladi. Agar bitta ustundan iborat va bir necha qatorni o'z ichiga olgan jadvalni tuzish uchun, jadval qatorini ochuvchi va yopuvchi teglar orasiga bir nechta jadval bo'lakchalarini ochuvchi va yopuvchi teglarini kiritish lozim.

Demak, HTML da jadvallar satrlardan tashkil topadi, satrlar esa o'z navbatida yacheyka (katak)lardan tashkil topadi. Shunday ekan bu ob'ektlarning har birining o'z parametrlari mavjud. Bu parametrlar yordamida ularning o'lchamlarini o'rnatish mumkin. Agar biz jadvalning kengligini oldindan aniqlab qo'ygan bo'lsak, masalan 100 piksel deb aniqlagan bo'laylik va har bir satrda 4 ta yacheyka joylashgan bo'lib bu yacheykalarining har birining uzunligi 30 pikseldan iborat bo'lsin, u holda jadval kengligi 100 piksel bo'lmasdan balki 120 piksel bo'ladi. Agar birorta yacheyka kengligi 30 pikseldan ko'p bo'lgan grafik tasvir joylashgan bo'lsa, u holda yacheykaning kengligi

tasvir kengligiga mos ravishda kengayadi, buning natijasida esa butun jadvalning kengligi oshadi. Bu imkoniyat shuning uchun yaratilgan, buning natijasida qar bir yacheykadagi ma'lumot aniq va hech qanday yo'qotishlarsiz to'laligicha tasvirlanadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki jadvalning ustunlarini oldindan aniqlash imkoniyati yo'q. Ustunlarni brauzerning o'zi jadval satrlarini tahlil qilib aniqlaydi va jadvalni to'laligicha tasvirlaydi.

Endi biz jadval teglari bilan tanishishni boshlaymiz. Jadval va uning tashkil etuvchi hamma elementlari `<table>` va `</table>` teglari orasida sarlavhasi esa `<caption>` va `</caption>` teglari orasida joylashtiriladi. Jadvallarda bundan tashqari ustunlar guruhini `<col>` va `<colgroup>` teglari yordamida aniqlash mumkin, hamda `<thead>` va `<tfoot>` teglar bilan mos ravishda jadvalning yuqorigi va pastgi sarlavhalarini (shapkalarini) tashkil qilish mumkin. Satrlar guruhini esa `<tbody>` tegi yordamida hosil qilamiz. Shunday qilib jadval asosan yuqorida ko'rilgan teglardan tashkil topadi, qolgan boshqa jadval elementlari esa shu ob'ektlar ichida joylashadi. `<table>` tegida jadvalning barcha xususiyatlarini o'rnatish uchun etarli bo'lgan parametrlar mavjud.

Jadvallarda balandlikni o'rnatish parametri yo'q, kenglikni esa **width** shart bo'lmagan parametr bilan o'rnatish mumkin. Jadvaldagi yacheykaning balandligi yacheykadagi ob'ektning o'lchamiga mos ravishda hisoblanadi. Jadval chegaralarining kengligini o'rnatish uchun **border** parametridan foydalanamiz. Bu parametrga manfiy bo'lmagan butun qiymat beriladi. Chunki u chegaradagi chiziqlarning kengligini (piksellarda) o'rnatadi. Agar biz bu parametrga "**no**" qiymat o'rnatib jadval chegaralari **ko'rinmas** holatga o'tadi. Bu esa bizga yacheykalarida Web sahifaning elementlari joylashgan ko'rinmas jadval tuzish imkoniyatini yaratadi. Yacheykalar o'rtasidagi masofani **cellspacing** parametri yordamida piksellarda o'rnatish mumkin. Xuddi shunga o'xshash **cellpadding** parametri yacheyka ichidagi ob'ekt bilan uning chegaralari orasidagi masofani piksellarda o'rnatadi. Shunday qilib **cellspacing** yacheykalar o'rtasidagi ochiq (bo'sh) masofa, **cellpadding** esa yacheyka ichidagi bo'sh qoldirilgan joy.

"Jadval tuzish - oddiy jadval"

Jadval tuzish uchullarini o'rganishni, eng oddiy jadval yaratishdan boshlaymiz. Biz tuzmoqchi bo'lgan jadval uchta ustundan iborat bo'ladi va har bir ustunda 3 tadan yacheykalar o'rin oladi. Jadvalning birinchi ustunini "Mahsulot", ikkinchisini esa - "Rangi", uchunchisini - "Narhi" deb nomlaymiz. Biz tuzgan jadval mana bunday ko'rinishda bo'ladi:

Mahsulot	Rangi	Narhi (co'm.)
Qalam	Qora	100
Qalam ochgich	Qora	500

Endi ushbu jadvalni tuzishda qanday HTML teglardan foydalanilganligini ko'rib chiqamiz.

Misol:

```
<TABLE>
<TR>
  <TD>Mahsulot</TD>
  <TD>Rangi</TD>
  <TD>Narhi (co'm.)</TD>
</TR>
<TR>
  <TD>Qalam</TD>
  <TD>Qora</TD>
  <TD>100</TD>
</TR>
```

```

<TR>
  <TD>Qalam ochgich</TD>
  <TD>Qora</TD>
  <TD>500</TD>
</TR>
</TABLE>

```

Misol tasnifi:

Jadvalni ochuvchi teg

1 - qatorni ochuvchi teg

1 - Jadval yacheykasini (bo'lagini) ochuvchi va yopuvchi teg

2 - Jadval yacheykasini (bo'lagini) ochuvchi va yopuvchi teg

3 - Jadval yacheykasini (bo'lagini) ochuvchi va yopuvchi teg

1 - qatorni yopuvchi teg

Jadvalni yopuvchi teg

Misolda korinib turibdiki, jadvalni `<TABLE>` va `</TABLE>` teglari yordamida ochiladi va yopiladi. Qatorlar uchun `<TR>` va `</TR>` teglari qo'llaniladi, `<TD>` va `</TD>` teglari esa jadval ustunlarini yacheykalarini (bo'lakchalarini) belgilash uchun ishlatiladi.

Jadvallarning qo'llanilishi va uni qurish


Ro'yxatlardagi bitta kamchilik – bu ularning **bir o'lchovlilikidir**. Bu degani siz ro'yxatda ma'lumotlarni ketma-ketlik bilan satrma-satr joylashtirishingiz mumkin deganidir.


Jadvallar esa ma'lumotlarni faqat satr bo'ylab emas balki ustun bo'yicha ham joylashtirish imkonini beradi. Jadvallarni shunday ishlatish kerakki ular Web sahifada shunchaki joy egallamasligi kerak. Jadvalning satr va ustunlari ma'lumotlarni taqqoslash, qarama - qarshi qo'yish imkonini beradi. Har bir satr va ustundagi ma'lumotlarni elektron jadval singari tasvirlash mumkin.


Yaxshi tuzilgan jadval bilan Web sahifa ma'lumotga boy va tartibli bo'ladi, ammo ko'rimsiz jadval sizning ma'lumotlaringizni chalkashtirib yuboradi.


Jadval masalasi murakkab ko'rinishi mumkin, chunki buning uchun butun bir teglar ketma-ketligi tuziladi.


`<table>` va `</table>` teglar jadvalini butunligicha o'z ichiga oladi. Ma'lumot chiqarilishini boshqa bir teglar ketma-ketligi aniqlaydi. Quyida jadvalning hamma teglari ifoda qilingan:

 `<table>`, `</table>` bu teglar jadvalni egallaydi. `<table>` tegi brauzerga o'zidan keyin jadvalning berilishi kelishini xabar qiladi. Agar siz satr va ustunlarni ajratib turuvchi (chiziqlari) ko'rinishini o'zgartirishni xoxlasangiz **border** kalit so'zini kiriting (`<table border>` hosil bo'ladi);

 `<caption>` va `</caption>` bu teglar bilan belgilangan matn sarlavha ko'rinishini oladi. Sarlavhani berish masalasi `<tc>` va `</tc>` yordamida ham bajarilishi mumkin;

 `<th>` va `</th>` bu teglar matnni satr yoki ustun sarlavhasi qilib, biroz qalin shriftda tasvirlaydi;

 `<tr>` va `</tr>` jadvalning har bir satrini aniqlaydi. `</tr>` tegi zarur emas, biroq u sizning HTML kodingizni yanada to'la tushunarli qiladi;

 `<td>` va `</td>` bu teglar juftligi jadvalning har bir yacheykasi uchun matn ajratadi.

1. Sizning birinchi qadamingiz – ona teg `<table>` ni kiritish.

2. Jadvalning har bir yacheykasi **nozik chiziqlar** bilan bo'linishi uchun `<table border=1` kalit so'zini kiriting. Agar bu bo'lmasa yacheykaning so'zlari **avtomatik tarzda tekislanadi**, ammo jadvalda to'r (ajratuvchi chiziqlar) bo'lmaydi.

3. Endi yacheykalarni birin-ketin yaratib boring. Dastlab satrni bering.

```
<table> <tr> </tr> </table>
```


4. Bundan so'ng ustunning sarlavhasi bo'ladigan yacheykani bering. Brauzerlar sarlavhani qolgan matnlarga nisbatan qalinroq shriftda tasvirlaydi.

```
<table>
<tr>
<th> yil </th>
<th> model </th>
<th> marka </th>
</tr>
</table>
```

5. Hozir sizning jadvalingiz ustunlarining sarlavhasi hisoblangan bitta satrdan iborat. Qolgan satrlarni ham kiritib boshlaymiz. Har bir satrda ustunlar soniga razm solib boring, hozirgi holatda 3 ta ustun mavjud.

Misol 1.

```
<html><head><title>Jadval</title></head>
<table border=1>
<tr> <th> yil </th> <th> model </th><th> marka </th> </tr>
<tr> <td> 1986 </td> <td> toyota </td> <td> cozolla </td> </tr>
<tr> <td> 1986 </td> <td> chazolet </td> <td> nova </td> </tr>
<tr><td> 1996 </td><td> plymouth </td><td> neon </td></tr>
</table>
</html>
```



Rasm 1.

Web sahifalarda juda ko'p satr va ustundan iborat jadvallarni ham yaratish mumkin. Quyidagi misolga e'tibor bering:


Misol 2.

```
<html>
<head>
<title>Jadval</title>-----Sarlavha
</head>
<body>
<TABLE BORDER="10" WIDTH="100%">
<CAPTION ALIGN="TOP"> <B> <H1> Telefon nomerlar ro'yxati </H1> </B>
</CAPTION>
<TR BGCOLOR="YELLOW" ALIGN="CENTER">
<TH><H3>Familiyasi</H3>
<TH><H3>Telefon nomeri</H3>
```

```

<TH><H3>Adresi</H3>
<TR>
  <TD><H5><A HREF="Avazov.htm">Avazov</A></H5></td>
  <td>5-14-57</td>
  <td>A Navoiy</td>
</TR>
<TR><TD><H5><A HREF="Karimov.htm">Karimov</A></H5></td>
  <td>3-16-49</td>
  <td>Behbudiy 5</td>
</TR>
<TR><TD>Norov</td>
  <td>4-23-56</td>
  <td>Temur Malik</td>
</TR>
<TR><TD>Minarov</td>
  <td>6-10-42</td>
  <td>A Avloniy</td>
</TR>
<TR><TD>Salimov</td>
  <td>3-56-56</td>
  <td>Fitrat</td>
</TR>
<TR><TD>Jalilov</td>
  <td>2-74-50</td>
  <td>Gulxaniy 10</td>
</TR>
<TR><TD ALIGN="CENTER" COLSPAN="3">Binoning birinchi qavatida bepul
telefon avtomat mavjud</TABLE>
</body>
</html>

```



Rasm 2.

Bir yacheykaga bir necha satrlarni birlashtirish.

Agar siz tez-tez jadvallardan foydalanib tursangiz, qaysidir bir yacheyka jadvalning bir necha satrlarini birlashtirish lozim bo'lib qolgan vaziyat bilan albatta tanishsiz. Bu erda sizga **<td>** tegi ichiga qo'shiladigan **rowspan** kalit so'zi asqotadi.

Misol 3.

```

<html>

```

```

<head>
<title>Birlashtirish</title>-----Sarlavha
</head>
<body>
<table border="8" width="94%">
<CAPTION ALIGN="TOP"> <B> <H1> Olimpiada </H1> </B> </CAPTION>
  <TR BGCOLOR="YELLOW" ALIGN="CENTER">
    <TH><H3>Ismi</H3>
    <TH><H3>Viloyati</H3>
    <TH><H3>Egallagan orin</H3>
    <TH><H3>Musobaqa turi</H3>
    <TH><H3>Bo'yi</H3>
  <tr>
    <td> Dilshod </td>
    <td rowspan=2> Samarqand </td>
    <td> 1 </td>
    <td> 100 metrga yugurish </td>
    <td> 194 </td>
  </tr>
  <tr>
    <td> Sarvar </td>
    <td> 2 </td>
    <td> Suzish </td>
    <td> 196 </td>
  </tr>
  <tr>
    <td> Javlon </td>
    <td rowspan=3> Termez </td>
    <td> 1 </td>
    <td> Tosh ko'tarish </td>
    <td> 194 </td>
  </tr>
  <tr>
    <td> Suxrob </td>
    <td> 1 </td>
    <td> Vilosiped poygasi </td>
    <td> 192 </td>
  </tr>
  <tr>
    <td> Nodir </td>
    <td> 3 </td>
    <td> Suzish</td>
    <td> 196 </td>
  </tr>
</table>
</body>
</html>

```


Ismi	Viloyati	Egallagan orin	Musobaqa turi	Bo'yi
Dilshod	Samarqand	1	100 metrga yugurish	194
Sarvar		2	Suzish	196
Javlon	Termez	1	Tosh ko'tarish	194
Suxrob		1	Vilosiped poygasi	192
Nodir		3	Suzish	196

Rasm 3.

Bir necha ustunlarni bir yacheykaga birlashtirish va ro'yxat kirgizish.

Yuqoridagi misolda **rowspan** bir necha satrlarni birlashtirgani guvohi bo'ldingiz, endi e'tiboringizni, **colspan** kalit so'ziga qaratishingizni so'raymiz. **Colspan** kalit so'zi bir necha ustunlarni birlashtiradi. **Colspan** kalit so'zi yordamida siz istagan miqdordagi ustunlarni bir yacheykaga birlashtirishingiz mumkin. Quyidagi misolga e'tibor bering:

Misol 4.

```

<html>
<head><title>Ustunlarni birlashtirish</title>
</head>
  <body>
<table border="8" width="100%">
<CAPTION ALIGN="TOP"> <B> <H2> Ma'lumot </H2> </B> </CAPTION>
  <TR BGCOLOR="#00FFFF" ALIGN="CENTER">
    <TH colspan=3><H3>F.I.SH.</H3>
    <TH><H3>Viloyati</H3>
    <TH colspan=3><H3>Tug'ilgan yili</H3>
  </TR>
  <tr>
    <th> Zaripova </th>
    <th> Muqaddas </th>
    <th> Jumaniyozovna </th>
    <th> Samarqand </th>
    <th> 1972 yil </th>
    <th> 7 </th>
    <th> aprel </th>
  </tr>
  <tr>
    <th> Yusupova </th>
    <th> Dilfuza </th>
    <th> Aminovna </th>
    <th> Farg'ona </th>
    <th> 1968 yil </th>
    <th> 7 </th>
    <th> may </th>
  </tr>
</tr>

```

```

<th> Karimova </th>
<th> Nodira </th>
<th> Salimovna </th>
<th> Termiz </th>
<th> 1972 yil </th>
<th> 14 </th>
<th> mart </th>
</tr>
</table>
</body>
</html>

```

Ma'lumot						
F.I.S.H.			Viloyati	Tug'ilgan yili		
Zaripova	Muqaddas	Jumaniyozovna	Samarqand	1972 yil	7	aprel
Yusupova	Dilfuza	Aminovna	Farg'ona	1968 yil	7	may
Karimova	Nodira	Salimovna	Termiz	1972 yil	14	mart

Rasm 4.

Ehtiyotkorlik! **rowspan** (yoki **colspan**) lardan foydalanganda mos holda satr yoki ustunlarning miqdorini kamaytirishni esdan chiqarmang. Jadvalga HTML ning boshqa elementlarini ham qo'shish mumkin. Shunday ekan unga ixtiyoriy turdagi ro'yxat kiritilishi mumkin. Qat'iy ravishda yoyilgan teglardan foydalanganlikni kuzatib borish kerak, aks holda ro'yxat kodlarini ajratib ko'rish qiyin bo'ladi.

Jadval yacheykalarining vertikal yoki gorizontaal ravishda matnni tekislash masalasini berish mumkin. Tekislash usullari maxsus **align** va **valign** kalit so'zlari yordamida beriladi. Yana siz umumiy ravishda jadval uchun tekislashda (<table> tegida), joriy satr uchun (<tr> tegda) yoki bir yacheyka uchun (<td> tegda) berish mumkin.

align va **valign** kalit so'zlarining har biri uchun 3 ta mumkin bo'lgan ifodalari bor:

- ✚ **align=left** matnni yacheykaning chap tarafi bo'yicha tekislaydi (jimlik)
- ✚ **align=center** matnni yacheykaning markazi bo'ylab tekislaydi
- ✚ **align=right** matnni yacheykaning o'ng tarafi bo'yicha tekislaydi
- ✚ **valign=top** matnni yuqori qismi bo'yicha tekislaydi (agarda ma'lumot bir necha satrdan iborat bo'lganda foydalaniladi)
- ✚ **valign=middle** matnni yacheykaning markazidan vertikal bo'ylab tekislaydi (jimlik holatida)
- ✚ **valign=bottom** matnni yacheykaning past qirrasini bo'ylab tekislaydi.

Jadvaldagi ranglar

So'ngi vaqtlargacha Web sahifaning jadvaldagi ranglarni boshqarish imkoni mavjud emas edi. Jadval turi qora rangda, fon esa sahifa foni rangi bilan mos tushar edi. Biror bir yacheykaning rangini boshqasidan ajratish va har xil ranglardan foydalanish juda qiyin bo'lgan.

Hozirda fon va tur rangini berish mumkin bo'lgan yangi teglar qatori mavjud. Birinchi holda **bgcolor** kalit so'zi <table> tegida quyidagi ravishda qo'yiladi.

```
<table border bgcolor=yellow></table>
```

Endi esa jadval fonining rangi sariq bo'ladi. Yuqoridagi 4 misolda `<table border="8" width="100%">` o'rniga `<table border bgcolor=yellow>` ni kiriting. Quyidagi jadval xosil bo'ladi.

F.I.SH.			Viloyati	Tug'ilgan yili		
Zaripova	Muqaddas	Jumaniyozovna	Samarqand	1972 yil	7	aprel
Yusupova	Dilfuza	Aminovna	Farg'ona	1968 yil	7	may
Karimova	Nodira	Salimovna	Termiz	1972 yil	14	mart

Rasm 4.1.

Quyidagi 16 rangdan ixtiyoriy birini uning nomini ko'rsatgan holda berishingiz mumkin: Black - qora, Treen - to'q yashil, Navy - to'q ko'k, Tial - ko'k, Silver - ochiq kulrang, Lime - yashil, Blue - ko'k, Aqua - берюзовый, Maroon - малиновый, Olive - оливковый, Purple - сиреневый, Troy - темно-серый, Red - qizil, Yellow - sariq, Fuchsia - розовый, White - oq.

bgcolor kalit so'zidan boshqa yana ranglarni boshqarish uchun quyidagi kalit so'zlari ham ishlatiladi:

bordercolor - jadval hoshiyasining (turining) rangini o'zgartirish.

bordercolordark/bordercolorlight - jadval hoshiyasining (turining) rangini qo'shim-cha 3 o'lchamli ko'rinishda xosil qilish uchun ishlatiladi.


Quyida yangi kalit so'zlarning barchasini ishlatib tuzilgan oddiy namuna berilgan:

```
<table border=4 bgcolor=yellow bordercolor=red bordercolordark=blue bordercolorlight=grey width=100%> </table>
```

Misol 5.


```
<html>
<head><title>Jadval hoshiyasini o'zgartirish</title>
</head>
<body>
<table border=2 bgcolor=yellow bordercolor=red bordercolordark=blue bordercolorlight=grey width=100%>
  <TR ALIGN="CENTER">
    <TH><H4>1</H4>
    <TH><H4>2</H4>
  </TR>
  <tr>
    <th> bir </th>
    <th> ikki </th>
  </tr>
  <tr>
    <th> BIR </th>
    <th> IKKI </th>
  </tr>
</table>
</body>
```

</html>



Rasm 5.

Izoh: “Rasm 5” Misol 5 ning brauzer oynasida tasvirlanishi.




Rasm 5.1.

Rasm 5 va rasm 5.1 ga e'tibor bering, ko'rib turganingizdek, siz bu kalit so'zlar yordamida jadvalning faqatgina tashqi ko'rinishini o'zgartirishni o'rgandingiz xolos. Bu hali hammasi emas. Bu kalit so'zlarni har bir satr va yacheyka uchun berishimiz mumkin. Quyida keltirilgan HTML kodda har bir yacheykaning rangi alohida beriladi.

Misol 6.

```
<html>
<head><title>Jadval yacheykalari</title></head>
<body>
<table border=2 width=300>
  <tr>
    <td bgcolor=yellow></td>
    <td bgcolor=olive><font color=black>11111</font></td>
  </tr>
  <tr>
    <td bgcolor=silver><font color=yellow>22222</font></td>
    <td bgcolor=aqua>33333</td>
  </tr>
</table>
</body>
</html>
```



Rasm 6.

Bu kalit suzlarni **tr** tegida ham berish mumkin. Bunda satrning rangi beriladi. Jadval matnining rangi uning foni rangi bilan mos tushmaganligiga e'tiboringizni qarating. Matn rangi **font** tegi yordamida o'zgartirilishi kerak.

Nazorat savollar:

1. Jadvallarda ustunlar guruhini qanday teglar yordamida aniqlash mumkin?
2. Jadvalning yuqorigi va pastgi sarlavhalarini (shapkalarini) qanday teglar bilan mos ravishda tashkil qilish mumkin?
3. Qanday teg yordamida satrlar guruhi hosil qilinadi?
4. Jadval va uning tashkil etuvchi elementlari qanday teglar orasida joylashtiriladi? Jadval sarlavhasi – chi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Internet va elektron pochta asoslari» M. Aripov. Toshkent, 2000
2. «Internet va undan foydalanish asoslari». Marahimov A.R., Rahmonqulova S.I. Toshkent, 2002
3. “Web-dasturlash”. Rahmonqulova S.I. Toshkent, 2006
4. “Web-texnologiyalar”. Xaitov F.N., Sattarov A.R., Tangirov X.E.. Uslubiy qullanma. Jizzax, 2005
5. “Web-dasturlash.” Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: HTMLda rasmlar hosil qilish teglari. Rasmlarni o'lchamlarini o'zgartirish (2 soat)

8 – ma`ruza

Reja:

1. Grafik tasvirlar.
2. Videofayllar.
3. Tovushli fayllar.

Tayanch iboralar

JPEG, PNG, GIF, PSX, IMAGES, bgsound tegi, LOOP parametri.

Grafik tasvirlar.

Tarmoqda **tasvirlar** haqida gapirilganda aniqlangan ma'lum bir turdagi fayllar haqida gap ketadi. U «цифровой» kamera yoki skaner yordamida olingan rasm, tasvir, hattoki, grafik formatda ifodalangan matn bo'lishi ham mumkin. Bu yerda faylning **aniqlangan formati** muhim rol o'ynaydi. Ko'pchilik matn muharrirlari (**Notepad**, **SimpleText**) grafik fayllarni o'zlarida tasvirlay (ko'ra, ifodalay) olmaydilar. Buning uchun maxsus tasvirlarni ko'rish programmasi, grafik muharrirlar mavjud.

Tasvirlarni web-sahifaga joylashtirish juda oddiy. Buning uchun **** elementi kerak bo'ladi. Shuni tushunish kerakki, rasm sahifaga joylashtirilmaydi, balki rasmga sahifadan turib **murojaat** (rasmga yo'l) ko'rsatiladi. Rasm fayli esa kompyuterning qattiq diskida yoki tarmoqda joylashgan bo'lishi mumkin.

Tarmoqda tasvirlarning asosan **JPEG (Joint Photographic Experts Group** «Djpeg» deb o'qiladi), **GIF (Graphics Interchange Format** «gif» deb o'qiladi) va **PNG (Portable Network Graphics)** kabi formatlari qo'llaniladi. Bundan tashqari **PCX, TIFF** va **PICT** kabi formatlar ham internetda uchraydi. Agar foydalanuvchida boshqa formatdagi tasvirlar bo'lib, uni web-sahifaga joylashtirmoqchi bo'lsa, u holda uni yuqoridagi formatlardan birida ifodalab olishi maqsadga muvofiqdir.

Web-sahifa uchun tasvirni qo'yayotganda quyidagi **qoidalarga** e'tibor berish lozim: **birinchidan**, «tushlik uchun yaxshi qoshiq» tanlagan kabi, ya'ni tasvir o'z joyida qo'llanilishi kerak; **ikkinchidan**, tasvir faylini yuklash ko'p vaqtni olmasligi kerak.

Tasvirlar, jadvallar, grafiklar web-sahifani bezaydi, uning ko'rinishi va informativlik xususiyatini oshiradi. Faqat matndan iborat Web-sahifa foydalanuvchini zeriktirib qo'yishi mumkin.

Web-sahifaga tasvirlarni qo'yish oddiy vazifa. Murakkabi, yaxshi tasvirni hosil qilish hisoblanadi. U ko'plab xususiyatlarga ega bo'lishi lozim: qiziqarli, foydali, o'ziga tortuvchi va juda ham katta hajmli bo'lmasligi lozim. Tasvirlarni yaratishing ba'zi bir qoidalari:

✚ Tasvirlar va grafikalar berilayotgan informatsiyaga tegishli bo'lishi lozim. Sahifaning o'lchamini oshirish uchungina tasvirlarni qo'yish kerakmas. Foydalanuvchilar Internetdan ma'lumot qidiradi va faqat keraklisini o'qiydi, sizning yaxshi ko'rgan rasmingizni ko'rish u uchun qiziq emas.

✚ Tasvirlar tez yuklanishi kerak, bu yutuqqa olib keladi. Buning uchun esa fayl katta xajmda bo'lmasligi kerak. Shuning uchun sahifani rasmlar bilan «to'ldirib» tashlamaslik kerak.

✚ Oxirgi yillarda ishlab chiqarilayotgan yuqori sifatli raqamli fotoapparatlar xizmatidan foydalaning. Bu sizga kerakli format va o'lchamni tanlashda qulaylik tug'diradi.

Agar siz sahifangizga tasvir qo'yishga qaror qilgan bo'lsangiz tasvirlarni yaratishga mo'ljallangan grafik muxarrirlar xizmatidan foydalanishingiz mumkin. Ular: Paint Shop Pro, Graphic Converter, Adobe Photoshop, Adobe Image Ready, Corel Draw, Corel Xara ...

Grafik ob'ektlar yuqorida aytib o'tganimizdek Web sahifani bezashda juda muhim o'rin tutadi. **Grafik ob'ekt** deganda biz har xil tipdagi rasmlar, fotorasmlar, tovushli fayllar va videokliplarni tushinishimiz kerak. Brauzer **GIF**, **JPEG** va **PNG** formatdagi grafik fayllarni tasvirlaydi. GIF formatidagi fayllar animatsion tasvirlarni yaratish imkonini beradi. JPEG fayllar fototasvirlarni saqlash uchun ishlatiladi. PNG formati esa tasvirning yuqori sifati va grafik faylning kichik hajmda bo'lishini ta'minlaydi. Web sahifada grafik fayllarni tasvirlash uchun **** tegi o'zining bir qancha parametrlari bilan qo'llaniladi. Bu teg o'zining yopiluvchi tegigi ega emas, ya'ni biror soha uchun emas balki ko'rsatilgan joyga grafik ob'ekt joylashtirilishini bildiradi. **** tegining asosiy va majburiy parametrlaridan biri **src parametridir**. Bu parametr qiymati sifatida tasvirlanishi kerak bo'lgan ob'ekt manzili yoki aniqroq qilib aytganda uning URL manzili ko'rsatiladi.

Masalan: Web sahifaning HTML fayllari joylashgan **IMAGES** papkasi o'zining grafik fayllari bilan joylashgan bo'lsa bu papkadagi rasm1.gif faylini tasvirlash uchun quyidagi yozuvni yozishimiz kerak:

Hozirgi kunda grafik ob'ektlarni tasvirlay olmaydigan brauzerlar umuman ishlatilmaydi, lekin brauzerlarda grafik ob'ektlarni ekranga chiqarmaslik imkoniyati mavjud. Shuning uchun grafik ob'ekt chiqarilmagan vaqtda uning o'rnida shu ob'ekt haqida paydo bo'luvchi alternativ matnli ma'lumot bo'lishi zarur. Bu alternativ matnli ma'lumot **** tegiga **alt parametri** yordamida qo'shiladi va matnli qiymat qabul qiladi.

Misol:

Agar grafik tasvir brauzer tomonidan ekranga chiqarilsa u holda alternativ matn sichqoncha ko'rsatkichi tasvir ustiga olib borilganda ko'rsatkich yonida paydo bo'ladi. Grafik tasvir haqidagi to'liq ma'lumotni beruvchi internet manba manzilini ko'rsatuvchi **longdesc** parametri ham sichqoncha ko'rsatkichi yonida paydo bo'luvchi matnli ma'lumotni yaratishda ishlatiladi. Bu parametr qiymati sifatida tasvirning **URL** manzili ko'rsatiladi.


Jimlik holati bo'yicha grafik tasvir saqlangan paytda qanday **gorizontal** va **vertikal** o'lchamlarda saqlangan bo'lsa ekranda ham xuddi shunday tasvirlanadi. Grafik tasvirni foydalanuvchi o'zi xohlagan o'lchamda tasvirlash imkoniyatiga ega, buning uchun **height** va **width** parametrlaridan foydalaniladi. Web sahifada grafik tasvirni boshqa ob'ektlardan bo'sh joy bilan ajratib turuvchi **hspace** va **vspace** parametrlari ham mavjud. **hspace** parametri bo'sh joyni gorizontal bo'yicha piksellarda o'rnatadi, **vspace** parametri esa vertikal bo'yicha o'rnatadi. Bu parametrlar qiymati faqat **sonlarda** beriladi. **Border** parametri bilan tasvir atrofidagi chegara qalinligi o'rnatiladi. Parametr qiymati sifatida pikselda o'lchangan son beriladi. Jimlik bo'yicha bu parametr **0** qiymat qabul qiladi va chegara xoshiyasi ko'rinmaydi. Tasvirni o'zining atrofidagi matnga nisbatan tekislashni ko'rib chiqamiz. Buning uchun **align** parametri ishlatiladi. Bu parametr qiymati sifatida quyidagi so'zlar ishlatiladi: **bottom**, **middle**, **top**, **left**, **right**. Endi yuqoridagi parametrlar qo'llanilgan quyidagi misollarni ko'ramiz:

Misol 1.

```

<!DOCTYPE html PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01 Transitional//EN">
<html>
<head> <title>Rasm va matn</title> </head>
<body>
<p> Bu rasm matnlar orasida joylashadi. <IMG SRC=rasm1.GIF> Bu rasm matnlar
orasida joylashadi. </p>
</body>
</html>

```



Rasm 1.


Endi shu misolda **** tegiga gorizontal bo'yicha tekislash parametrini qo'shib ko'raylik.

Misol 2.

```

<!DOCTYPE html PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01 Transitional//EN">
<html>
<head> <title>Rasm va matn</title> </head>
<body>
<p>Bu rasm matndan chapda joylashadi. <img src=rasm1.gif align=left > Bu rasm
matndan chapda joylashadi. Bu rasm matndan chapda joylashadi. Bu rasm matndan
chapda joylashadi. Bu rasm matndan chapda joylashadi. Bu rasm matndan chapda
joylashadi. Bu rasm matndan chapda joylashadi. </p>
</body>
</html>

```



Rasm 2.

Endi xuddi shu misolni vertikal bo'yicha tekislashga o'tkazamiz.

Misol 3.

```

<html>

```



```

<head>
<title>Rasm va matn</title>
</head>
<body>
<p> Matn rasmning o'rtasi bilan tenglashtirib yoziladi.  Matn rasmning o'rtasi bilan tenglashtirib yoziladi. Matn rasmning o'rtasi
bilan tenglashtirib yoziladi. </p>
</body>
</html>

```



Rasm 3.
Videofayllar.

Bizda Web sahifani bezash uchun unga videoroliklar joylashtirish imkoniyati ham mavjud. Foydalanuvchi o'z brauzerida videoma'lumotni ko'rishi uchun videoma'lumot yozilgan faylni o'z kompyuteriga to'liq yuklab olishi lozim. Video fayllar katta hajm egallaganligi sababli uni tarmoq orqali kompyuterga yuklash uchun ko'proq vaqt sarflanadi.

Brauzerlar odatda **AVI**, **Real Video** va **Windows Media** formatlaridagi videofayllarni tasvirlash imkoniyatiga ega. Ularni Web sahifa tarkibiga qo'shish uchun ham **** tegi ishlatiladi. Videofayl joylashgan manzilni ko'rsatish uchun esa **dynsrc** parametri ishlatiladi. Jimlik bo'yicha Web sahifa tarkibiga kiritilgan videoma'lumot Web sahifa yuklangandan keyin avtomatik ravishda bir marta tasvirlanadi, lekin bizda tasvirlanish jarayonini boshqarish yoki bu jarayonni foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan qilish imkoniyati mavjud. **** tegiga **<start>** parametrini qo'shish orqali biz yuklangan videoklipni tasvirlash jarayonini bema'lol boshqarishimiz mumkin. **<start>** parametrining qiymatlari sifatida **mouseover** va **fileopen** kalit so'zlari ishlatiladi. **mouseover** parametri foydalanuvchi sichqoncha ko'rsatkichini videotasvir joylashgan soha ustiga olib kelishi bilan videotasvirning tasvirlanish jarayoni boshlanishini bildirsa, **fileopen** parametri esa Web sahifa kompyuterga to'liq yuklanib bo'lgandan keyin darhol tasvirlanish jarayoni boshlanishini bildiradi.

Misol:

Biz **loop** parametri orqali videorolikning necha marta tasvirlanishini boshqarishimiz mumkin. Buning uchun tasvirlanishlar sonini **loop** parametriga qiymat sifatida berishimiz zarur. Agar biz videorolikning takroriy tasvirlanishini doimiy ravishda takrorlanuvchi qilib qo'ymoqchi bo'lsak u holda **loop** parametriga **infinite** qiymatini berishimiz kerak bo'ladi. **Loopdelay** parametri takroriy tasvirlanish jarayonida tasvirlanishlar orasidagi vaqtni belgilaydi va qiymati millisekundlarda beriladi.

Misol:

Yuqoridagi misolda Web sahifa to'liq yuklanishi bilan videoklip ikki marta orasida 5 sekundlik tanaffus bilan tasvirlanadi.

**** tegiga **controls** parametrini qo'yish orqali biz videofaylni to'liq o'zimiz boshqarishimiz mumkin, ya'ni Web sahifada videoklip bilan birgalikda uni boshqarish elementlari ham paydo bo'ladi. Boshqarish elementlariga tasvirni ishga tushirish, orqaga qaytarish, oldinga o'tkazish yoki to'xtatish kabi ishlarni bajaruvchi tugmalar kiradi.

Misol: 4.

```
<html>
<head>
<title>Video</title>
</head>
<body>
<p>Oddiy matn.  </p>
</body>
</html>
```

Videotasvirlarni Web sahifaga joylashtirish bu grafik ob'ektlarni joylashtirishning bir qismi bo'lganligi uchun **** tegining barcha parametrlarini videotasvirlar uchun ham qo'llash mumkin.

Tovushli fayllar.

Web sahifaga tovushli fayllarni joylashtirish ham HTML ning multimedia imkoniyatlari doirasiga kiradi. Tovushli fayllar Web sahifada fon hisobida qatnashadi. **Tovushli fayl** Web sahifa to'liq yuklangandan keyin bajariladi. Foydalanuvchi kompyuteriga Web sahifa yuklanganda birinchi navbatda uning HTML tilida yozilgan fayli, keyin esa shu sahifada ishlatilgan grafik, video va audiofayllar yuklanadi.

Demak Web sahifaga tovushli fayl qo'yishimiz uchun biz sahifaning sarlavhasiga, ya'ni **<head>** va **</head>** teglari orasiga **<bgsound>** tegini joylashtirishimiz kerak bo'ladi. Bu tegning src parametri qiymat sifatida tovushli faylning **URL** manzilini qabul qiladi.

Brauzerlar **MIDI** va **WAV** formatdagi audiofayllarni taniydi va bema'lol aytirish imkoniga ega. Boshqa formatdagi, ya'ni **MP3**, **Real Audio** kabi audiofayllarni aytirish uchun brauzerlarga qo'shimcha modullar qo'shish kerak bo'ladi. Xuddi videokliplar bilan ishlaganimizdek audiofayllar bilan ishlaganimizda ham faylning necha marta takrorlanishini **loop** parametri bilan boshqarishimiz mumkin. Qiymat sifatida esa takrorlanishlar soni beriladi. Agar audiofaylning to'xtovsiz takrorlanishi zarur bo'lsa **loop** parametriga **"-1"** qiymat berish kerak.

Misol:

<bgsound src="song.mid" loop="-1">

Nazorat savollari:

1. HTML – faylning kengaytmasi qanday?
2. Web sahifaga tovushli fayllarni joylashtirish uchun qanday tegdan foydalaniladi?
3. Brauzerlar qanday formatdagi audiofayllarni taniydi?
4. Tasvirlarni web-sahifaga joylashtirish uchun qanday teg ishlatiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Internet va elektron pochta asoslari» M. Aripov. Toshkent, 2000
2. “Web dasturlash fanidan ma`ruza matnlari” M.S. Sharipov. Urgench, 2007
3. “Web-texnologiyalar”. Xaitov F.N., Sattarov A.R, Tangirov X.E.. Uslubiy qullanma. Jizzax, 2005
4. “Web-dasturlash.” Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: HTMLda gipermatn joylashtirish teglari. Gipermatn turlari, atributlari. (2 soat)

9 – ma`ruza

Reja:

1. Gipermatnli murojaatlar haqida tushuncha.
2. Murojaatlar anatomiyasi va maxalliy Web-sahifalarga murojaat.
3. WWW ning xohlagan joyiga murojaat.
4. Murojaat rangi.
5. Tasvirlarni murojaat sifatida ishlatish.

Tayanch iboralar

Gipermatnli murojaat, murojaat rangi, protocol, URL, <a href> tegi.

Havolalar (murojaatlar) tufayli internet hozirgi mavqiyga erishdi. Havolalar yordamida ikki va undan ortiq (cheksiz) web sahaifalarni bir-biriga bo'g'lashingiz mumkin. Havola rus tilida "**ссылка**" deb ataladi. Havolaga bosish orqali siz ikkinchi sahifani ochishingiz mumkin. Havolalar yordamida web sahifangiz uchun menyu tuzishingiz mumkin. Havolalar yordamida foydalanuvchilar sizning web sahifangizda sahifa bo'ylab tom ma'noda sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Siz yaratgan **web sahifani** ko'p qavatli katta binoga, har bir sahifani shu binoning xonalariga taqqoslash mumkin. Bino bo'ylab sayohat qilayotgan "o'quvchi" har bir xonani ko'zdan kechirib chiqadi. Uni bino ichida adashib ketmasligi va kirgan xonalariga qaytib kirmasligi va buni yodda tutishi uchun unga bino xaritasi lozim. Havolalar ana shu "bino xaritasi" vazifasini o'taydi. Xarita aniq va ustalik bilan tuzilgan bo'lsa undan foydalanuvchi siz chizib bergan marshrut bo'yicha harakatlanadi hamda har bir sahifa bilan tanishib chiqadi.

Quyida ba'zi bir HTML hujjatlarni bir-biriga bog'lashda ishlatiladigan atamalarning **tasnifini** keltiramiz:

Gipermatn hujjat – bu boshqa hujjatlarga o'tish uchun aloqa bog'lovchi (**ссылка**)ni o'zida saqlaydigan hujjat. U sichqoncha tugmasini bosish orqali bir hujjatdan ikkinchi hujjatga tezlik bilan o'tishni ta'minlaydi. Bunday aloqalarni zamonaviy mahsulotlar dasturlari fayllarida ko'plab uchratish mumkin. Gipermatnga asos qilib, ko'p maqolalarida boshqasiga havola (**ссылка**) qilinadigan entsiklopedik slovarlarni tashkil etish printsipi olingan.

Web-sahifalarga joylashtirish mumkin bo'lgan ko'plab multimedia ob'ektlari mavjud. Zamonaviy gipermatn hujjatlarida matnning o'ziga qo'shimcha qilib ko'pincha har xil grafika, video va audio ob'ektlardan foydalaniladi. Aloqa (**ссылка**) sifatida esa, tasvir ishlatiladi.

Giperaloqa (гиперссылка) – bu maxsus HTML tegi bo'lib, unda parametr sifatida zaruriy hujjat adresi saqlanadi. Giperaloqa aktivlashganda (zamonaviy grafik brauzerlarda bu ish sichqonchani chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi) zaruriy Web-serverga HTTP-talab (kerakli hujjat nomi bilan) yuboriladi.

Web sahifalarga gipermurojaat WWW ning asosiy xususiyatlaridan biridir. Istalgan bir hujjatdan boshqa bir WWW hujjatga HTML ning maxsus tegi yordamida murojaat bo'lishi mumkin. Web ga sayohat paytida siz Web sahifalarda gipermatnli murojaatlarga to'qnashgan bo'lsangiz kerak. Bu matn fragmentlari ko'k shriftida va tagi chizilgan bo'ladi. Shu tariqa tasvirlangan matnlar **murojaat matnlari** deyiladi. Agar siz uni sichqoncha bilan turtsangiz u avtomat ravishda boshqa Web – sahifaga murojaat qiladi.

Har qanday **URL** manzilida 3 qism mavjud: **protokol, internet uzeli, fayl nomi** (o'nga yo'l ko'rsatiladi, shart bo'lsa).

Protokol – bu 2 ta kompterning bir-biri bilan aloqasining qoidasi, biz WWW ning standart protokoli **http (Hyper Text Transfer protocol)** haqida gaplashamiz. Yana siz internet uzeli va fayl nomini ham ko'rsatishingiz kerak.

Masalan:

<http://www.ursu.uzpak.uz/create>

Buni tushuntiradigan bo'lsak, brauzer ko'rsatilgan **ursu.uzpak.uz** manzilini (http) aniq bir ulanish usuli yordamida internetga ulaydi va **create** direktoriyasidagi Web-sahifani topadi. Har bir internetdagi hujjat va fayl alohida resurlarning universal ko'rsatkichi deb nomlanuvchi manzilga ega (**uniform resource locator - URL**). **URL** elektron pochta manzilini eslatib turadi. **Internet** – kompyuterlar **URL** ni qanday jo'natishni, uni qanday topishni va nima bilan ulashni o'zlari tushunadi. Web-sahifa qarda joylashishidan qat'iy nazar xox u Yangi Zelandiyada bo'lsin yoki Yaponiyada bo'lsin WWW ular bilan bir xil ishlaydi. Brauzer har bir **URL** ni ishga solib sizga internetdagi hujjatni topib beradi va avtomatik ravishda taqdim qiladi.

Dunyo bo'ylab Web uzellarni ko'rib chiqmoqchi bo'lgan shaxsga URL haqida va kerakli domen kalitni qanday topishni o'ylashga zarracha ehtiyoj yo'q.

Navbatdagi oldimizda turgan vazifa yuqorida aytganimizdek "bino xaritasini" tuzishdan iborat. Buning uchun biz eng birinchi navbatda havola (**ссылка**) tushunchasining tub ma'nosiga yetishimiz lozim.

Murojaatlar anatomiyasi va maxalliy Web-sahifalarga murojaat.

Web sahifaga murojaatlarni joylashtirish **ikki turda** bo'ladi (bir-biriga o'xshash). Dastlab mahalliy hujjatlarga murojaat qilishni ko'rib chiqamiz. **Mahalliy hujjat** bu shunday hujjatki sizning uy sahifangiz internetning qaysi joyida joylashgan bo'lsa u ham shu erda joylashgan bo'ladi. **Mahalliy hujjatlarga** murojaat qilish oson va bunda siz to'liq **URL** ni bilishingiz shart emas, faqat faylga yo'l va uning nomini bersangiz kifoya. So'ngra siz WWW ning xohlagan joyidagi hujjatlarga murojaat qilishni o'rganasiz. Bu turdagi murojaatda sizdan to'liq **URL** talab qilinadi.

Faraz qilaylik sizda bitta hujjat uchun ma'lumot ko'p va siz uni bir necha HTML fayllarga bo'lishga qaror qildingiz. U holda asosiy Web-sahifada bu hujjatning har biriga to'liq va oson o'tuvchi murojaatlarni joylashtirish kerak bo'ladi.


Hatto siz asosiy Web-sahifangizni mundarija ko'rinishida qilishingiz mumkin va bunda alohida sahifalarga murojaat qilinadi.

Dastlab **<a href>** tegi kiritiladi. **<a>** teg **o'zag** teg deb nomlanadi. U Web-sahifalarga murojaat uchun ishlatiladi. **href** kalit so'zi brauzerga siz murojaat qilayotganingiz haqida xabar beradi. **** yopiluvchi tegini esdan chiqarmay yozib ketish kerak. **misol.htm** fayliga murojaatlarni yaratish uchun quyidagi kodni kiritishingiz kerak:

** Misolni ko'rish **

Shunday qilib «Misolni ko'rish» iborasi ekranda murojaat matni ko'rinishida paydo bo'ladi.

Bu matnga sichqoncha bilan turtsangiz, **misol.htm** fayli ochiladi.



Rasm 1.

Uchta sahifani bir-biriga bog'lash

Birinchi bosqich

```
<!DOCTYPE html PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01 Transitional//EN">
<html>
  <head>
    <title>Sahifani bog'lash</title> </head>
    <body>
      <H5><A HREF="1.html">1-qism</A></H5>
      <H5><A HREF="2.html">2-qism</A></H5>
    </body>
  </html>
```

Ikkinchi bosqich

```
<!DOCTYPE html PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01 Transitional//EN">
<html>
  <head>
    <title>Rasm va matn</title> </head>
  <body>
    <p> Bu rasm matnlar orasida joylashadi. <A HREF="Gipermurojaat.html"><IMG SRC=rasm1.GIF></A> Bu rasm matnlar orasida joylashadi. </p>
  </body>
</html>
```

Uchinchi bosqich

```
<!DOCTYPE html PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01 Transitional//EN">
<html>
  <head>
    <title>Rasm va matn</title>
  </head>
  <body>
    <p>Bu rasm matndan chapda joylashadi. <A HREF="Gipermurojaat.html"><img src=rasm1.gif align=left ></A> Bu rasm matndan chapda joylashadi. Bu rasm matndan chapda joylashadi. Bu rasm matndan chapda joylashadi. Bu rasm matndan chapda joylashadi. Bu rasm matndan chapda joylashadi. Bu rasm matndan chapda joylashadi.
  </p>
  </body>
</html>
```

WWW ning xohlagan joyiga murojaat.

Boshqa bir Web uzalga murojaat qilish uchun hujjatning to'liq URLi talab qilinadi. Lekin murojaatning bu turi ham shunday tarzda, ya'ni <a href> va kabi bo'ladi. URL hamisha http:// bilan boshlanadi. Shu tarzda brauzer hujjatni sizning Web uzelingizdan emas WWW dan qidirib boshlaydi. URL ning qolgan qismlari siz izlayotgan hujjatning nomi va internetdagi yo'li, uzelidan iborat bo'ladi:

 yahoo olami ro'yxati

Murojaat rangi.

World Wide Web dagi murojaat matnining rangini o'zgartirishingiz mumkin. Sizning Web sahifangizning matnini rangini body tegi yordamida o'rnatish mumkin:

<body text=red>

Shu tarzda gipermurojaat matnining rangini ham boshqarish mumkin. Quyida 3 ta yangi kalit so'z keltirilgan:

link - link kalit so'zi **Text** kabi ishlatiladi. **link=blue** o'rnatilgan bo'lsa (yoki boshqa bir rang), foydalanuvchi hali ishlatmagan (sichqoncha bilan turtmagan) murojaatlar ko'k rangda bo'ladi.

<body text=red link=blue>

vlink - ayrim hollarda bir necha murojaatlarning rangi boshqalaridan ajralib turganini sezgan bo'lishingiz mumkin. Bu murojaat siz tomoningizdan faollashtirilganligidan dalolat beradi. Foydalanuvchi murojaat qilgan murojaatlarning rangini (**Visited line**) **vlink** kalit so'zi bilan o'zgartirish mumkin. Murojaatning rangini ochiq ko'k rangga o'zgartirish uchun quyidagi kodda yozish kerak:

<body text= line link=aqua vlink=silver>

alink - murojaatga sichqoncha bilan turtgan paytdagi rangni o'zgartirish mumkin. Murojaatning faol rangi **alink** kalit so'zi yordamida beriladi. Kimdir sizning sahifangizga kirganida murojaat rangi **link** bilan berilgan rangda bo'ladi. Lekin qachonki siz uni sichqoncha bilan turtsangiz qisqa vaqtgacha **tlink** bilan berilgan rangga o'tadi.

Quyida faol murojaatning rangini **ochiq sariq rangga** o'zgartiramiz:

<body text= line link=aqua vlink=silver alink=yellow>

Tasvirlarni murojaat sifatida ishlatish.

WWW-sahifalarda murojaat vositasi bo'lib faqat matn emas, balki tasvirlar ham ishlatiladi. Bu shuni bildiradiki, qachonki siz tasvirlarni sichqoncha bilan turtsangiz ekranda boshqa Web-hujjat paydo bo'ladi.

Boshqa HTML - hujjatga tasvir yordamida murojaat qilish uchun xuddi matn singari bo'ladi. Faqat bunda matn o'rniga tasvirni berishingiz kerak. Jimlik xolatida Web-brauzerlar tasvir murojaatni ko'k ramka bilan o'rab oladi. Tasvirning hojlagan joyiga sichqoncha bilan turtish orqali mos hujjatga o'tiladi. Murojaat sifatida tasvirlarning hojlagan turi, rasmlar va piktogrammalardan foydalanish mumkin. (fon bezaklaridan tashqari).

Maslahat tasvirlar murojaat sifatida tez-tez ishlatiladi. Iloji boricha tushunarli tasvirlardan foydalaning, shunda foydalanuvchilar murojaat ularni qanday manzilga olib borishni tushunadilar.

Masalan, agar siz uy sahifangizda sevimli qo'shiqlaringiz ro'yxatiga murojaat qilmoqchi bo'lsangiz, musiqaga doir piktogrammadan foydalaning. Tasvir murojaatlaridan foydalanganda alternativ matn berish zarur. Tasvir ko'rinmay qolganda foydalanuvchilar shu orqali murojaatdan foydalanishlari mumkin. Ayrim foydalanuvchilarda tasvirni yuklash ko'p vaqtni talab qiladi. Ular uchun alternativ matn juda zarur, ana shunda ular nima ko'rishlarini bilib oladilar. Ixtiyoriy bir tasvirga murojaat chiqarish uchun quyidagicha kodni kiritamiz:

** **

yoki, yuqoridagi misolda keltirilgan edi

Bu matn o'rniga **** tegini kiritganimizga e'tiboringizni qarating. Shu tariqa grafik murojaat berish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Giperbog'lanishning ahamiyati qanday?
2. Gipermatn va gipermurojaat nima?
3. Gipermatnli murojaatlar haqida tushuncha.
4. Murojaatlar anatomiyasi va maxalliy Web-sahifalarga murojaat deganda nimani tushunasiz?
5. Murojaat rangini o'zgartirish mumkinmi va u qanday amalgam oshiriladi?
6. Tasvirlarni murojaat sifatida ishlatish uchun nima vazifalarni bajarish lozim?.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Web dasturlash fanidan ma`ruza matnlari" M.S. Sharipov. Urgench, 2007
2. "Web-texnologiyalar". Xaitov F.N., Sattarov A.R, Tangirov X.E.. Uslubiy qullanma. Jizzax, 2005
3. "Web-dasturlash." Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: Freymlar tashkil qilish. Freymlar hosil qilish va ularni qayta ishlash va saqlash.

(2 soat)

10 – ma`ruza

Reja:

1. Freymlar haqida umumiy ma'lumot.
2. Frame tegi va uning parametrlari.

Tayanch iboralar

Freym, <frameset> va </frameset> teglari, <frame> va </frame> teglari, <noframes> va </noframes> teglari, rows va cols parametrlari. NAME, PAME, SRC, FRAMEBORDER, MARGINWIDTH, MARGINHEIGHT, NORESIZE, SCROLLING.

Freymlar haqida umumiy ma'lumot.

Bizga ma'lumki bir vaqtning o'zida brauzer oynasiga ikkita HTML hujjatni yuklay olmaymiz. Agar biz ishlatayotgan Web sahifalarimizning barchasida bir xil menyu bandlari mavjud bo'lsa har safar Web sahifani yuklaganimizda bir xil ma'lumotni qayta-qayta yuklashga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar uncha katta bo'lmasligi mumkin, lekin uni yuklash ma'lum bir sekundlarni oladi. Shuning uchun Web sahifalarning o'zgaraydigan elementlarini har safar yuklamasdan o'zgarishsiz qoldirish kerak. Bu muammolarni echish imkoniyatlari bor.

Biz bitta oynani bir nechta to'g'ri to'rtburchaklarga bo'lib ularning har biriga bitta HTML hujjat yuklashimiz mumkin. Bu to'g'ri to'rtburchak sohalarni biz freymlar deb ataymiz.

Demak, “**freymlar**” baruzerni kuzatuv oynasini yonma-yon joylashgan bir nechta to'g'ri burchakli sohalarga bo'lish imkonini beradi. Mazkur bo'laklardan har biriga alohida HTML-fayl, ya'ni boshqalardan mustaqil ravishda ko'zdan kechiriluvchi fayllarni yuklash mumkin. Zaruriyat tug'ulganda freymlar orasida o'zaro bog'liqlikni tashkil etish mumkin. O'zaro bog'liqlik tashkil etilganda freymlardan birida sso'lka tanlansa, boshqa freym oynasida kerakli hujjatning yuklanishiga olib keladi.

Garchi HTML-hujjatlarda foydalanuvchiga axborot aks ettirilishining turli usullari havola etilsada, axborotni ifodalashning freym tizimi ham o'zining afzalliklariga ega. Quyidagi xollarda aynan freym tizimi qo'l keladi:

✚ Bir soxada ishlayotganda boshqa bir soxaga hujjatlarni yuklash orqali boshqarishni tashkil etish zarurati tug'ilganda;

✚ Ekranning boshqa hududlarida nima bo'lishidan qat'iy nazar ekranda doimo ko'rinib turishi kerak bo'lgan axborotni ko'zdan kechirish darchasining ma'lum qismiga joylashtirish lozim bo'lganda;

✚ Darchaning xar biri mustaqil ravishda ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan yonma-yon bir necha sohalarida joylashtirish qo'lay bo'lgan axborotni taqdim etish zarurati tug'ilganda.

Freymlar tizimini tasvirlash uchun <FRAMESET>, <FRAME> yoki <NOFRAME> teglaridan foydalaniladi.

Freymlardan tashkil topgan Web-sahifalar <BODY> bo'linmasiga ega bo'lishi mumkin emas.

<FRAMESET> va </FRAMESET> konteynerlari xar bir freymni belgilash blokini o'rab turadi. Bunday konteynerning ichida faqat <FRAME> teglari yoki kiritilgan <FRAMESET> teglari mavjud bo'ladi.

HTML da freymning ikki xil ko'rinishi mavjud bo'lib bular oddiy va suriluvchi freymlardir.

Demak, freymli strukturaga ega bo'lgan hujjatlar <frameset> va </frameset> teglari yordamida yaratiladi.

Bu ikki teg orasida hosil qilinayotgan alohida freymlarga oid ma'lumotlar e'lon qilinadi. Alohida freymlar `<frame>` va `</frame>` teglar yordamida yaratiladi. Agar sizning brauzeringiz freymlarni tushunmasa u holda ekranda `<noframes>` va `</noframes>` teglari orasida yozilgan ma'lumot tasvirlanadi.

Garchi **freymlar tizimi** HTML 4.0 da standart bilan mustaxkamlangan bo'lsada, `<NOFRAMES>` tegi freymlarni qo'llab-quvvatlamaydigan brauzerlar yordamida ko'zdan kechirishda asqotadi. Demak, freymlarga bog'lanmagan brauzerlar uchun `<NOFRAMES>` va `</NOFRAMES>` teglari juftligidan foydalaniladi. **Masalan:**

```
<NOFRAMES> butun HTML-hujjat </NOFRAMES>
```

Mazkur teglar orasiga joylashtirilgan barcha ma'lumotlar freymlarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'lmagan brauzerlar yordamida aks ettiriladi. Freymlarga bog'langan brauzerlar esa `<NOFRAMES>` va `</NOFRAMES>` orasidagi barcha axborotga bog'liq emas.

`<FRAMESET>` tegi freymlarni belgilaydi. `<frameset>` tegining asosiy vazifasi brauzer oynasini bir nechta bo'laklarga bo'lish. Buning uchun asosan vertikal va gorizantal bo'yicha freymlar o'lchami va sonini ko'rsatib turuvchi ishlatiladi.

- **cols** parametri brauzer oynasida gorizantal bo'yicha freymlar soni va o'lchamini ko'rsatadi. Parametr qiymati sifatida vergullar bilan ajratilgan freymlar o'lchamlari ro'yxati keltiriladi. O'lchamlar odatdagidek sonlarda yoki protsentlarda beriladi. Jimlik bo'yicha 100% qiymat ishlatiladi.

- **rows** parametri brauzer oynasida vertikal bo'yicha freymlar soni va o'lchamini ko'rsatadi. Parametrga qiymat berish cols parametri bilan bir xil bo'ladi.

<FRAMESET> tegining atributlari:

ROWS, COLS.

Ushbu parametrlar qiymatlari piksellarda, foizlarda yoki nisbiy birliklarda berilishi mumkin. Qator yoki ustunlar soni mos ro'yxatdagi qiymatlar soni bilan aniqlanadi. Masalan:

`<FRAMESET ROWS = "100, 240, 140">` - uchta freymdan iborat to'plamni belgilaydi. Qiymatlar piksellarda berilgan. Birinchi freym 100 piksel, ikkinchisi 240 piksel va nihoyat so'nggi freym 140 piksel balandlikka ega.

`<FRAMESET ROWS = "25%, 50%, 25%">` - ekranning maqbul balandligidan yuqori qatorning qiymati 25 foiz, o'rta qatorniki 50 foiz, quyi qatorniki 25 foiz ekanligini bildiradi.

`<FRAMESET COLS = "*", 2*, 3*">` - qiymatlar nisbiy birliklarda. **"Yulduzcha"** – "*" fazoni proporsional taqsimlash uchun ishlatiladi. Har bir yulduzcha butunning bir qismini bildiradi. Hisoblab topish uchun yulduzchalar oldidagi sonlarni qo'shish va hosil bo'lgan sondan kasrning maxraji sifatida foydalaniladi. Yuqoridagi misolda birinchi ustun darcha umumiy kengligining 1/6, ikkinchi ustun 2/6, uchinchi ustun 3/6 qismini egallaydi.

`<FRAMESET COLS = "100, 25%, *, 2*">`.

`<FRAME>` tegi alohida fayllarni belgilaydi, bu teg `<FRAMESET>` va `</FRAMESET>` teglari juftligining ichida joylashishi lozim. **Masalan:**

```
<FRAMESET ROWS = "*", 2*">
```

```
<FRAME>
```

```
</FRAME>
```

```
</FRAMESET>
```

`<FRAMESET>` tegi berilganida qancha alohida freymlar belgilangan bo'lsa, shuncha freym teglarini yozish lozim.

Yuqorida keltirilgan parametrlar ishlatilgan misollarni ko'rib chiqamiz.

Misol 1.


```
<html>
```

```
<head>
```

```

<title>Freymlar </title>
</head>
  <frameset cols="150,*">
    <frame src="1.html">
    <frame src="2.html">
    <frame src="3.html">
    <noframes><p>Afsuski sizning brauzeringiz freymlarni tushunmaydi.
Brauzerning yangi versiyalaridan foydalaning </p>
    </noframes>
  </frameset>
</html>

```



Rasm 1.

Diqqat bilan HTML kodni va uning ekranda chiqargan natijasini tahlil qilish natijasidan ko'rinadiki, bu erda **<body>** va **</body>** teglari ishlatilmagan. Bu teglar orasida ekranda hosil qilinishi kerak bo'lgan barcha asosiy ma'lumotlar yoziladi, **<frameset>** tegi bo'lsa brauzerga oynani freymlarga ajratish haqida ma'lumot beradi. Yuqoridagi misolda biz **cols** parametrini ikkita qiymati bilan ishlatdik. Bu qiymatda **birinchi freym** uchun **150 piksel** joy **ikkinchi freym** uchun esa **qolgan joyning** hammasi ishlatilishi ko'rsatilgan. Misolda ko'rganimizdek **<frame>** teglari har bir freymni alohida e'lon qiladi va ularning xossalarini ko'rsatadi. Misolimizda biz qiymat sifatida **html** hujjatning manzilini qabul qiluvchi **src** parametrini ishlatdik. Bundan tashqari biz **<noframes>** va **</noframes>** teglaridan ham foydalandik. Bu teglar orasida yozilgan ma'lumot brauzer tomonidan freym texnologiyasi tushunilmagan holatda ekranda paydo bo'ladi. Berilgan o'lchamda bo'lingan freymlar chegarasini foydalanuchi tomonidan o'zgartirish imkoniyati mavjud. Buning uchun **splitter** deb nomlanuvchi chegara chizig'idan sichqoncha ko'rsatkichi bilan ushlab surish kifoya. Asosiy brauzer oynasini bitta ustunda joylashgan ikkita freym va qolgan joyni egallovchi uchinchi freym ko'rinishida bo'lishimiz uchun quyidagi html kodni yozishimiz kerak.

Misol 2.

```


<html>
  <head><title>uchta freym</title></head>
  <frameset cols="20%,*">
    <frameset rows="*,*">
      <frame src="1.html">
      <frame src="2.html">
    </frameset>
  </frameset>

```

```

<frame src="3.html">
</frameset>
</html>

```



Rasm 2.

Frame tegi va uning parametrlari (atributlari).

1. NAME
2. PAME
3. SRC
4. FRAMEBORDER=YES/NO (Faqat IE lar uchun)
5. MARGINWIDTH
6. MARGINHEIGHT
7. NORESIZE
8. SCROLLING

<frame> tegi alohida freymlar xossalarini o'rnatish uchun ishlatiladi. Endi biz **<frame>** tegida ishlatiladigan parametrlar (atributlar) bilan tanishib chiqamiz.

- **name parametri** freymning nomini ko'rsatishda ishlatiladi, buni **id parametri** bilan almashtirmaslik kerak. **NAME** parametri berilgan freymga gipermurojaat sifatida ishlatish mumkin bo'lgan freymning nomini belgilaydi. **Masalan:**

```
<FRAME SRC="sample.html" NAME="frame1">
```

frame1 deb nomlangan ushbu freymga gipermurojaat qilinishi mumkin. Masalan:

```
<A HREF="other.html" TARGET="frame1">
```

frame1 freymiga **other.html** faylini yuklash uchun shu erga sichqoncha kursori bosiladi.

- **pame parametri** yordamida berilgan nom o'zak freymdan tashqarida joylashgan boshqa bir hujjatni yuklaganda teglarda gipermurojaat sifatida ishlatiladi.

- **src parametri** freymda tasvirlanishi kerak bo'lgan HTML hujjatning URL manzilini berishda ishlatiladi. Odatda bunday manzil sifatida asosiy hujjat qaysi katalogda bo'lsa, usha erda joylashgan HTML - faylning nomidan foydalaniladi.

Masalan:

```
<FRAMESET SRC="sample.html">
```

Zero, freymni tasvirlashda berilgan HTML fayl to'liq HTML hujjat bo'lishi kerak, ya'ni u HTML, HEAD, BODY va boshqalarga ega bo'lishi lozim. Agar freymdan tasvirni aks ettirishda foydalanilsa, **unda:**

```
<FRAME SRC="http://www.bhv.ru/exampl.gif">
```

- **frameborder parametri** freym chegara hoshiyalarining bo'lish yoki bo'lmasligini ko'rsatadi. Parametr qiymati **0** yoki **1** sonlari bo'lishi mumkin. Jimlik

bo'yicha parametr **1** qiymat qabul qiladi va freym chegara hoshiyasi ko'rinuvchi bo'ladi. Agar qiymat **0** freym chegarasi hoshiyasi ko'rinmaydi.

MARGINWIDTH va MARGINHEIGHT parametrlari (atributlari)

MARGINWIDTH va MARGINHEIGHT atributi freym xoshiya (chegara) kengligini belgilaydi. Atributlar qiymatlari piksellarda beriladi. **Masalan:**

```
<FRAME MARGINWIDTH = "5" MARGINHEIGHT = "7">
```

Bu erda freym yuqori va pastda 5 piksel, o'ng va chap tomonlaridan esa 7 piksel chegaraga ega. Ishlatilishi mumkin bo'lgan eng kichik qiymat 1 pikselidir. Demak,

- **marginwidth parametri** freymning gorizontal bo'yicha o'lchamini piksellarda beradi.

- **marginheight parametri** freymning vertikal bo'yicha o'lchamini piksellarda beradi.

- **noresize parametri** freym o'lchamlarining o'zgarmasligini ta'minlaydi. Ya'ni, NORESIZE parametri (atributi) foydalanuvchi tomonidan freym o'lchami o'zgartirilishining oldini olishda ishlatiladi. Agar biz bu parametрни qo'llasak foydalanuvchi tomonidan freym chegaralarini o'zgartirish imkoni bo'lmaydi. Bu parametrda qiymat yo'q. **Masalan:**

```
<FRAME NORESIZE>
```

- Tabiiyki NORESIZE atributining bitta freymga nisbatan qo'llanilishi boshqa freymlar o'lchami o'zgartirilishining ham oldi olinishiga sabab bo'ladi

- **scrolling parametri** foydalanuvchiga freymdagi o'tkazish yo'lakchasi (lineyka prokrutki)ni boshqarish imkonini beradi. **Uning sintaksisi:**


```
<FRAME SCROLLING= "YES/ NO/ AVTO"> ko'rinishga ega.
```

Qiymat sifatida quyidagi **auto**, **yes**, **no** kalit so'zlaridan bittasini qabul qiladi. Jimlik bo'yicha **auto** qiymati qabul qilingan bo'ladi, bu esa freymdagi ma'lumotlar tasvirlanish sohasiga joylashmagan vaqtda utkazish yulakchasi paydo bo'lishini bildiradi. **yes** qiymati esa freymdagi ma'lumot tasvirlanish sohasiga sig'ishi yoki sig'masligidan qat'iy nazar o'tkazish yo'lakchasi doimo chiqib turishini bildiradi. **no** qiymati esa freymda o'tkazish yo'lakchasining chiqishini umuman taqiqlaydi.

Biz yuqoridagi misollarimizda freymlar brauzer oynasini alohida bo'laklarga to'liq bo'lganini ko'rdik. Lekin freymning shunday turi ham mavjudki, ularni HTML hujjatga xuddi grafik tasvir joylashtirganday joylashtirish mumkin. Bunday turdagi freymnlarni HTML hujjatga joylash uchun **<iframe>** tegi ishlatiladi. Grafik ob'ekt joylashtirish tegidan farqli ravishda bu teg o'zining yopiluvchi **</iframe>** tegiga ega.

Misol 3.

```
<html>
<head><title>Freymlar </title>
</head>
<body>
<p>Matn va <iframe src="3.htm"></iframe>freym</p>
</body>
</html>
```



Rasm 3.

Freymlar orasidagi o'zaro ta'sir

Freymlar bilan ishlayotganda foydalanuvchi uchun qo'lay bo'lgan hujjat yuklash sxemasini yaratish mumkin. Freymlar orasidagi o'zaro aloqa hujjatlarni boshqa freymdagi buyruqlar yordamida aynan tanlangan freymga yuklash imkonini berishidir. Bu maqsadda <A> tegining **TARGET** atributidan foydalaniladi. **TARGET atributi** ushbu gipermurojaat ko'rsatayotgan hujjat yuklanuvchi freym yoki brauzer oynasi nomini belgilaydi. O'zgartirilmagan holda ushbu parametr yo'q bo'lganda hujjat joriy freym yoki oynada yuklanadi. Freym nomi sifatida mavjud darcha yoki freym nomi berilishi yoki bo'lmasa yangi oyna ochish uchun yangi nom berilishi mumkin. 4 ta zaxiradagi nomlar bor. **Ular:**

_blank, _self, _top, _parent. Bulardan tashqari “_” belgisi bilan boshlanuvchi har qanday nomdan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

TARGET=“_blank” – hujjatning yangi oynaga yuklanishini ta'minlaydi. Bu oyna nomga ega bo'lmasligi tufayli unga boshqa hujjatni yuklashning iloji bo'lmaydi.

TARGET=“_self” dan foydalanilganda hujjat joriy freymga yuklanadi.

TARGET=“_top” hujjatning butun darchaga yuklanishiga sabab bo'ladi.

TARGET=“_parent” hujjatning joriy freymning freym-ota-onasi tomonidan egallangan sohasiga yuklanishiga olib keladi.

Tarkibi “A” freymiga yuklangan **frame_a.html** faylining bittagina **test.html** fayliga **TARGET** parametrining turli qiymatlariga ega 6 ta gipermurojaat mavjud

Nazorat savollar:

1. Freymli strukturaga ega bo'lgan hujjatlar qanday teglar yordamida yaratiladi?
2. Alohida freymlar qanday teglar yordamida yaratiladi?
3. Agar sizning brauzeringiz freymnlarni tushunmasa, ekranda qaysi teglar orasida yozilgan ma'lumot tasvirlanadi?
4. <frameset> tegining asosiy vazifasi nima?
5. Cols parametri vazifasi.
6. Rows parametri vazifasi.
7. Freymlar qanday ishlaydi?
8. Hujjatda linkni freymga bog'lashni tushuntiring?
9. Ob'ekt nima va qanaqa ob'ektlarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Web dasturlash fanidan ma`ruza matnlari” M.S. Sharipov. Urgench, 2007
2. “Web-dasturlash.” Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash. Sahifalarda animasiyalar hosil qilish. (2 soat)

11 – ma`ruza

Reja:

1. HTML-formalar. Forma elementlari
2. Matn kiritish maydoni
3. Qalqib chiquvchi menyu

Kalit so'zlar:

formalar (<FORM>), ob'ektlar, <INPUT>, <SELECT>,<TEXTAREA>

HTML-formalar

Formalar Veb dasturlashda foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlarni tartibga solish uchun qo'llaniladi. Forma elementlari to'ldirilgandan keyin undagi ma'lumotlar serverdagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi dasturga yuboriladi. Ko'p sonli jo'natilayotgan ma'lumotlar jo'natish tugmasi bosilgandan so'ng serverda joylashgan Common Gateway Interface (CGI) yordamida yoki maxsus fayl orqali qayta ishlanadi. Shu tariqa foydalanuvchi Internet orqali Web-server bilan birgalikda ishlaydi.

Formaning berilishi —FORM elementi

FORM elementi hujjatni ma'lum bir formaga soladi va forma elementlari teglarini boshqa teglardan ajratib turadi. <FORM> bir nechta <INPUT> yoki shu kabi boshqa teglar ketma ketligidan tashkil topadi. Ular <FORM> va </FORM> teglari orasiga joylashtiriladi. Formada usuldan (method), formaga kiritilgan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun holatlar (action) mavjud. Usul (GET yoki POST) formaga kiritilgan ma'lumotlar qay tarzda serverga jo'natilish usulini belgilasa, holat esa serverdagi qaysi dasturga yuborilish URL (Uniform Resource Location) manzilini ifodalaydi.

<FORM METHOD="post" ACTION="<URL>">

Formaning boshqaruv elementlari —<INPUT> tegi

Ushbu teg formaning qaysi nuqtasiga ma'lumot kiritilishini belgilaydi. U foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlarni formaga keltiradi. Bular matn kiritish maydoni, ro'yxatlar, rasmlar yoki tugmalar bo'lishi mumkin. Maydon tipi TYPE atributi yordamida aniqlanadi.

TYPE=text atributi

Agar foydalanuvchi uncha katta bo'lmagan matn kiritisa (bir yoki bir nechta satr), <INPUT> tegidan foydalanadi va TYPE atributiga text qiymati o'zlashtiriladi. Standart holat uchun bu qiymatni berish muhim emas. Bundan tashqari maydonni nomlash va unga murojaat qilish uchun NAME atributi ham beriladi.

Sizing ismingiz <INPUT NAME=Name SIZE=35>

Foydalanish mumkin bo'lgan yana uchta qo'shimcha atributlar mavjud. Birinchisi MAXLENGTH deb ataladi, u foydalanuvchi kiritayotgan matn maydoni maksimum uzunligini belgilaydi. Standart bo'yicha bu qiymat chegaralanmagan. Ikkinchi atribut SIZE hisoblanadi, u esa matn maydonini ko'rinib turuvchi qismini belgilaydi. Standart bo'yicha uning qiymati brauzerga bog'liq bo'ladi. Agar MAXLENGTH qiymati SIZE qiymatidan katta bo'lsa, brauzer ma'lumotni oynaga moslashtiradi. So'nga qo'shimcha atribut matn maydonini boshlang'ich qiymatini belgilovchi VALUE dir.

TYPE=checkbox atributi

HTML formada mustaqil belgilagich (bayroqcha) dan foydalanish uchun <INPUT>tegining atributiga TYPE=checkbox ni o'zlashtirish kerak. Formaga bog'liq ravishda foydalanuvchi bir yoki bir nechta belgilagichlarni belgilashi mumkin. Agar <INPUT> tegi atributi bilan CHECKBOX qiymati qo'llanilsa, u bilan birga NAME va VALUE atributlari ham qo'llanilishi kerak. NAME atributi ushbu ma'lumot kiritish ob'ektining nomini ifodalaydi. VALUE atributida ushbu maydonning qiymati ko'rsatiladi.

```
<BR>Rossiya<INPUT NAME="Davlat" TYPE=checkbox  
VALUE="Rossiya">  
SNG<INPUT NAME="Davlat" TYPE=checkbox  
VALUE="SNG">
```

Ba'zi hollarda ushbu maydon belgilangan holda qo'llanilishi ham mumkin. Bunday hollarda <INPUT> tegida CHECKED atributi qo'llanilishi kerak.

TYPE=radio atributi

Ba'zan bir nechta qiymatlar orasidan birini tanlashga to'g'ri keladi. Bunday hollarda formada <INPUT> tegi bilan birga TYPE=radio atributi qo'llaniladi. Agar <INPUT> tegi atributi bilan ushbu qiymati qo'llanilsa, u bilan birga NAME va VALUE atributlari ham qo'llanilishi kerak. NAME atributi ushbu ma'lumot kiritish ob'ektining (tugma) nomini ifodalaydi. VALUE atributida ushbu maydon ning qiymati ko'rsatiladi..

```
<BR>Erkak jinsi <INPUT NAME="Jins" TYPE=radio  
VALUE="Erkak">  
Ayol jinsi <INPUT NAME="Jins" TYPE=radio  
VALUE="Ayol">
```

TYPE=image atributi

Formaning tarkibiga qarab ba'zan unda joylashgan rasmning ustiga sichqonchani bosish bilan undagi ma'lumotlarni jo'natishga to'g'ri kelib qoladi. Buning uchun <INPUT> tegi TYPE=image atributi bilan qo'llaniladi. Foydalanuvchi rasm ustiga sichqoncha kursorini bossa, aynan shu erdagi ekran koordinatalarini brauzer saqlab qoladi. So'ng formaga kiritilgan ma'lumotlarni "qayta ishlaydi". Agar <INPUT> tegi image atributi bilan qo'llanilsa, u bilan birga NAME va SRC atributlari ham qo'llanilishi kerak. NAME maydonning nomini belgilaydi. SRC atributi esa rasm joylashgan manbaning URI manzilini beradi. ALIGN atributi qo'shimcha hisoblanadi va u ham ba'zan tegi bilan qo'llaniladi.

```
<BR>Nuqtani tanlang <INPUT TYPE=image NAME=point SRC=image.gif>
```

TYPE=password atributi

Agar formada parollardan foydalanish kerak bo'lib qolsa, TYPE atributi qiymatiga password (TYPE=password) ni o'zlashtiriladi. Ushbu tipdan foydalanish kiritilayotgan ma'lumotni oshkor bo'lmagan holda ko'rsatishni ta'min etadi. Shu sabab, kiritilgan ma'lumot ochiq kanal orqali jo'natiladi va ushbu ma'lumot tutib olinishi mumkin.

```
<BR>Nomingiz<INPUT NAME=login>Parol  
<INPUT TYPE=password NAME="So'z">
```

TYPE=reset atributi

Bazan foydalanuvchi formani to'ldirish vaqtida, ularni boshdan to'ldirishga to'g'ri keladi. Ushbu holda Reset tugmasi mavjud bo'lib, bu tugmaning bosilishi formani dastlabki, kirish holatiga olib keladi (formani "tozalaydi"). Reset tugmasini tashkil qilish uchun <INPUT> tegi atributiga TYPE=reset o'zlashtiriladi. Agar formada reset atributi qo'llanilsa, <INPUT> tegiga VALUE atributini qo'shimcha qilish mumkin.

Ushbu atribut tugmadagi yozuvni ifodalaydi.

```
<INPUT TYPE=reset VALUE="Formani tozalash ">
```

TYPE=submit atributi

HTML forma da foydalanuvchi ma'lumot kiritish jarayonini yakunlash jarayoni mavjud. Buning uchun <INPUT> tegining atributiga TYPE=submit qiymat o'zlashtiriladi. Agar formada <INPUT> tegi submit atributi bilan qo'llanilsa, unga qo'shimcha ravishda ikkita atributdan foydalanish mumkin: NAME va VALUE. NAME atributi maydonning nomini ifodalaydi. VALUE atributi — Submit tugmasi matnini ko'rsatadi.

```
<INPUT TYPE=submit VALUE="Xabarni jo'natish ">
```

TYPE=hidden atributi

Yashirin maydon. INPUT tegini TYPE=hidden atributi bilan qo'llanilishi foydalanuvchiga ma'lum bo'lmagan NAME va VALUE atributlaridagi qiymatlarni jo'natishga imkon beradi.

<TEXTAREA> – ko'p satrli matn kiritishni tashkil etish tegi Ba'zan formada ko'p satrli matnlarni kiritish talab etiladi. Buning uchun <TEXTAREA> tegi yordamida bir necha satrdan iborat bo'lgan matn maydoni tashkil etish mumkin. Ushbu teg uchta atribut bilan ishlatiladi: COLS, NAME va ROWS.

Atribut COLS – Maydonning ustunlari (belgilar soni) sonini belgilaydi.

Atribut NAME – Maydonning nomini belgilaydi.

Atribut ROWS – Maydonning ko'rinuvchi satrlari sonini belgilaydi.

```
<TEXTAREA NAME=mavzu COLS=38 ROWS=3></TEXTAREA>
```

<SELECT>- formada ro'yxatdan foydalanish tegi

Agarda forma mukammal bo'lsa, gohida unda harakatlanuvchi ro'yxat ham qo'llaniladi. Buning uchun SELECT tegidan foydalaniladi. Ro'yxat bo'limlarini aniqlash uchun <OPTION>tegidan foydalaniladi. <SELECT> tegi muhim bo'lmagan uchta atributni qo'llab quvvatlaydi: MULTIPLE, NAME va SIZE.

MULTIPLE atributi – Bir vaqtning o'zida bir nechta variantni tanlash imkonini beradi.

NAME atributi – Ob'ekt nomini ifodalaydi.

SIZE atributi – Ro'yxatni ko'rinuvchi satrlari sonini ifodalaydi. SIZE > 1 bo'lgan holda brauzer oddiy ro'yxatni ko'rsatadi.

Formada <OPTION> tegi faqat <SELECT> teglari orasida qo'llaniladi. Parametrlari: SELECTED va VALUE.


SELECTED atributi – Dastlaki holatda ushbu element tanlangan ekanligini bildiradi.

VALUE atributi – Ro'yxatga o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan qiymatni ifodalaydi.

```
<BR>Tanlash
```

```
<SELECT NAME="Tanlash">
```

<OPTION>Variant 1
<OPTION>Variant 2
<OPTION VALUE="Variant 3">Variant 3
<OPTION SELECTED>Variant 4
</SELECT>



Nazorat savollar:

1. Formani vazifasini izohlab bering?
2. Freymlar qanday ishlaydi?
3. Hujjatda linkni freymga bog'lashni tushuntiring?
4. Ob'ekt nima va qanaqa ob'ektlarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. "Web dasturlash fanidan ma'ruza matnlari" M.S. Sharipov. Urgench, 2007
4. "Web-dasturlash." Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: HTML tilida ro'yxatlar yaratish. Ro'yxat elementlari. (2 soat)

12 – ma`ruza

Reja:

1. Ro'yxatlar haqida umumiy tushuncha.
2. Markirlangan ro'yxatlar.
3. Nomerlangan (tartiblangan) ro'yxat.
4. Izohlovchi ro'yxatlar.

Tayanch iboralar

Ro'yxat, markirli ro'yxat, nomerli ro'yxat, izohlovchi ro'yxat.

Ro'yxatlar haqida umumiy tushuncha

HTML hujjatda ma'lumotlarni qulay shaklda tasvirlash maqsadida ro'yxatlar va jadvallar tashkil qilingan. Ro'yxatlar elementlarini nuqtalari bo'yicha tartiblasa, jadvallar esa ma'lumotlarni satrlar va ustunlar bo'yicha joylashtiradi. Ro'yxatlardan to'g'ri foydalanish katta hajmli ma'lumotlarning o'qilish qulayligini oshiradi.

Ro'yxatlarni quyidagi uchta holatda qo'llash maqsadga muvofiq:

1. Bir jinsli ma'lumotlarni biror belgilar bo'yicha sinflarga ajratish;
2. Katta hajmli ma'lumotlarni abzats bilan tasvirlashda ularni o'qish qiyinlashsa;
3. Biror bir jarayonni tasvirlashda.

Quyidagi


misolga e'tibor bering.

Misol 1

```
<html>  
<body>
```

Mening qiziqishlarim.

```
<ul>  
<li> futbol  
<li> regbi  
<li> musiqa  
<li> tarixiy kino  
</ul>  
</body>  
</html>
```



Rasm 1.


Bu erdan ko'rinadiki **ro'yxatlar** ma'lumotlarni oson va tushunarli o'qilishini ta'minlaydi. Ro'yxatlar asosan 3 ta asosiy tiplarga bo'linadi. Bular: markirlangan, nomerlangan va aniqlovchi ro'yxatlar. Bularan tashqari boshqacha **tipli ro'yxatlar** ham mavjud, ammo ko'p qo'llaniladiganlari biz sanagan uchtasidir. Yuqorida biz sanab o'tgan tiplar bir biridan nomerlash usullari va tuzilishi bilan farq qiladi.

Markirlangan ro'yxatlar.

Ko'pchilik hollarda nomerlangan yoki markirlangan ro'yxatlardan foydalaniladi. Bunday ro'yxatlarda har bir punkt kichik piktoprogramma bilan boshlanadi. **Markirlangan ro'yxatlar** va teglari yordamida beriladi.

Misol 2

```
<html>
<head><title>Markirlangan ro'yxatlar </title></head>
<body>
<ul>
<lh><b>Kompyuter avlodlari </b></lh>
<li> I - avlod
<li> II - avlod
<li> III - avlod
<li> IV - avlod
</ul>
</body>
</html>
```



Rasm 2.

Bu erda <lh> va </lh> teglari orasida **ro'yxat sarlavhasi** yozilgan. Barcha va teglari va markirlangan teglar orasiga joylashgan bo'lishi shart. tegi **type** parametriga ega va biz bu parametr qiymatlari bilan tanishib chiqamiz. Bu parametr yordamida ro'yxatda hosil qilinadigan ro'yxat elementlari oldidagi **markerlar tipi** aniqlanadi parametr qiymati sifatida quyidagi uchta qiymatlardan foydalanish mumkin:

1. **disc** - bu qiymat brauzerga markerlarni kichik qoraga bo'yalgan doira shaklidaligini ko'rsatadi.


2. **circle** - bu qiymat esa brauzerga makerning bo'yalmagan aylana shaklida bo'lishini bildiradi.

3. **square** - bu qiymat markerning kichik to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lishini bildiradi.

Bu qiymatlarni ko'rsatilgandek kichik harflar bilan yozish kerak.

Misol 3

```
<html>
<head>
<title> Markirlangan ro'yxat</title>
<body>
<ul>
<li type=circle> Birinchi punkt
<li type=disc> Ikkinchi punkt
<li type=square> Uchinchi punkt
</ul>
</body>
</html>
```



Rasm 3.

Ta'kidlab o'tish kerakki u yoki bu hosil qilinadigan markerlarni bir xilligi hamma vaqt ham bir xil bo'lavermaydi. Brauzer turiga qarab har xil bo'lishi mumkin.


Nomerlangan ro'yxat

Nomerlangan ro'yxat markerlangan ro'yxatga o'xshaydi. Yagona farqi shundaki nomerlangan ro'yxatda har bir punkt oldiga grafik marker emas balki avtomatik ravishda ketma-ket nomerlar yoki harflar joylashtiradi.

Nomerlangan ro'yxat `` va `` teglari yordamida beriladi, ro'yxatdagi punktlar esa `` bilan aniqlanadi. Boshlang'iz pozisiya nomer 1 dan boshlanadi.

Misol 4

```
<html>
<body>
  <ol type=1,2,3...>
    <lh><b> O'quv-uslubiy majmua hujjatlari</b></lh>
    <li> Ma`ruzalar to'plami
    <li> Kalendar-tematik reja
    <li> Baholash mezonlari
    <li> Glossariy
    <li> Namunaviy o'quv dastur....
  </ol>
</body>
</html>
```




Rasm 4.

Ro'yxatda boshlang'ich nomerini oldindan aniqlash imkoniyati mavjud Buning uchun tegida start parametri mavjud.

Buni quyidagi misolda ko'rib chikamiz:

Misol 5

```
<html>
  <head>
    <title>Namuna </title>
  <body>
    <ol start=5>
      <li>Beshinchi
      <li>Oltinchi
      <li value=10> O'ninchi
      <li>O'n birinchi
    </ol>
  </body>
</head>
</html>
```



Rasm 5.

Biz ko'p bosqichli ro'yxatlarni ham tuzishimiz mumkin. Buning uchun markerlangan va nomerlangan elementlarni aralashtiramiz. Quyidagi misolni ko'ramiz:


Misol 6

```
<html>
<head>
  <title>Aralash ro'yxat </title>
```

```

</head>
<body>
  <ol>
    <li>Bir
    <ol>
      <li>bir
      <li>ikki
    </ol>
    <li>Ikki
  </ol>
  <ul>
    <li>bir
    <li>ikki
  </ul>
</ol>
</body>
</html>

```



Rasm 6.

Ko'pgina grafik brauzerlarda tartiblangan ro'yxatlarning qo'shimcha atributlarini qo'llash mumkin bo'ladi. Ularning yordamida tartiblashni ko'rinishini tanlash mumkin bo'ladi.

Teg nomi	Ro'yxat turi
<ol type="A">	Katta harflardan tuzilgan ro'yxat
<ol type="a">	Kichik harflardan tuzilgan ro'yxat
<ol type="I">	Rim (Katta) harflaridan tuzilgan ro'yxat
<ol type="i">	Rim (Kichik) harflaridan tuzilgan ro'yxat
<ol type="1">	Arab raqamlaridan tuzilgan ro'yxat
<ul type="disc">	Doiralardan tuzilgan ro'yxat
<ul type="square">	Kvadratlardan tuzilgan ro'yxat
<ul type="circle">	Aylanalardan tuzilgan ro'yxat

Izohlovchi ro'yxatlar

Izohlovchi ro'yhatlar markirlangan va nomerlangan ro'yhatlar kabi ko'p ishlatilmasa ham ba'zi holatlarda foydali. Izohlovchi ro'yxatlarda har bir punkt ikkita qismdan iborat. Ikkinchi qismida birinchi qism haqida qo'shimcha ma'lumot beriladi. Shuning uchun ham aniqlovchi ro'yxatlar boshqa ro'yxatlarga qaraganda boshqacha


ko'rinishga ega. Uning har bir punktini tasvirlash uchun ikkita teg ishlatiladi. <di> tegi yordamida punktning birinchi qismi <dd> tegi yordamida esa ikkinchi ma'lumot keyingi satrdan hosil qilinadi. Bu erda ikkinchi ma'lumotni biz aniqlovchi deb ataymiz.

Izohlovchi ro'yhatni <DL> ochuvchi va </DL> yopuvchi tegi yordamida xosil qilinadi. Aniqlovchi ro'yhat nomi <DT> tegidan so'ng yoziladi va uni izohlovchi matn esa <DD> tegidan so'ng kiritiladi. <DL> tegi qo'shimcha o'lchamlarga ega emas.

Biz bu tegni quyidagi misolda tushunib olamiz:

Misol 7

```
<html>
<head>
<title>Izohlovchi ro'yhatlar</title>
</head>
<body>
  <dl>
    <lh><b>Mashhur kishilar: </b></lh><br>
      <di><b>Al-Beruniy </b>
      <dd><i>Qomusiy olim </i>
      <dt><b>Ibn-Sino </b>
      <dd><i>Tibbiyot sohasida shug'ullangan</i>
  </dl>
</body>
</html>
```



Rasm 7.

Izohlovchi ro'yhat:

```
<DL>
<DT> Izohlanuvchi asosiy so'z yoki jumla
<DD> Izoh beruvchi matn
</DL>
```

Formatlangan matnlarni qo'llash

<pre>, </pre> teglari formatlangan, tayyor holga keltirilgan matndir. Uning <p> dan farqi shundaki, <pre> elementi hamma bo'sh joy va qator tashlashlarni «tushunadi». Ya'ni bu elementlar o'rtasiga matn qanday joylashtirilsa, shu holatda brauzer oynasida ko'rinadi.

<pre> va </pre> teglari yordamida hech qanday interpretatsiyasiz yozilgan ma'lumotni xuddi shunday qilib ekranga chiqarish mumkin. Natija jadval singari samarali bo'lmasa ham, Ko'pchilik kishilar ularning farqini sezishmaydi. Bunda jadvalning turini

chiqarib bo'lmaydi. Oldidan formatlangan matnni probellar va tartiblash orqali yozish mumkin.

```
<pre>
    Kurs      gurux  talaba soni
    1         a      21
    1         b      20
    1         c      24
    1         d      23
</pre>
```

Misol 8

```
<html>
<head><title> Formatlangan </title></head>
<body>
  <pre>
    <b> Nomi           Komanda           Yutuqlar/Mag'lubiyat   Ochko
  </b>
    Xeppi             Sintsinnati       16 – 2                 2,73
    Nemo              Los-Anjelos       19 – 8                 2,94
    Engrius           Atlanta           24 – 6                 2,21
  </pre>
</body>
</html>
```



Rasm 8.

Nazorat savollari:

1. Ro'yxatlar necha turga bo'linadi?
2. Tartiblangan (nomerlangan) ro'yxatlarda qanday teglar ishlatiladi?
3. Ro'yxatlarning asosiy qoidalari nimalardan iborat?
4. Markirlangan ro'yxatlarda qanday teglar ishlatiladi?
5. Oldindan formatlangan matnlarni qo'llash qanday teglar asosida bajariladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Web dasturlash fanidan ma'ruza matnlari" M.S. Sharipov. Urgench, 2007
2. "Web-texnologiyalar". Xaitov F.N., Sattarov A.R., Tangirov X.E.. Uslubiy qullanma. Jizzax, 2005

3. “Web-dasturlash.” Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010

Mavzu: Front Page dasturi haqida asosiy ma'lumotlar. Dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. (2 soat)

13– ma`ruza

Reja:

1. Front Page dasturi haqida umumiy tushunchalar
2. Front Page dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.
3. Front Pagening ish rejimlari.
4. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish.

1. Microsoft Front Page dasturi haqida umumiy tushunchalar

Faraz qilamizki, siz biror bir tashkilotning mas'ul xodimisiz va sizning asosiy vazifangiz ushbu tashkilot haqida Internet tizimiga ma'lumot etkazib berish hamda shu yo'l bilan tashkilotingizga keladigan mijozlarning sonini iloji boricha ko'paytirish. Demak, sizning oldingizda Internetda tashkilotingiz haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni aks ettiradigan sahifa yoki boshqacha aytganda Web-sayt yaratish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Sizda esa bunday ishlarni qilish uchun bilim ham, tajriba ham etarli emas. Lekin rahbariyat sizning oldingizga bunday sahifani tezda yaratish va uni Internetga joylashtirish kabi vazifani ko'ndalang qilib qo'ygan. Nima qilish kerak va qanday qilib tegishli Web-saytni qisqa muddatlarda ishga tushirish mumkin? Xuddi shunday holatlarda sizga Microsoft Front Page amaliy dasturi yordam beradi.

Bu masalani hal qilishdan avval World Wide Web (yoki Web) nima ekanligini bilib olishimiz kerak bo'ladi. World Wide Web Internet tizimi bilan ishlashni ancha osonlashtiradi va u Tim Berners Li tomonidan 1992 yilda Internet resurslarini ko'rib chiqishni osonlashtirish maqsadida yaratilgan edi. Internet resurslarini ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan programmalar Web-brouzerlar deb ataladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ko'pincha Web deganda World Wide Web tushuniladi, lekin Microsoft Front Page bilan ishlayotganda Web tushunchasi Web-sayt uchun ishlab chiqilgan Web-sahifalar to'plami sifatida tushuniladi.


World Wide Web hosil qilish texnologiyasi asosiga gipermatnlar tuzish asos qilib olingan. Gipermatn deganda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan sahifalar majmuasi tushuniladi. Bunday tuzilishdagi sahifalar to'plamini uzatish, qabul qilish va ularni boshqarish uchun HTTP (Hyper Text Transfer Protocol- Giper matnlarni uzatish protokoli) tushunchasi ishlatiladi va World Wide Web ham xuddi shu protokol vositasida faoliyat ko'rsatadi. Agarda World Wide Web asosini HTTP tashkil qilsa, Web sahifaning o'zi HTML (Hyper Text Markup Language - Gipermatnli hujjatlarni belgilaydigan programma tili) ga asoslangan. HTML tilida gipermatnli xujjatlarning tuzilishi va formatini aniqlash uchun TEG deb nomlangan buyruqlar majmuasi ishlatiladi. Web-brouzerlar ushbu buyruqlarni tegishli matnlarga yoki grafik tasvirlarga aylantiradilar hamda ularning kompyuter ekranidagi tasvirlarini hosil qiladilar.

Bundan tashqari HTML tili giperko'rsatgichlar orqali Web-brouzerga boshqa sahifalarga o'tishni hamda ularning ma'nosini ekranda ko'rsatishni ham tashkillashtirib berishi mumkin. Microsoft Front Page dasturining asosiy oynasida HTML tugmachasi bosilgan holatda hosil bo'ladigan quyidagi rasmda HTML tilining bir qancha buyruqlarini ko'rib chiqishimiz mumkin:

Bu erda `<html>` buyrug'i HTML - hujjatning boshlanishini bildiradi, `<head>` buyrug'i esa Web-sahifa boshlanganini bildiradi, uning tugallanishi ham xuddi shu simvol bilan aniqlanadi. Body buyrug'i gipermatnini o'z ichiga qamrab oladi, `<body>` `</body>` buyruqlari esa Web –sahifani aniqlab beradigan gipermatnni o'z ichiga qamrab oladi. Hujjatning xuddi shu qismi brouzer tomonidan kompyuter ekranida ko'rsatiladi.

<body> elementining boshlang'ich va oxirgi teglari orasida Web –sahifaning dizaynini aniqlab beradigan barcha elementlarni joylashtirish mumkin.

Agarda fonning rangini o'zgartirish kerak bo'lsa, uning rangi quyidagi buyruq orqali beriladi **bgcolor="#FFD700"** – bu misolda sahifa foni rangi sifatida tillarang tanlanadi. Sahifada gorizontal chiziq chizish <HR> buyrug'I orqali amalga oshiriladi. Ko'rinib turibdiki, HTML tilining bir qancha buyruqlari bo'lib, ular yordamida xohlangan turdagi sahifalarni osonlik bilan yaratish mumkin. HTML tilining yana bir qancha buyruqlari bo'lib, ular xilma-xil ishlarni amalga oshirishga va Web-sahifani chiroyli ifodalashga yordam beradi. Hozirgi paytda bir qancha Web-sahifalarda skript deb nomlangan maxsus programmalar ishlatiladi. Ular Microsoft VBScript yoki JavaScript tillarida yozilishlari mumkin. Web-sahifalarning kodlariga joylashtirilgan bunday «mini-programmalar» orqali formatlashtirishni, multimediani ko'rishni yoki tasvirlar chiqarishni osongina boshqarish mumkin. Hozirgi paytda skriptlarni boshqarishning eng kuchli vositasi sifatida DHTML (Dinamik HTML) xizmat qiladi va u yordamida animatsiya va shunga o'xshash bir qancha xilma-xil ishlarni tashkil qilish mumkin.



Ko'rib turganingizdek, HTML tilidan foydalangan holda Web-sahifa hosil qilish uchun ancha malaka, vaqt va mehnat talab qilinadi. Bu ishni osonlashtirish uchun Front Page amaliy programmasini ishlatish mumkin, chunki bu holda sizga HTML tilini o'rganishga, skriptlardan foydalanishni bilishga yoki DHTML tilini o'rganishga hojat qolmaydi.

Front Page amaliy programmasi yordamida Web-sahifaga joylashtirilishi kerak bo'lgan matnni osonlik bilan terishingiz, rasmlarni joylashtirishingiz, ovoz effektlarini o'rnatishingiz, skriptlar yoki DHTML tili programmalarini yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan xilma-xil effektlarni amalga oshirishingiz mumkin bo'ladi. Demak, Front Page amaliy programmasi vositasida World Wide Web uchun mo'ljallangan turli xil Web-sahifalar hosil qilishingiz va ularni Internet tarmog'iga joylashtirishingiz mumkin.

Endi Web-sahifa va Web-sayt degan atamalarning ma'nosiga va bir-biridan farqiga biroz to'xtalib o'tamiz. Web-sayt (yoki Web-tugun) bir biri bilan ma'no va mohiyati jihatidan bog'liq bo'lgan Web-sahifa va fayllar to'plamidir.

Ko'pincha Web-saytlar biror bir mavzuga bag'ishlangan bo'lib, firma, kompaniya, tashkilot yoki biror bir insonga tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Front Page programmasida masterlar deb nomlangan dasturlar bo'lib, ular Web-saytlarni va Web-sahifalar ko'rinishidagi shablonlarni qadamba qadam tuzishga hamda sozlashtirishga imkon beradilar. Bu xildagi masterlar va shablonlar xilma-xil turdagi Web-saytlarni hosil qilish uchun juda qulay.

Har bir Web-saytda asosiy yoki uy sahifasi (homepage) deb atalgan bir Web-sahifa bo'ladi va ushbu saytga kiruvchi barcha insonlar eng oldin xuddi shu sahifaga kiradilar. Keyinchalik ushbu sahifada joylashgan giperko'rsatgichlar va ko'rsatmalardan foydalanib, ular bu saytning boshqa sahifalariga yoki butunlay boshqa saytlarning sahifalariga ham kirishlari mumkin. Giperko'rsatgichlar orqali aniqlanadigan Web-sahifalar ushbu kompyuterda yoki Internet bilan ulangan istalgan kompyuterda bo'lishi mumkin.

Gipermatn Web-sahifada joylashgan biror bir matn bo'lagi yoki rasm bo'lib, agar u turtilsa, boshqa Web-sahifa ga yoki saytga o'tish amalga oshiriladi.

Uy sahifasi (homepage) eng yuqorida joylashgan bo'lib, undagi giperko'rsatgichlar istalgan Web-sahifaga o'tishni amalga oshirib beradi. O'z navbatida ushbu Web-sahifalardan boshqa sahifalarga o'tish ham xuddi shunday usuldan foydalangan holda osonlik bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday sahifalarning har birida boshqa sahifalarga va saytlarga bo'lgan murojaatlardan tashqari orqaga, bundan oldingi sahifaga yoki uy sahifasi (homepage) ga qaytishga imkon beradigan giperko'rsatgichlar ham bo'ladi.

Front Page programmasi yordamida osonlik bilan Internetda yoki intranetda joylashgan Web-saytlarni xosil qilish mumkin. Bunday Web-saytlar saytga kiruvchilar uchun uning sahifalarini ko'rishga imkon beruvchi kompyuterda ya'ni Web-serverda (Web-server) joylashadi. Lekin Web-saytni Front Page programmasi yordamida o'z kompyuteringizda ham tashkil qilishingiz va u tayyor bo'lgandan so'ng, uni Web-serverda joylashtirishingiz (nashr qilishingiz) mumkin.

Saytni joylashtirish uchun u joylashtiriladigan Web-serverni tanlash kerak bo'ladi. Ko'pchilik Internet-provayderlar (Internet Service Provider – ISP) Web-saytlar ni joylashtirish bo'yicha xizmat ko'rsatadilar (Web-xosting -Web-hosting). Bunda provayder Web-fayllarni saqlash uchun Web-serverda diskdan ma'lum miqdorda joy ajratadi va tegishli xizmatni ko'rsatadi. Kichik va oddiy Web-saytlar uchun bu albatta etarli, lekin katta va murakkab Web-saytlar uchun alohida server (dedicated server) ajratgan maqsadga muvofiq, chunki bunda katta hajmdagi disk hajmini ishlatish mumkin bo'ladi. Bu esa ko'proq miqdordagi ma'lumotlarni joylashtirish va tezroq ishlaydigan qurilmalarni ishlatish imkonini beradi. Lekin saytni joylashtirishning qanday usulini tanlaganingizga qaramay bir muhim savolga javob topish kerak bo'ladi: Server Front Page Server Extentionsni ishlatish imkoniyatiga egami yoki yo'qmi? Chunki Front Page programmasining imkoniyatlarini amalga oshiruvchi dasturlar xuddi shu Front Page Server Extentions dasturiga mansub bo'ladi. Front Page programmasini qo'llab-quvvatlaydigan Web-xostlar va provayderlar ro'yxatini quyidagi Internet saytidan olish mumkin:


microsoft.saltmine.com/frontpage/wpp/list

Hosil qilinadigan Web-saytni tuzishdan avval u nimalardan iborat bo'lishligini aniqlash masalasini hal qilish uni rejalashtirish deb ataladi. Buning uchun avvalo bu Web-sayt nima uchun va qanday maqsadda tashkil qilinayotganini aniqlab olinadi. Masalan:

- Tashkilot ishlab chiqarayotgan Mahsulotlar yoki xizmatlar bilan ko'pchilikni tanishtirish uchun;
- Mahsulot yoki xizmatlarni sotish uchun mijozlar topish uchun;
- Mahsulot yoki xizmatlarni bevosita sotish uchun;
- Yangi bozorlarni o'zlashtirish uchun;
- Eski bozorlarni kengaytirish uchun;


- Masofaviy ta'lim tizimini tashkil qilish uchun;
- Elektron kommertsiya faoliyatini tashkil qilish uchun va xakozolar.

Har qanday sayt uy sahifasidan boshlanadi va unda sayt bilan bog'liq asosiy ma'lumotlar saqlanilishi kerak yoki ularni olishga imkon beradigan giperilovalar bo'lishi lozim. Uy sahifasi esa sayt mavzusiga tegishli bir qancha boshqa sahifalar bilan bog'liq bo'lib, ularga o'tishni amalga oshirib berishi lozim. Buni quyidagi sxema shaklida keltirishimiz mumkin:



O'z navbatida sahifalar boshqa quyi darajadagi sahifalar hamda boshqa saytlarning giperko'rsatgichlari bilan bog'langan ham bo'lishi mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu sahifalardan boshlang'ich uy sahifasiga orqaga) va uy sahifasidan istalgan sahifaga o'tish imkonini yaratib berish juda ham muxim. Bu ishni amalga oshirishni sahifalararo navigatsiyani amalga oshirish deb tushuniladi. Bunday sahifalar ro'yxatini oldindan aniqlab olish juda muhim va foydali bo'ladi. Shundan so'ng, yaratilayotgan sayt Web-sahifalarining bir-biri bilan qanday tartibda bog'liq bo'lishini aniqlab olish kerak bo'ladi. Bu ko'pincha giperilovalar orqali amalga oshiriladi. Ammo Front Page programmasida bunday giperilova (yoki sahifalararo bog'lanishlarni) boshqa usullarda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, barcha giperilovalarni uy sahifasida joylashtirish mumkin yoki navigatsiya paneli (navigation bar) tashkil qilib, u orqali sahifalararo bog'lanishlarni boshqarishi mumkin. Bundan tashqari ekrandagi faol (aktiv) bo'laklar tasvirlari (hotspots) ko'rinishidagi interaktiv karta (image map) hosil qilgan holda, boshqa sahifalarga ham o'tish mumkin. Bu usulda kompyuter ekranidagi rasmning o'sha bo'laklarni sichqoncha bilan tanlansa, kerakli sahifaga o'tish amalga oshiriladi. Ba'zi paytlarda freym ko'rinishidagi menyu yordamida kerakli sahifalarga o'tishni amalga oshirish ham mumkin. Freym ekranning shunday bir qismiki, uning tarkibiy qismlari uy sahifasiga bog'liq bo'lmagan xolda ekranda ko'rinib turadi. Masalan, siz bir sahifadan ikkinchisiga menyu punktlarini tanlagan xolda o'tganingizda, sahifalar ma'nosi o'ng freymda ko'rinadi, giperilovalari matnlar ko'rinishidagi chap freymning tarkibi esa o'zgarmasdan qolaveradi.

Front Page programmasi orqali nafaqat Web-sayt va Web-sahifalar tuzish, balki ularni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish ham mumkin. Bu dasturning asosiy oynasi quyida ko'rsatilganidek uch tarkibiy qismga bo'lingan bo'lib, ular Web-saytni xilma-xil usulda boshqarishga yordam beradi.



Birinchi qismning nomi Views bar (ko'rish rejimlari paneli) deb ataladi va u Web-saytni ko'rish rejimlarini o'zgartirishga yordam beradi. Ular bilan quyida tanishishingiz mumkin:

Page (Sahifa) – Web-sahifa larni ko'rish va taxrirlashga imkon beradi.

Folders (Papka) - Joriy Web-saytlar ning papkalari ro'yxati va fayllarini ko'rishga imkon beradi.

Reports (Hisobot) – Joriy Web-sayt ning holati haqida jadval shchaklidagi xisobotni ko'rsatadi, shu jumladan, ushbu rejimda noto'g'ri ilovalar va sekin ishlaydigan sahifalar sonini ko'rib chiqish mumkin.


Navigation (Navigatsiya) – Joriy Web-sayt ning daraxtsimon tuzilishini ko'rish imkonini yaratadi. Folder list (Papkalar ro'yxati) ro'yxatida ushbu saytning papka va fayllari ko'rinadi.

Tasks (Masalalar) - Joriy Web-sayt bilan ishlagan davrda bajarilishi lozim bo'lgan masalalar ro'yxatini aks ettiradi.

Web-sayt yaratish jarayonida masterlar ishlatilgan taqdirda, masalalar ro'yxati to'ldirilishi mumkin yoki siz o'zingiz ham o'z masalalaringizni bu erga qo'shib qo'yishingiz mumkin.

Hyperlinks (Giperilovalar) - Joriy Web-saytga va undan bo'lgan giperilovalarning o'zaro bog'lanishining grafik tuzilishini sxema tarzida ko'rsatadi.

Agarda birorta Web-sahifani ko'rish kerak bo'lsa, uni sichqoncha ko'rsatgichi orqali turtish zarur bo'ladi va o'ng tomondagi darchada yoki maxsus oynada sahifaning mazmuni paydo bo'ladi:



Ekraning pastki qismida joylashgan xolatlar paneli (**Status bar**) da ushbu sahifani uch xil holatda ko'rish mumkin bo'ladi. Ularning biri **Normal** deb atalib, unda Web-sahifani tahrirlash mumkin, ikkinchisida esa sahifani **HTML kodlari** ko'rinishida ko'rishimiz va **Preview** deb atalgan uchinchisida esa sahifa Internetda qanday ko'rinishda bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Papkalar ro'yxatida joriy Web-saytga tegishli barcha fayllar va papkalarni, joriy sahifani esa sahifalarni tasvirlovchi oynasida ko'rishimiz mumkin.

2. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish.


O'rganilayotgan dastur yordamida Web-saytlarni uch xil usuldan foydalangan xolda yaratish mumkin:

- Maxsus programmalar – Masterlar (Wizard) yordamida;
- Shablonlar yordamida;
- Oldindan tayyorlab qo'yilgan fayllar yordamida.

Ularning qaysi birini tanlab olish shart-sharoitga bog'liq ravishda va yaratilayotgan Web-saytning qanday bo'lishiga qo'yilgan talablar asosida aniqlaniladi. Quyida biz masterlar yordamida Web-sayt tashkil qilishni ko'rib chiqamiz. Masterlar bir necha xil bo'lib, ular xilma-xil turga mansub oddiy yoki murakkab Web-saytlarni maxsus dialog

oynachalari orqali tashkil qilishga imkon beradi. Xar bir dialog oynasidagi savollarga aniq va to'g'ri javob berilsa, foydalanuvchi talablariga javob beradigan Web-saytlarni osonlik bilan yaratish mumkin bo'ladi. Bu usulni ko'rib chiqish uchun Windows ning asosiy oynasidagi Start (Pusk) tugmachasi bosilib, undan Programs (Programmi) punkti tanlab olinadi va undan Microsoft Front Page belgisi turtuladi. Ishga tushgan Front Page dasturi oynasidan File (Fayl) buyrug'ining New (Cozdat) imkoniyati tanlansa, unda Web buyrug'i ko'rinadi. Agarda u tanlangan taqdirda ekranda New (Cozdat) dialog oynasi xosil bo'ladi.

Bu oynadan Web-saytlarning qanday turga mansub bo'lishini tanlab olish mumkin. Ya'ni, undan foydalanib, Web-sayt hosil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bir qancha masterlarni ishga tushirish mumkin. Ularning biri Master (Wizard) Discussion Web bo'lib, uning yordamida muhokamalar tashkil qilishga mo'ljallangan Web-saytlar tashkil qilish mumkin. Bunday saytning foydalanuvchilari boshqalarning ma'lumotlarini ko'rishlari, ularga javoblar yuborishlari yoki o'z ma'lumotlarini saytda joylashtirishlari mumkin. Ikkinchisi Master (Wizard) Import Web deb atalib, kompyuteringizdagi yoki Web - serverdagi fayllar asosida yangi Web-saytlar qilish imkonini beradi. Saytni yaratib bo'lgandan so'ng Web – sahifalarni yoki sayt tuzilishini o'z extiyojingizga mos ravishda o'zgartirishingiz yoki to'ldirishingiz mumkin.




Ushbu master oldindan mavjud bo'lgan Web-saytlaringizni yangilash va tekshirish uchun juda qo'l kelishi mumkin. Keyingi master Master (Wizard) Corporate Presence deb nomlangan va u tashkilotlarning yoki kompaniyalarning Web-saytlarini yaratishga imkon beradi. Yuqoridagi oynadan boshqa turdagi masterlarning bajaradigan ishlarini ham ko'rib chiqishingiz mumkin. Quyida Corporate Presence Wizard deb nomlangan master yordamida Web-sayt hosil qilishni ko'rib chiqamiz. Bunday sayt uy sahifasini, mundarijalar jadvalini, yangiliklar sahifasini, mahsulotlar va xizmatlarni o'z ichiga olgan direktoriyni, har bir mahsulot yoki xizmat turiga bag'ishlangan Web – sahifalarni, foydalanuvchilar bilan muloqotni tashkil qilishga mo'ljallangan sahifani hamda tashkilot saytida ma'lumotlar axtarishga imkon beradigan Web – sahifani o'z ichiga qamrab oladi.

Endigi ishimiz yuqoridagi oynadan Corporate Presence Wizard nomli belgini sichqoncha ko'rsatgichi bilan bir marta turtish (belgilash) bo'ladi. Natijada Front Page dasturi sayt tashkil qilish uchun Corporate Presence masterini ishlatish kerakligi haqida topshiriq oladi. Endi Specify the Location of the New Web (Yangi Web-saytning joylashuvi aniqlansin) deb nomlangan maydonda quyidagi buyruqni terishingiz kerak bo'ladi:


C:\My Webs\MyWizardDemo

Bu buyruq yordamida Front Page dasturi xuddi shu nomli papka xosil qiladi va barcha Web fayllarni xuddi shu papkaga joylashtiradi. Agarda siz boshqa disk bilan ishlayotgan bo'lsangiz, yuqoridagi S harfini boshqasiga almashtirishingiz kifoya. Endi


OK tugmachasini tugmasini turtiq. Bunda Corporate Presence masterining quyida ko'rsatilgan birinchi oynasi ochiladi:




Ushbu oyna masterning nima ekanligini va qanday ishlar bajarishini tushuntiradi. Endi bu oynadagi Next (Dalee) tugmasi bosilsa, Web – sahifaga joylashtirilishi lozim bo'lgan sahifalar ro'yxati chiqadi va siz undan keraklarini tanlab olishingiz mumkin:




Sizning nimalarni tanlaganingizga bog'liq ravishda Master yaratilayotgan saytda xilma-xil dialog oynalarini aks ettiradi. What's New (Yangiliklar) va Search Form (Qidiruv formasi) maydonlariga sichqoncha ko'rsatgichini keltirib, uning chap tugmasi bosilsa, darchalardagi tegishli belgilar yo'qoladi. Demak, bu ishni qilsangiz, sizning saytingizda xuddi shu bo'limlar bo'lmaydi. Tanlov nihoyasiga etgandan so'ng, Next (Dalee) tugmachasi turtilsa, ekranda sizning saytingizda aks ettirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni tanlash imkoniyatini yaratadigan quyidagi oyna tasviri hosil bo'ladi:




Ushbu oynadagi Inroduction (Kirish) maydoniga belgi qo'yilsa, saytda yana bir bo'lim – Kirish hosil qilinadi. Yana Next (Dalee) tugmachasi turtilsa, ekranda mahsulot va xizmatlar (Products – mahsulotlar, Services – xizmatlar) uchun qancha miqdordagi sahifalar ajratilishi kerakligini aniqlashga imkon beradigan dialog oynasi hosil bo'ladi:




Ularning kerakli bo'lgan sonini kiritgandan so'ng, yana Next (Dalee) tugmachasi turtilsa, ekranda yaratilayotgan saytda mahsulot va xizmatlar haqida qanday ma'lumotlar bo'lishini aniqlashga imkon beradigan quyidagi dialog oyna hosil bo'ladi:




Ularning ichidan keraklilarini belgilab bo'lgandan so'ng yana bir marta Next (Dalee) tugmachasi turtilsa, ekranda Web – saytga kiruvchilar haqida qanday ma'lumotlar olishingiz kerakligini aniqlashga imkon beruvchi dialog oynasi hosil bo'ladi:




Ushbu ma'lumotlarni beruvchi sahifaning nomi Feedback (Teskari aloqa) deb ataladi va uning qanday ko'rinishda bo'lishi keyingi dialog oynalari orqali aniqlanadi. Keyingi qadamlarda Web – sayt mundarijasi qanday ko'rinishda bo'lishi, sahifalar dizayni o'z ichiga nimalarni olishi, tugallanmagan sahifalar qanday simvol orqali belgilanishini tanlab olinadi. Bu ishlarni bajarish oqibatida ekranda quyidagi dialog oynasi hosil bo'ladi:



Ushbu oynadan foydalanib, tashkilot to'liq nomi, uning qisqa nomi va manzili yaratilayotgan Web – saytga kiritiladi. Yana bir marta Next (Dalee) tugmachasini bosish qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishini so'raydi. Uni kiritib bo'lgandan so'ng sahifalarda ishlatiladigan ranglar, grafikalar va shriftlar haqida ma'lumot so'raladi. Bu savollarning barchasiga javob berib bo'linganidan so'ng, oxirgi oynada Finish (Gotovo, Tayyor) tugmasi turtiladi. Biroz vaqtdan so'ng, sizning saytingizning boshlang'ich versiyasi tayyor bo'ladi. Uning uy sahifasi (Home Page) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:




Uning tuzilishini ko'rish uchun chap tomondagi Navigation (Navigatsiya) belgisini turtish kifoya. Bunda sahifalar orasidagi o'zaro aloqani ko'rsatadigan quyidagi sxema shaklidagi tasvir hosil bo'ladi:



Hosil bo'lgan sxemadagi to'rtburchaklar ko'rinishida ifodalangan istalgan sahifani ko'rish uchun esa undagi tegishli belgini sichqoncha ko'rsatgichi bilan ikki marta turtiladi, masalan uy sahifasini ko'rish uchun Home Page belgisini ikki marta turtish kerak bo'ladi. Bu ishni bir qancha sahifalar uchun bajarib ko'rishingizni tavsiya qilamiz, chunki bunda yaratilayotgan sahifalarning qanday bo'layotganini ko'rib va o'rganib chiqishingiz mumkin. Bunda har bir sahifani o'zgartirish va unga xilma-xil qo'shimcha ma'lumotlar qo'shish imkoniyati mavjud. Bu ishlar bajarilgandan so'ng, sayt tayyor bo'ldi desak ham bo'laveradi. Agar keyinchalik saytga hamda uning istalgan sahifasiga o'zgarishlar kiritish yoki uni rivojlantirish va mukammallashtirish kerak bo'lsa, ular ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Barcha kerakli o'zgarishlarni amalga oshirib hamda tegishli ma'lumotlarni kiritib bo'lgandan so'ng, ushbu saytni saqlab qo'yish kerak bo'ladi. Buning uchun File (Fayl) menyusidagi Close Web (Web-sayt yopilsin) buyrug'I

tanlab olinadi. Ushbu buyruq bajarilishi natijasida hosil qilingan saytning yopilishi amalga oshadi. Web-saytlarga nom berganda soʻzlar orasida probellar (boʻsh joylar) boʻlmasligiga eʼtibor berish kerak, chunki koʻpchilik Web-serverlar fayllar nomidagi probellarga tushunmaydilar. Agar Web-fayllarning nomlari bir necha soʻzlardan iborat boʻlsa, u holda bu soʻzlarni bir-biridan ajratish uchun tagiga chizish «_» (podcherkivanie) belgisidan foydalanish mumkin.

Agarda yaratgan Web-saytingizga biror bir yangi sahifa qoʻshish kerak boʻlib qolsa, u holda bu sahifalarni mustaqil ravishda Web-sahifalar shablonlaridan foydalangan holda yaratishingiz mumkin. Shablon yordamida sahifalar hosil qilish uchun programmaning asosiy oynasidagi Page (Sahifa) tugmasini belgilaysiz va soʻngra File (Fayl) menyusidan New (Sozdat) punktini tanlab, undan Page (Stranitsa) buyrugʻini tanlaymiz. Buning natijasida New (Sozdat) dialog darchasi hosil boʻladi va undan foydalangan holda bizga kerak boʻlgan sahifa shablonini tanlab olishimiz mumkin:



Shablonlar yordamida Web-sayt tashkil qilish

Maʼlumot kiritishni soʻrab, ular asosida saytlar tashkil qiladigan masterlardan farqli ravishda shablonlar tayyor Web-saytlar asosida ishlashga imkon yaratadi. Bunda oldindan tayyorlab qoʻyilgan Web-saytlarni tanlagan holda, ularni oʻz talablaringsizga moslashtirishingiz yoki oʻzgartirishingiz mumkin. Front Page programmasi quyidagi shablonlar bilan ishlashga imkon yaratadi:

Personal Web (Shaxsiy sayt) – bunday sayt oʻz ichiga shaxsiy maʼlumotlarni qamrab oladi. Unda fotoalbom, muallif qiziqishlarini koʻrsatadigan sahifa, boshqa saytlarga boʻlgan murojaatlar boʻlishi mumkin.

Project Web (Loyiha sayti) – bir loyiha ustida ishlayotgan bir qancha mutaxassislar orasida maʼlumot almashinishni taʼminlab beradigan sayt boʻlib, u guruh aʼzolari roʻyxati sahifasini, ish jadvali sahifasini, loyiha haqidagi maʼlumotlarni aks ettiradigan sahifani, maʼlumot almashinish darchasini hamda saytda maʼlumot axtarishni taʼminlab beradigan sahifani oʻz ichiga oladi.


Customer Support Web (Isteʼmolchilarga xizmat sayti) – ushbu sayt orqali tashkilot isteʼmolchilarning savollariga javoblar berishi va ular bilan muloqotni amalga oshirishi mumkin. Bunday sayt maʼlumotlar almashinishga imkon beradigan sahifani, tez-tez berilib turadigan savollarga javoblar sahifasini (FAQ – Frequently Asked Questions), saytga kiruvchilar oʻz takliflarini bera oladigan forma sahifasini oʻz ichiga olib, saytdan maʼlumotlar va programmaviy taʼminot olish imkoniyatini ham yaratib beradi.

One Page Web (Bir sahifali sayt) – faqat birgina sahifadan iborat sayt tuzishga imkon beradi.

Empty Web (Bo'sh sayt) – Mustaqil ravishda tashkil qilinadigan Web-sayt bo'lib, o'z tarkibigi xech qanday tayyor Web-sahifalarni olmaydi.


Endi **Customer Support** shabloni yordamida Web-sayt yaratishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun File (Fayl) menyusidan New (Sozdat) punktini tanlab, undan Web punktini tanlaymiz. Hosil bo'lgan oynadan Customer Support Web (Iste'molchilarga xizmat sayti) belgisi tanlanib turtilsa, firma mahsulotlaridan foydalanuvchi iste'molchilarining muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan Web-sayt yaratish uchun mo'ljallangan shablon hosil bo'ladi. Lekin belgini turtishdan oldin Specify the Locations Of the New File (Yangi Web-saytning joylashishi) deb nomlangan maydonda yaratilmoqchi bo'lingan saytning nomini yozish kerak bo'ladi.

Agarda Folder List (Papkalar ro'yxati) deb nomlangan panelda **index.htm** fayli turtilsa, yaratiladigan Web-saytning uy sahifasi ekranda namoyon bo'ladi:



Web-sayt yaratish uchun foydalanuvchiga bir qancha savollar beradigan Masterdan farqli ravishda Shablon biror-bir turdagi Web-sayt hosil qilish uchun mo'ljallanilgan Loyiha deb tushunilishi kerak. Uning, ya'ni loyihaning yordamida Web-saytni bir marta yaratgandan so'ng, uni iste'molchi talabiga muvofiq ravishda xohlagan o'zgartirish yoki moslashtirish mumkin bo'ladi.

Navbatdagi ishimiz Web-sahifadagi ma'lumotlarni o'zgartirish bo'lgani uchun «Company name» (Kompaniya nomi) matnini o'z firmamiz nomiga o'zgartiramiz. Shundan so'ng kiritilgan o'zgarishlarni saqlab qolish uchun Save (Caqlansin) tugmachasini bosamiz va buning natijasida Front Page programmasi Web-sahifadagi o'zgarishlarni saqlab qoladi. Agarda papkalar ro'yxatidagi **bugrep.htm** faylini ikki marta turtsak, iste'molchilarga firma mahsulotlari va xizmatlarini ishlatishda paydo bo'lgan muammo va qiyinchiliklar haqida ma'lumot berish uchun mo'ljallanilgan Web-sahifa hosil bo'ladi:




Agarda Folder List papkalar ro'yxatidagi **discuss.htm** faylini ikki marta turtsak, foydalanuvchilarga muhokama oynasidan ma'lumotlarni o'qish va ularga javob berish imkoniyati yaratiladigan Web-sahifa tasviri hosil bo'ladi. Uning tasvirini quyidagi rasmda ko'rishingiz mumkin:

Hosil qilingan Web-saytni saqlash va yopib qo'yish uchun yana File (Fayl) menyusidan Close Web (Web-sayt yopilsin) buyrug'ini tanlaymiz. Bu holda hosil qilingan saytning yopilishi amalga oshadi. Shunday qilib, Web-sayt yaratish jarayonida masterlar ishlatildimi yoki shablonlardan foydalanildimi, bundan qat'iy nazar, Web-sayt yaratishning ikki asosiy usuli mavjud:


- Sayt hosil qilingandan so'ng sahifa va boshqa kerakli fayllarni hosil qilish;
- Yangi saytni mavjud fayllar asosida tashkil qilish.

Agar sizda yaratilishi kerak bo'lgan Web-saytning oldingi versiyasi kompyuteringizda bo'lsa yoki u boshqa biror bir tashkilotning kompyuterida mavjud bo'lsa va siz Web-saytning yangilangan versiyasini yaratishni istasangiz, ikkinchi usul juda ham qo'l keladi. Agarda siz o'zingiz uchun ma'qul real sayt yaratish uchun bo'sh sayt hosil qilish kerak bo'lsa, u holda File (Fayl) menyusidan New (Sozdat) punktining Web buyrug'i tanlanishi natijasida ishga tushadigan Empty Web (Bo'sh sayt) belgichasini turtishingiz kerak bo'ladi.




Agarda Sizga biror bir saytni nusxalashtirish kerak bo'lsa, u holda quyidagi ishlarni bajarishingiz lozim bo'ladi:


1. File (Fayl) menyusidan New (Sozdat) punktining Web buyrug'i tanlanadi va buning natijasida New (Sozdat) dialog oynasi hosil bo'ladi;
2. Ushbu oynadagi Import Web Wizard (Web-saytlarni import qilish) deb nomlangan tugmacha turtuladi va undagi Specify the Locations Of the New File (Yangi Web-saytning joylashishi) deb nomlangan maydonga yangi Web-saytning qaerda joylashishi kerakligi ko'rsatiladi va OK tugmachasi bosiladi. Natijada ekranda Import Web Wizard (Web-sayt importi masteri) ning birinchi dialog oynasi hosil bo'ladi:



3. Undagi From A Source of Files (Direktoriydan) va Include Subfolders (Ichidagi papkalar bilan birga) maydonlariga sichqoncha bilan belgilar qo'ying. So'ngra Browse (Ko'rib chiqish) tugmachasini bosing. Bunda ekranda quyidagi tasvirni ko'rasiz:



4. Navbatdagi ishingiz bu oynada nusxalashtirilayotgan Web-saytga tegishli papkani tanlab olish va OK tugmachasini bosish bo'ladi. Bunda quyida ko'rsatilgan dialog oynasi hosil bo'ladi va siz undagi Finish (Tayyor) tugmasini bosishingiz kerak bo'ladi:



5. Yuqorida bajarilgan ishlar natijasida tanlangan Web-sayt ko'rsatilgan joyga to'la nusxalashtiriladi va Siz uni xohlaganicha o'zgartirishingiz yoki to'ldirishingiz mumkin bo'ladi.

Nazorat savollar:

1. Front Page ahamiyati qanday?
2. Front Pagening asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Front Page ish rejimi qanday?
4. Tasks ishchi rejimining asosiy jadvali nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupov R.X, Ismoilov S.I, Ayupov X.R. Xususiy kompyuterda ishlash/ "Microsoft Word 2000 matn muharriri", T., TMI, 2002.
2. Yuldashev U, Boqiev R., Mamarajabov M. EXSEL-97. O'quv qo'llanma. T.: 2000.
3. Yuldashev U, Mamarajabov M., Mirvalieva K. Power Point 97/ Uquv qo'llanma. T.: 2001.
4. Braydo V.A. Ofis texnikasi: Boshqarish va ish yuritish uchun. T.: Mehnat, 2001.
5. Nasretdinova Sh. Excel 7.0 jadval hisoblagichlari/ Moliya va bank akademiyasi nashriyoti, T.: "Moliya": 2000.
6. Ayupov R.X., Ilxomova E. Kompyuter tarmoqlari va internet tizimi. T.: TMI, 2003. Microsoft FrontPage-2000. Shag za shagom: Prakticheskoe posobie. M.: Izdatelstvo EKOM, 2000

Mavzu: FrontPage dasturining Web–sahifa va Web–uzellar yaratish va ular bilan ishlash imkoniyatlari. (2 soat)
14-ma’ruza

Reja:

1. MS Front Page yordamida WEB-sayt yaratish
2. Bosh sahifa.
3. Fon sahifasi.
4. Adresat sahifasi.
5. Bullet ruyxatini tuzish.
6. Ko’rinishni matn bilan o’rnatish

Tayanch iboralar:

WWW, FTP, IRC, E-mail, WEB-sayt, Yangi WEB-sayt yaratish, Bosh sahifa, Joriy sahifani ma`lumot uzulida saqlash, Fon sahifasi, Adresat (manzilgox) sahifasi, Bullet ruyxatini tuzish, Sahifani joylashtirish, Formani sozlash.

WEB-sayt – bu bosh sahifaning u bilan bog’liq sahifalar, grafiklar, hujjatlar, multimedia va b. fayllar bilan yigindisidir. WEB-saytlarni tarmok serverida yoki kompyuterning kattik diskida saqlash mumkin.

Yangi WEB-sayt yaratish.

1. File menyusida, quyidagi yunalishda borish kerak: New \ Web \ One Page Web.

2. WEB Yangi blokining joylashgan urnini aniqlash xamda berilgan nomni o’zgartirish: http : \\ localhost \ webname va OK tugmasi bosiladi.

Izoh: Agar tarmok serverida bevosita ishlamayotgan bulsangiz, taklif qilingan nomni o’z diskingizga o’zgartirishingiz mumkin. Masalan: C: \ My Documents\ My Webs\ Millenium va OK tugmasi bosiladi.

3. Prosmotr chizigidagi navigatcion belgiga bosamiz.

Saytimizning navigatcion to’zilmasini yaratamiz:

1. Asboblar panelida New Page tugmasi navigatcion ko’rinishda bosiladi.

2. Sahifani saqlashni tez amalga oshirish uchun CTRL tugmasini bosib turib, Nni 3 marta bosamiz.


3. Yangi sahifa 1 tanlangandan sung(ung tugmani bosiladi va tanlanadi), fonni chop qilish kerak va keyin TAV bosiladi.

4. Yangi sahifa 2 tanlangandan sung, Adresatlarni chop qilish va keyin TAV tugmasi bosiladi.

5. Yangi sahifa 3 tanlangandan sung, fotosuratlar albomi chop etiladi va keyin TAV bosiladi.

6. Yangi sahifa 4 tanlangandan sung, murojaatlarni chop etish kerak va ENTER tugmasi bosiladi.

Endi ekran quyidagi ko’rinishni olishi kerak:



Bosh sahifa.

Sahifani WEB-saytga import qilish tartibi:

- a. Navigatcion ko'rinishda, bosh sahifani sahifa ko'rinishda ochish uchun bosh sahifasiga 2 marta bosish kerak.
- b. Asboblard panelida, papkalar ruyxati sahifa ko'rinishida ochilishi uchun papkalar ruyxatini ochish tugmasini bosish kerak.
- c. Insert menyusida, File ga bosing.
- d. Select File muloqot oynasida C \ My documents\ homepage.

Joriy sahifani ma'lumot uzeldida saqlash.

1. File menyusida «saqlash» tugmasi yoki asboblard panelida Save tugmasi bosiladi.
2. Save Embedded Files muloqot oynasida , OK tugmasini bosing.

Front Page bosh sahifani Index.htm day saqlaydi va joriy qilingan kartinali fayllar nusxasini , 2000.gif va Fp 2000.gifni joriy WEB-saytda saqlaydi.

Fon sahifasi.

WEB-mundarijani yaratish.

Endi, bosh sahifa – joriy WEB-saytning bir qismi bo'lgani uchun, Millenium saytidagi boshqa sahifalar uchun mundarija yaratish kerak.

Fon sahifasini muxarrirlash tartibi:

1. Navigatcion ko'rinishga o'tish uchun kurish chizigida navigatcion belgiga bosiladi.
2. Sahifa ko'rinishida ochish uchun , fon sahifasiga 2 marta bosiladi.
3. Bush sahifa sahifa ko'rinishida bulsa, Insert menyusidan Filega bosiladi.
4. Select File muloqot oynasida, «Programma» papkasini ochib, Files\ MS Front Page\ tutorial\ Samples, «Обучающие программы» papkasi blokining displeyidagi Prosmotrgacha har bir papkaga 2 martadan sichkoncha tugmasi bosiladi.
5. Keyin, «Файлы типа»dan «Обучающауа программы»dagi matnli fayllarni kurish uchun Text file(txt) ga sichkoncha tugmasi bosiladi.
6. Ruyxatdan year 2000 ga bosib, keyin Open ga sichkoncha tugmasi bosiladi.
7. Convert Text muloqot oynasida, Normal chiziq tuxtashlari bilan paragraflariga bosib, keyin OK tugmasi bosiladi.
8. MS Front Page matnli faylni import qiladi va buni Fon sahifasidagi kursor (kirish nuktasi) ga joylashtiradi.
9. Fon sahifasidagi o'zgarishlarni saqlash uchun, asboblard panelidagi Save tugmasi bosiladi.

Adresat (manzilgox) sahifasi.


Adresatlar sahifasini muxarrirlaymiz:

1. Asboblar panelida, papkalar ruyxatini sahifa ko'rinishida ochish uchun, papkalar ruyxatini ochish tugmasi bosiladi.
2. destinations.htm ni papkalar ruyxatidan ajratib, sahifa ko'rinishida ochish uchun 2 marta sichkoncha tugmasi bosiladi.
3. Papkalar ruyxatini ochish uchun , papkalarni ochish tugmasini bosing.
4. Bush sahifa sahifa ko'rinishida kurinsa, Insert menyusidan File ga sichkoncha tugmasini bosing.
5. Select File muloqot oynasida, Obuchayuyçaya programma papkasidagi formatlangan matnli faylni kurish uchun «Fayly spiska tipa» ga va keyin Rich Text Format (*.rtf)ga sichkoncha tugmasini bosing.
6. Sobytiya fayla ga 2 marta sichkoncha tugmasini bosing.
7. Adresatlar sahifasidagi o'zgarishlarni saqlash uchun Asboblar panelidagi Save tugmasini bosing.

Bullet ruyxatini tuzish.

1. Xali ham sahifa ko'rinishidagi Adresatlar sahifasidan «Times Square in New York» so'zlarini toping.
2. «Times Square in New York» so'zlari bilan boshlanib, «The Acropolis in Greece» bilan tugaydigan adresatlarning Tula ruyxatini keltirish uchun harakatlanish qismidan foydalaniladi.
3. Shift ni ushlab turib, «Times Square» simvolidan faqat chapga bosiladi, faqat Greece so'zidan keyin bosib, Shift ni quyib yuboring.
4. Asboblar panelidan Bullets tugmasiga bosiladi.
5. Ruyxatdan ajratilganligini yukotish uchun sahifaning biror eriga sichkoncha tugmasi bosiladi.


Endi sahifa quyidagi ko'rinishda bo'lishi lozim:



Tarkibida matn bo'lgan rasmni o'rnatish tartibi:

1. Sahifani kurish oynasida Adresatlar sahifasini «France and England» so'zlariga varaklang.
2. Faqat «France»dagi F dan chapga bosing, Home ni bosing va keyin fayldan rasm o'rnatish ga sichkoncha tugmasini bosing.
3. Joriy WEB-saytga xoxlangan hamma rasmlar kiritilmagan bulsa, Picture muloqot oynasidagi Vybör fayla tugmasini bosing.
4. Paris nomli faylga sichkoncha tugmasini bosing va keyin OK tugmasini bosing.

5. Keyin Eyffel bashni ni tanlash uchun, Eyffel bashni rasmiga sichkoncha tugmasini bosning.
6. Format menyusida Positionga sichkoncha tugmasini bosning.
7. Stilni ochish uchun Right tugmasini va keyin OK tugmasini bosning.
8. Adresatlar sahifasidagi o'zgarishlarni saqlash uchun Asboblar panelidagi Save tugmasini bosning.
9. Save Embedded Files muloqot oynasini , sung OK tugmasini bosning.
Endi sahifa quyidagi ko'rinishda bo'lishi kerak.




1. Papka ko'rinishiga o'tish uchun Prosmotr chizigidagi Papkalar belgisiga bosning.
2. File menyusidan Importga sichkoncha tugmasini bosning.
3. Import muloqot oynasidan Add File ga sichkoncha tugmasini bosning.
4. Import List muloqot oynasiga kushiladigan faylga , Proramma papkasidan Files\ MS Front Page \ Tutorial ni ochib, to blokda kurish Obuchayuyshaya programmaning papkasi ko'rinishida bulmagunicha har bir papkani 2 martadan sichkoncha tugmasini bosiladi.
5. Sung, Obuchayuyshie programmy papkasidagi barcha kartinali fayllarni kurish uchun ,Fayly spiska tipa , keyin gif va jpeg (*.gif, *jpeg)ga sichkoncha tugmasini bosiladi.
6. Ruyxatdan firewksl faylni bosning va tanlang.
7. Keyin CTRL tugmasini bosib turib, firewks 2, firewks 3, firewks 4, Japan, London va Sanfran nomli fayllarni tanlang.
8. Import List muloqot oynasiga kushiladigan faylga fayllar tanlangandan sung, CTRL quyib yuborib, Otkryt tugmasi bosiladi.
9. Shu fayllarni joriy WEB-saytga import qilish uchun OK tugmasi bosiladi.

Sahifani joylashtirish.

1. Sahifa ko'rinishiga kaytish uchun, ko'rinishlar chizigidagi Sahifalar belgisiga sichkoncha tugmasini bosning.
2. «Angliya, planiruet vosstanavlivat....» so'zlari bilan boshlanuvchi gapni topib, o'rnatish xamda london.gif fayliga tenglashtiring.
3. «Mirovoe – izvestnye.Vremena Kvadrat» so'zlari bilan boshlanuvchi gapni topib, o'rnatish va Pravo Fayl Sanfran.gif bilan tenglashtiring.
4. «Transportnye agenstvo v Yaponii» so'zlari bilan boshlanuvchi gapni topib, o'rnatish va Japan.gif faylini tenglashtiring.

Sahifa endi quyidagi ko'rinishda bo'lishi kerak:




Teskari aloka formasini yaratish tartibi:

1. Joriy sahifaning oxiriga tezrok borish yoki harakatlanish chizigi orqali pastga harakatlanish uchun sahifa ko'rinishida CTRL+END tugmasi bosiladi.
2. Yangi ,bush chiziqda xabarni chop qiling va ENTER tugmasini bosing.
3. Keyingi chiziqda so'zni chop qiling.
4. Insert menyusida shakllantirish uchun punkt ,keyin Form tugmasi bosiladi.

Formani sozlash.

1. Xali ham Submit tugmasidan chapda turgan kursor bilan asboblardagi Center tugmasi bosiladi va formaga bir qancha joy kushish uchun Enter bosiladi.
 2. Kursorini forma boshiga keltirish uchun klaviaturadagi «vverx» yunalishi bosiladi.
 3. Birinchi chiziqda ismingizni yozing va Shift+Enter ni bosing.
 4. Shakllantirish uchun Insert menyusida punkt, One – Line text boxga bosing va Enter tugmasi bosiladi.
 5. Keyingi liniyada elektron pochta adresi teriladi: va kiska matnli maydon uchun o'rnatish formasi.
 6. Keyingi liniyada sayoxat rejasi teriladi:va matnli maydonni harakatlantirish uchun o'rnatish formasi.
- Text box Properties muloqot oynasini harakatlantirishda simvollardagi kenglikni 30 ga va chiziq raqamini 5 ga o'zgartiring va OK tugmasini bosing
7. Adreslar sahifasidagi o'zgartirishlarni saqlash uchun asboblardagi Save tugmasini bosing.

Endi sahifa quyidagi ko'rinishda bo'lishi kerak. (Rasm 7.5)



WEB-sayt yaratilgandan sung, saytni tarmokda e`lon qilishning 5 qoidasiga rioya qilishni tavsiya qilamiz.

1 – qoida.

Sahifa yaratishda sarlavhada (Title) sahifaning aniq tasvirlanishini ko`rsatishni unutmang.

2 – qoida.

O`zingizga esda kolishi oson domen nom tanlang. Agar mablag etishmasa, «Saytni qayta nomlash kompaniyalari»ning bepul xizmatlaridan foydalaning.

3 – qoida.

Sahifangiz yaratilganini maksimal darajasidagi qidiruv tizimlariga ma`lum qiling va vaqti – vaqti bilan ularga yangi ma`lumotlar yozishni unutmang.

4 – qoida.

Sizning resurslaringizni avtomatik ravishda yuzlab qidiruv tizimlariga joylashtirishni va`da kiluvchi dasturlarga ishonmang. Siz kompyuteringiz saytingiz xakidagi ma`lumotlarni hamma qidiruv tizimlariga yuborishini kutib bir necha soat vaqtingizni sarflayotganingizda , juda ko`p keraksiz, reklama harakteridagi ma`lumotlarni uzatadi.

5 – qoida.

O`z sahifangizni namoyish qilishdan oldin , uning Tula tayyorligiga ishonch xosil qiling

Adabiyotlar .

1. A.Levin "Samouchitel raboty na kompyutere", M. 1997.
2. N.V.Makarova "Informatika", Uchebnik 6-7 klass. S.Peterburg. 1998.
3. V.E.Figurnov "IBM PC dlya polzovatelya" 6-e izdanie, Moskva.1996

Mavzu: Dreamweaver dasturini o‘rnatish va ishga tushirish. Dasturning asosiy oynalari.

(2 soat)

15 – ma`ruza

Reja:


1. Dasturning ishchi sohasi
2. HTML - sahifaning tuzilishi (strukturasi)
3. Elementlar, HTML-teglar va xususiyatlar.

Tayanch iboralar: Hujjat oynasi, Ob`ekt palitrasi (Insert), Xususiyatlar palitrasi (Properties), O‘zgaruvchan palitralar (Floating Palettes), HTML-sahifa, HTML-kod, Elementlar, HTML-teg.

Dasturning ishchi sohasi.

Dreamweaver MX dasturini ishga tushirish uchun quyidagi kadamlarni bajarish kerak: **Pusk > Programmy > Macromedia > Macromedia Dreamweaver MX.**

Dasturning ishchi sohasini har qanday foydalanuvchi didiga va tajribasiga mos ravishda sozlab olishi mumkin.



Rasm. 1. Dreamweaver MX dasturining interfeysi.

Ishchi sohaning asosiy tashkil etuvchilari quyidagilar hisoblanadi:

- **Hujjat oynasi** - tahrirlanayotgan hujjatni ko‘rsatadi.
- **Ob`ekt palitrasi** (Insert) - turli xil tipdagi ob`ektlarni (rasmlar, jadvallar, maxsus simvollar va boshqalar) sahifada tezda joylashtirish uchun xizmat qiladigan tugmalarga ega;
- **Xususiyatlar palitrasi** (Properties) - belgilangan matn yoki ob`ekt xususiyatlarini ko‘rsatadi va ularni tahrirlash imkonini beradi.
- **O‘zgaruvchan palitralar** (Floating Palettes)- oynalar, inspektorlar va palitralarni umumiy bloka birlashtirish uchun xizmat qiladi.

Hujjat oynasi Dreamweaver MX dasturining asosiy oynasi hisoblanib, unda hujjatni yaratish va tahrirlash jarayonini ko‘rish mumkin; Hujjatning brauzer oynasida qanday ko‘rinishini taxminiy ko‘rsatib turadi; Joriy loyixaga bog‘liq bo‘lgan turli xil ma`lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

Ob`ekt palitrasi jadvallar, rasmlar, katlamlar va boshqa ob`ektlarni tezda joylashtirishga mo`ljallangan tugmalardan tashkil topgan. Ob`ektlar palitrasini ochish\yopish uchun bosh menyudan Window > Insert bo`limini tanlang yoki Ctrl+F2 klavishlar birligini bosing.

Ob`ektlar palitrasi quyidagi bo`limlarga ega:

- **Characters** - maxsus simvollarini sahifaga o`rnatish va simvollarini tanlov asosida o`rnatish imkonini beradi;
- **Common** - rasm, jadval, Flash kliplari, Shochweve, Java apletlari va boshqa ko`p ishlatiladigan ob`ektlar;
- **Forms** - shakllar va boshqarish elementlarini yaratish;
- **Frames** - sahifada ko`p qo`llaniladigan freymlar tuzilishlarini o`zida saqlaydi;
- **Head** - sahifa sarlavhasi teglari: META, KEYWORDS va Base, Refresh va boshqalar;

Xususiyatlar palitrasi sahifaning belgilangan elementlari xususiyatlarini ko`rish va tahrirlash imkonini beradi. Ob`ektlarni belgilash nafaqat hujjatning asosiy oynasida, balki HTML-kod oynasida ham bajarilishi mumkin.

Xususiyatlar oynasini ko`rish uchun bosh menyudan Window > Properties bo`limini tanlash yoki Ctrl+F3 tugmalarini bosish kerak.

Ko`pgina xususiyat o`zgartirishlari shu vaqtning o`zida ob`ektda qo`llaniladi. (Ayrim xususiyatlarni qo`llash uchun esa sichqoncha tugmasini xususiyatlar palitrasi sohasida bosish kerak.)

Birinchi marta xususiyatlar palitrasida ko`p foydalaniladigan ob`ekt xususiyatlari chiqadi. Qo`shimcha parametrlarini chiqarish uchun esa o`ng tomondan, pastdagi uchburchak belgisini bosish kerak.

HTML-sahifa tuzilishi.

HTML sahifada hujjat sarlavhasi (Head) va tanasini (Body) ajratib ko`rsatish mumkin. Sarlavhada, asosan sahifa to`g`risidagi ma`lumotlar saqlanadi va ularning ko`pchiligi Web-sahifa ko`rinishiga ta`sir kilmaydi. Sarlavhadan tashqari barcha ma`lumotlar sahifa tanasida joylashtiriladi va ekranda ko`rinadi.

Sahifa sarlavhasi va tanasi aniq ketma-ketlikda joylashtiriladigan maxsus teglar bilan aniqlanadi.

Sahifaning HTML-kod tuzilishi.

< **HTML** >

< **Head** >

Sahifaning sarlavha bo`limi. Bu erda ishchi ma`lumotlar teglari joylashtiriladi.

</ **Head** >

< **Body** >

Bu erda joylashtirilgan barcha ma`lumotlar Web-sahifada akslantiriladi.

</ **Body** >

</ **HTML** >

Tuzilishi jihatdan to`g`ri HTML-kod < **HTML** > tegdan boshlanadi. Ochilgan < **Head** > tegi va yopilgan < \ **Head** > tegi sarlavha bo`limini tashkil etadi. Sarlavha tarkibiga hujjat haqidagi boshlang`ich ma`lumotlar kiritiladi. HTML-faylning asosiy qismi hujjat tanasidir va u < **Body** > va </ **Body** > teglari yordamida tashkil etiladi. Bu teglar orasida brauzer oynasida ko`rsatiladigan barcha ma`lumotlar joylashtiriladi. HTML-kod yopiladigan </ **HTML** > teg orqali tugallanadi.

Elementlar, HTML-teglar va xususiyatlar (atributlar).

HTML tili elementlar, teglar va xususiyatlarga ajratilgan. Element - ma'lumotlar joylashtirilgan ochiladigan va yopiladigan teglardan tashkil topgan.

Misol: `<p align="justify"> Bu oddiy abzatsc </p>`

Bu erda sahifadagi abzatsc element hisoblanadi.

Teglar nomlar orqali ajratiladi hamda katta va kichik belgisi («<» va «>» simvollari) orqali ko'rsatiladi. Teg nomi element tarkibidagi ma'lumot ekranda qanday ko'rsatilishini aniqlaydi. Masalan, birinchi misoldagi `<p>` tegi abzatscni hosil qiladi.

Atributlar teg harakatini aniqlashtiradi. Masalan, `align="justify"` ushbu abzatsc uchun ikki tomondan tekislashni o'rnatadi.

Teglardan foydalanish vaqtida quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- Barcha standart teglar «<» simvolidan boshlanadi va «>» simvoli bilan tugaydi. (Masalan, `<HTML>`)

- Teg nomini tashkil etuvchi simvollar orasida bo'sh joylar (probel) qo'yish mumkin emas. Shuningdek, teg nomi va belgilar orasida ham bo'sh joy qo'yish tavsiya etilmaydi.

- Xar qaysi ochiladigan teg uchun mos ravishda yopiladigan teg ham bo'lishi kerak. Yopiladigan teg bilan ochiladigan teg o'rtasidagi farq uning nomi oldidagi `</>` belgisi hisoblanadi. (`</HTML>`).

- HTML-kodni yaratishda teg nomi uchun faqat quyi registrdagi simvollarni ishlatish.

- Teglarini ajratish uchun, shuningdek birinchi atributni teg nomidan ajratishda bo'sh joy ishlatiladi. Atribut qiymati tarkibidagi bo'sh joylar ham xatoliklarga olib kelishi mumkin.

- HTML-hujjat tuzilishiga e'tibor bering. Asosiy teglarni to'g'ri tartibda va qat'iy ierarxiyada joylashtiring.

Atributlar teg ishini aniqlashtiradi. Ko'pgina teglarda atributlar berilishi shart emas, lekin shunday teglar ham mavjudki, ularda atributlar keltirilishi shart.

`<p>` va `</p>` teglari sahifada abzatsc o'rnatadi. Ochuvchi `<p>` tegi faqat nomdan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Lekin, zaruriyat tug'ilganda uning tarkibiga ayrim atributlarni qo'shish mumkin. Masalan, `<p>` tegi tarkibida abzatsc tekislanishini o'rnatuvchi `align` atributi keltirilishi mumkin.

Atributlar faqat ochuvchi teg tarkibida bo'lishi mumkin. Yopuvchi teg tarkibida atribut o'rnatishga urinmang. Masalan, ochuvchi teg `<p align="justify">` to'g'ri tuzilgan. Unga yopuvchi teg `</p>` mos keladi. Teg tarkibida bir necha atributlar joylashtirilishi mumkin.

Kupchilik atributlarga qiymat beriladi. Aynan ana shular oxirgi bosqichda teg bajarilish tartibini belgilaydi. Yuqorida keltirilgan `align` atributiga `justify` qiymati o'rnatilgan. Atribut qiymati qo'shtirnoqlarda ko'rsatiladi.

Nazorat savollari.

1. Dreamweaver MX dasturi va uning vazifasi.
2. Dreamweaver MX dasturini ishga tushirish usullari.
3. Dreamweaver MX dasturining ishchi sohasi.
4. HTML - sahifaning tuzilishi (strukturasi).
5. Elementlar, HTML-teglar va xususiyatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Kirsanov. Veb – dizayn. – SPb: Simvol-Plyus, 2001.
2. Mark R. Braun i drugie. Ispolzovanie HTML 4. Spetsialnoe izdanie «Vilyams». Moskva – 2002 god.
3. Pol Mak-Fedris Ispolzovanie JavaScript. Spetsialnoe izdanie «Vilyams». Moskva – 2002 god.
4. Broydo V.L. Ofis texnikasi. 2002 yil. T.
5. A.R. Maraximov, S.I. Raxmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». Toshkent - 2001.

Mavzu: Dreamweaverning fayllar bilan ishlash imkoniyatlari. Web-uzel yaratish. (2 soat)

16 – ma`ruza

Reja:

1. Fayllarni saqlash.
2. Web uzal yaratish.
3. Lokal uzal yaratish. Uzal kartasi.

Fayllarni ochish texnikasi Windows tizimida ishlaydigan boshqa dasturlardan farqi yo'q. Buning uchun File > Open (Файл > Открыть) buyrug'ini berish kerak. Bu buyruqni klaviaturadan CTRL+O tugmalar kombinatsiyasini bosish bilan ham bajarish mumkin. Bundan tashqari, dasturda fayllarni ochishning surib kelish usuli ham mavjud. HTML-fayl belgisini «sichqoncha» yordamida surib kelib, hujjat oynasining ixtiyoriy yeriga tashlansa fayl ochiladi. Dasturda bir vaqtda bir nechta oyna bilan ishlash imkoniyati faqatgina kompyuterning bo'sh xotirasi bilan mos ravishda cheklanadi. Agar dasturda bo'sh sahifa bilan ish boshlangan bo'lsa, u holda yangi fayl har qanday holatda uning o'rnini egallaydi.

Dreamweaver dasturi ochiladigan HTML sahifalarida sintaksis xatolarni tekshiradi. Dastur standart HTML gipermatnli belgilash 8.3. tilida yozilgan barcha kengaytmali fayllarni ocha oladi. Ularga quyidagilar kiradi: .HTM, .HTML, .ASP, .CFM, .CFML, .TXT, .SHTM, .SHTML, .STM, .LASSO, .XML, .CSS, .PHP.

Fayllarni saqlash

Dreamweaverda fayllarni saqlash ham Windows tizimining boshqa standart dasturlaridagi singari amalga oshiriladi. Buning uchun: File > Save (Файл > Сохранить) yoki File > Save as (Файл > Сохранить как) buyruqlarini berish kerak. Birinchi buyruqni CTRL+S tugmalar kombinatsiyasini bosish bilan ham bajarish mumkin. Bu buyruq shu nomdagi muloqot oynasini hosil qiladi. Oynaga foydalanuvchi tomonidan faylning nomi, tipi va saqlash joyi belgilanadi.

Gipermatnli hujjatlar fayllari Windows operatsion tizimida .htm kengaytma oladi, Macintosh platformasida esa .html kengaytma oladi. Ammo bu kengaytmadagi fayllarni dasturlarda ochish va saqlash buyruqlari bajarilishi teng kuchli. Dasturda ochilishi mumkin bo'lgan barcha tipdagi fayllar, xuddi shu dasturda saqlanadi ham.

Tabiiy sharoitda yoki ilmiy laboratoriyalarda o'tadigan ko'pgina fizik jarayonlar qaytmas hisoblanadi. Bu tabiatshunoslikda olamning butun ilmiy manzarasini shakllantiruvchi fundamental qoidalaridan biridir. Zamonaviy hisoblash mashinalari insonni bu falsafiy kategoriyadan qisman qutqarishga qodir. Ko'pchilik zamonaviy dasturlar qoniqarsiz natijani bekor qilishga imkon beradi. Ya'ni, hujjatning avvalgi holatiga qaytish, qabul qilingan qarorlarni qadamba qadam orqaga qaytarish imkonini beradi.

Buning uchun Dreamweaver dasturida Edit > Undo (Правка > Отмена) buyrug'ini bajarish yoki CTRL+Z tugmalar kombinatsiyasini bosish yetarli. Dastur bekor qilishni bir nechta o'zaro bog'langan ketma-ket qadamda amalga oshiradi. Bu ketma-ketlik qadamlarining soni dasturning tegishli ko'rsatkichida ifodalangan songa teng, odatda, bu son 100 ga teng.

Bu sonni quyidagicha o'zgartirish mumkin:

1. Edit>Preferences (Правка>Настройки) buyrug'ini bering;
2. General (Общие) kategoriyasini oching;

3. Maximum Number of History Steps (Максимальное число записей журнала) maydoniga o'zingiz saqlamoqchi bo'lgan ketma-ketliklar maksimal sonini kiriting.

Tahrirlash ishlari va buyruqlarini yozish hamda saqlash foydalanuvchidan qo'shimcha hisoblash manbalarini talab qiladi.

Undo (Отмена) buyrug'i «eng muhim izlarni» bekor qilish imkoniyatini beradi. Ammo bu usul bilan jarayonni bir necha bor bajarib, «bekor qilish» buyrug'idan yaxshi natija olib bo'lmaydi. Chunki uning yordamida faqatgina eng muhim izlarni bekor qilish mumkin, xolos. Bundan tashqari, avrim buyruqlarni bu usul bilan bekor qilib bo'lmaydi. Bekor qilib bo'lmaydigan buyruqlarni orqaga qaytarish yoki ancha oldin bajarilgan operatsiyalarni qaytarish uchun File > Revert (Файл > Вернуться к сохраненному) buyrug'idan foydalanish mumkin. Bu buyruq hujjatning oxirgi saqlangan holatini tiklab beradi.

Buyruqni ishlatish yo'li oddiy. Qaytarib bo'lmaydigan buyruqlar mavjud ketma-ketlikni tiklashga berishdan oldin hujjatni diskka saqlab olish kerak. Agar ish yaxshi natija bermasa, u holda Revert (Файл > Вернуться к сохраненному) buyrugli hujjatni o'sha holatida tiklab beradi.

Dasturda bajarilgan operatsiyalarni takrorlash ham mumkin. Edit > Redo (Правка > Повторить) buyrug'i oxirgi buyruqni yoki tahrirlash ishlarini takroran bajaradi. Bu buyruqni CTRL+Y tugmalar kombinatsiyasi yordamida ham berish mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, dasturning ish bayonnomasiga faqatgina natijaviy operatsiyalar yoziladi, masalan: simvollarni kiritish va o'chirish, obyektlarni qo'yish, formatlash buyruqlari va boshqalar. Faqat shunday holatlarni bekor qilish yoki takrorlash mumkin. Ko'plab yordamchi tipdagi buyruqlarni bekor qilib yoki takrorlab bo'lmaydi. Kursorni surish, obyektlarni belgilash, hujjatni saqlash va boshqalar shular jumlasidan.


Web-uzel yaratish

Jahon o'rgimchak uyasining (World Wide Web) barcha informatsion manbalarini ikkita katta sinfga bo'lish qabul qilingan: sahifalar va uzellar yoki saytlar. Biz yuqorida web-sahifalar ta'rifi bilan tanishdik.

Web-uzellar, ya'ni saytlar deganda o'ziga sahifalarni birlashtirgan tizim tushuniladi. Boshqacha aytganda, uzel deganda minglab hujjatlarni o'zida birlashtirgan. ko'p sonli bog'lanishga ega multimediali murakkab tizim tushuniladi.

Dreamweaver paketi — bu ko'p qirrali dastur. Uni alohida sahifalar yaratish uchun oddiy gipermatnli hujjatlar tahrirlagichi sifatida ham ishlatish mumkin. Bundan tashqari, dastur har qanday murakkablikdagi Web-uzellarni ham yarata oladi.

Chiziqli struktura. Kompyuter paydo bo'lgunga qadar barcha chop etiladigan badiiy kitoblar, qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, texnik ko'rsatmalar chiziqli strukturaga misol bo'la olar edi. Bugungi kunga kelib bular multimediali qo'llanmalar va elektron ko'rsatmalar ko'rinishida qo'llanilmoqda. Chiziqli zanjir deganda elektron magazinda buyurtma berishni rasmiylashtirish qadamlari, ayrim tarmoq manbalariga kirish uchun ro'yxatdan o'tish yoki rasmiylashtirish ketma-ketliklarini tushunish mumkin (1-rasm).




1-rasm. Chiziqli struktura.

Chiziqli strukturaga kirish nuqtasi bo'lib birinchi sahifa xizmat qiladi. Bu bosh sahifa, odatda, index.htm yoki main.htm deb nomlanadi. Bu esa kitob yoki jumallardagi


muqova rolini bajaradi. Bu sahifa bir vaqtning o'zida ham namoyishbop, ham tanishtiruv sahifasi, ham ma'lumotli sahifa bo'lmog'i lozim. Qidiruv mashinalari har bir sahifani alohida indekslaydi. Shuning uchun barcha ichki sahifalarni bosh sahifaga o'tkazadigan harakatlanish tugmalari bilan to'ldirish kerak.

Iyerarxik struktura. Saytlar yaratishning zanjirli prinsipi sahifalar joylashuviga va ular orasidagi bir-biriga o'tishlarga qat'iy cheklashlar qo'yishga asoslanadi. Iyerarxik bo'ysunish prinsipi bo'yicha qurilgan tugunlar ancha katta moslashuvchanlikka ega. Ko'plab korxonalar, tashkilotlar Ierarxik struktura chizmasi asosida qurilgan. Bu esa iyerarxik strukturaning kamchiliklari va yutuqlari yaxshi o'rganilganidan darak beradi. Bu struktura ba'zan daraxtsimon struktura ham deyilib, bitta bosh o'zak (butun saytga kirish nuqtasi hisoblangan) sahifaga ega bo'ladi. Har qanday ichki sahifa informatsion manba hisoblanib, bosh sahifa bilan mantiqiy bog'langan bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Iyerarxik struktura.

Ko'p bog'lanishli struktura. Ko'p bog'lanishli strukturada hech qanday cheklanishlar bo'lmaydi. Ya'ni har bir sahifa boshqa barcha sahifalar bilan bog'langan bo'lishi kerak. Katta saytlarda tashrif buyuruvchilarning mo'ljal olishi uchun maxsus indeksatsiya tizimlari yoki saytning aylanish kartasi ifodalanishi kerak (3-rasm).



3-rasm. Ko'p bog'lanishli struktura.

Web-saytlarni internetga joylash uchun manzil berish. Saytlarga internetda manzil berish uchun URL (Uniform Resource Locator) deb nomlanadigan ibora qo'llaniladi. URL internetga murojaat qilishning eng oddiy usuli bo'lib, u manzilni ifodalaydi. URL manzilidan ixtiyoriy sondagi foydalanuvchi bir vaqtning o'zida foydalanishi mumkin. URL manzili qat'iy format asosida yoziladi

Protokol: // xost :port / put / fayl #fragment

Manzilni to'liqroq tushunish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz: <http://www.pedagog.uz/index.php>. Bu URL manzili tarkibiy qismlari quyidagicha: — [http](http://) — resursdan foydalanishda gipermatn bayonnomasi ishlatilayotganini bildiradi; — www.pedagog.uz — ma'lumotlar joylashgan Internet sahifa nomini bildiradi; — [Index.php](http://www.pedagog.uz/index.php) — faylning kompyuterdagi to'la nomini bildiradi. Manzilning asosiy tashkil qiluvchilarini ko'rib chiqamiz:

- **Протокол** — bayonnomasi — Internet mijozlari va serverlarining bog'lanishi usulini tavsiflovchi qism. Odatda, [http](http://) (HyperText Transfer Protocol) gipermatnli uzatish maxsus bayonnomasidan foydalaniladi. Manzil kichik lotin harflari bilan yoziladi (<http://>).

- **Имя сервера** — bunda joylanadigan ma'lumotlarni saqlaydigan hisoblash tizimining (bu hisoblash tizimini server deb nomlash qabul qilingan) nomi ko'rsatiladi. Serverga berilgan ta'rifda ham — tarmoq ishini nazorat qiluvchi kompyuter deb aytilganligi bejiz emas. Server nomi domen nomi kabi «www» bilan yoki usiz yozilishi mumkin. Masalan, www.macromedia.com. Boshqacha usulda nomni IP-adres ko'rinishida ifodalash mumkin. Masalan, 199.227.52.143.

- **Порт** — raqamini ko'rsatish bitta server ichidagi jarayonni adresatsiya qilish uchun talab etiladi. Biroz vaqtdan keyin port ishlatiladi va uning raqamini tushirib qoldirish mumkin.

- **Путь поиска** — kataloglar va ostki kataloglar zanjiri, faylning joylashgan o'rnini belgilaydi. Bu zanjirning elementlari «/» simvoli bilan ajratiladi.

- **Файл** — faylning nomi uning kengaytmasi bilan birga yoziladi (faqat kengaytma so'ralgan platformada). Agarda faylning nomi tushirib qoldirilgan bo'lsa, u holda web-brauzer ko'rsatiladigan faylni qidiradi. Brauzer reaksiyasi va uning keyingi harakatlari faylning nomini kengaytirishga bog'liq boladi. Masalan, grafik fayllari GIF yoki JPG ko'rish dasturiga tasvirlarning yuklanishini boshlab beradi. Arxiv fayllar (ZIP, RAR va boshqalar) bilan uyg'unlashgan kengaytirishlar — mijoz kompyuterida faylning saqlanishini boshlab beradi.

- **Фрагмент** — URL adresining fakultativ qismi. U # (panjara) maxsus simvoli bilan boshlanadi. Bu belgi gipermatn hujjatning lavhasini ajratib ko'rsatuvchi maxsus belgidir. Tarkibga qo'shib qo'yish simvoli nomining kiritilishi butun sahifaga emas, balki uning ma'lum bir qismiga murojaat qilish imkonini beradi.

HTTP bayonnomasi bo'yicha bog'lanish Internet tarmog'ida eng ko'p tarqalgan usul. Internetdagi obyektlarning manzillari aloqaning boshqa uslublarini va bayonnomalarini o'z ichiga olishi mumkin. Ulardan bir nechtasini sanab o'tamiz (1-jadval). Internetning bugungi ommaviyligini tushuntiruvchi sabablardan biri HTTP bayonnomasi imkoniyatlarining kengligidir. O'zidan avvalgi avlodlarining ba'zi bayonnomalarini u butunlay yutib yuboradi, ba'zilarini esa shunchaki siqib chiqaradi va ko'rgazmali grafik interfeys yordamida qo'llab-quvvatlash yo'li bilan yaxshiroq imkoniyat yaratadi.

1-jadval

Bayonnomasi nomi	Yozish qoidasi	Qo'llanish sohasi
FTP	ftp://	Fayllarni uzatish bayonnomasi. FTP-serveri bilan bog'lanish uchun qo'llaniladi
File	file://	Kompyuter yoki lokal tarmoqda berilgan fayllarga bog'lanish bayonnomasi

Gopher	gopher://	Gopher serveriga bog'lanish bayonnomasi
JavaScript	javascript:	JavaScript tilida yozilgan dasturni chaqirish
Mailto	mailto:	Elektron pochta manzili
Newt	news:	Telekonferensiyalarga bog'lanish bayonnomasi
Telnet	telnet:	Kompyuterga bog'lanish bayonnomasi

Lokal uzal yaratish. Uzal kartasi.

Dreamweaver dasturida saytlar va sahifalar yaratishning har xil yo'llari bor. Bulardan saytlarni yaratish bo'yicha eng mashhur texnologiyani ko'rib chiqamiz. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikni bajaramiz:

- saytning lokal versiyasini yaratish;
- lokal versiyani Internet tarmog'iga joylash.

Lokal uzal — bu foydalanuvchi yoki foydalanuvchilarning kompyuterida joylashgan haqiqiy virtual Web-uzalning versiyasidir. Lokal uzal tarmoqdan ko'rinmaydi, unga faqat mualliflarigina bog'lana olishlari mumkin. Lokal uzalning ma'lumotlari diskdagi belgilangan katalog ichida saqlanadi. Bu katalog vazifasini diskdagi har qanday katalog bajarishi mumkin. Yangi lokal uzal hosil qilish uchun quyidagi ketma-ketliklarni bajaring:

1. Site > New Site (Сайт > Создать) buyrug'ini bering. Ekranda 4-rasmda ko'rsatilgan Site Definition (Определение сайта) muloqot oynasi hosil bo'ladi.


2. Oynaning chap qismidan Local info (Информация о локальном узле) bo'limini tanlang. Maydonning qiymatini kiriting.

3. Remote Info (Сведения об удаленном сервере) kategoriyasiga sayt saqlanayotgan server haqidagi ma'lumotlarni kiriting.

4. Muloqot oynasining yuqorida sanalgan maydonlar to'ldirilishi shart. Site Map Layout (Планировка карты узла). Design Notes (Комментарии разработчика) va File View Columns (Колонки отображения файловых атрибутов) maydonlari to'ldirilishi shart emas (foydalanuvchi o'z xohishiga qarab to'ldirishi mumkin).

5. Barcha kerakli ma'lumotlar kiritilgach, OK tugmasini «sichqoncha» yordamida bosing yoki ENTER tugmasini bosing.

Uzal kartasi — lokal uzal yaratishning qulay interfaol vositasi hisoblanib, unda ko'plab texnik qiyinchiliklarga ega bo'lgan topshiriqlar grafikli ko'rinishda yengillik bilan amalga oshiriladi. Bu rejimda saytning kartasi tasvirlanadi. Uzal dispetcheri oynasi ikki qismga bo'lingan. Chap tomonda uzalning kartasi kiritiladi (kartada sahifa belgilari HTML fayllarni ifodalaydi). Hujjatlar orasidagi gipermatnli bog'lanishlarni strelkalar ifodalaydi (4-rasm).



4-rasm. Lokal uzelnı sozlash.

Uzel kartasi. O'ng tomonda esa uzelnıng fayllar va kataloglar ro'yxati beriladi. Kartaning ko'rinishi organizatsion diagrammani eslatib yuboradi. Kartada ikki darajani ko'rish mumkin. Yuqori darajani uzelnıng asosiy sahifasi egallaydi. Quyi darajada esa unga tegishli va o'zaro giperbog'lanishga ega sahifalar tushuniladi. Uzelnıng gipermatnli hujjatlaridagi bog'lanishlar ko'k rangda tasvirlanadi. Agar bog'lanishda ko'rsatilgan fayl kengaytmasi .HTM, .HTML va boshqa shu formatdagilardan farq qilsa, u holda yashil rangda tasvirlanadi. Agar bog'lanishda qo'pol xatoliklar bo'lsa, u holda bog'lanish qizil rangda ifodalanadi. Tashqi fayllar, boshqa fayllarda joylashgan fayllar va maxsus bog'lanishlar (masalan, mailto: yoki javascript.) globus ko'inishidagi maxsus belgi oladi. Bulardan tashqari, agar ko'k rangli belgi qo'yilgan bo'lsa, bu fayl foydalanuvchining o'zi tomonidan taqiqlanganini bildiradi. Qulf belgisi ostidagi belgi faqat o'qish uchun moijallangan fayllarnı bildiradi.

Nazorat savollari.

1. Dasturda fayllarnı ochish yo'llarini sanab bering.
2. Dastur yordamida qanday kengaytmali fayllarnı ochish mumkin ?
3. Dasturning fayllarnı saqlash usullarini aytib bering.
4. Dasturning bekor qilish va takrorlash imkoniyatlarini sanab bering.
5. Lokal uzelnı nima?
6. Lokal uzelnı hosil qilish ketma-ketligini aytib bering.
7. Uzel kartasi nima

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Kirsanov. Veb – dizayn. – SPb: Simvol-Plyus, 2001.
2. Mark R. Braun i drugie. Ispolzovanie HTML 4. Spetsialnoe izdanie «Vilyams». Moskva – 2002 god.
3. Pol Mak-Fedris Ispolzovanie JavaScript. Spetsialnoe izdanie «Vilyams». Moskva – 2002 god.
4. Broydo V.L. Ofis texnikasi. 2002 yil. T.

Mavzu. Dreamweaver dasturida sahifalarni freymlarga bo'lish va ularni saqlash imkoniyatlari. (2 soat)

17 – ma`ruza

REJA:

1. Web-saytning freym tuzilishi.
2. HTML da freym tuzilishini yaratish.
3. Dreamweaverda freymlarni yaratish.
4. Freym xususiyatlarini sozlash.
5. Freym to'plami xususiyati.
6. Freym o'lchamlarini aniqlash.
7. Murojaat yordamida freym tarkibini boshqarish.
8. Freym va freym to'plamini xotirada saqlash.

Tayanch iboralar: Freym, frameset, Frames palitrasi, Properties (Xususiyatlar) palitrasi, View menyusi, Window (Oyna) menyusi, Target (Maqsad).

Web-saytning freym tuzilishi

Odatda Web-sahifa birta hujjat hisoblanib, brouzer ishchi oynasida tasvirlanadi va bu oynani tulik egallaydi. Lekin HTML zamonaviy standarti ishchi oynani bir necha mustakil zonalar (freymlar) ga ajratish imkonini beradi. Ularning har birida o'zining Web-sahifasi tasvirlanadi.

Masalan, ekranda 3 ta freymni joylashtirish mumkin: yuqorida – sahifa sarlavhasi tasvirlangan gorizontal bo'lim, chapda - «tugmali menyu»li vertikal bo'lim, bunda har bir tugma qism sahifaga murojaat hisoblanadi, brouzer oynasining kolgan qismi esa Web-sahifaning asosiy qismi hisoblanib, boshqa freymdagi ishlatilgan murojaatlarga qarab uning tarkibi o'zgaradi. Bundan tashqari, asosiy qismdagi ma'lumotlar ekranga sig'masa, ma'lumotlarni ko'rish uchun sichqoncha yoki Page Up, Page Down tugmalaridan foydalanamiz.

HTML da freym tuzilishini yaratish

Freymlardan foydalangan holda hujjat yaratish uchun oynani qismlarga bo'lish usulini o'rnatuvchi ko'rsatmalarni o'zida saqlaydigan boshqaruvchi HTML hujjat yaratish kerak.

Boshqaruvchi hujjatda freymda ko'rsatilishi kerak bo'lgan HTML hujjatlar haqida ma'lumot ko'rsatiladi. Rasmda ko'rsatilgan Web-sahifani hosil qilish uchun 4 ta HTML hujjat zarur bo'ladi: boshqaruvchi hujjat va har qaysi freym uchun alohida hujjatlar. Brauzer oynasini freymlarga bo'lish va ularda aks ettirish uchun mo'ljallangan hujjatlarni ko'rsatish uchun quyidagi teglardan foydalanamiz.

<frameset> - Web-sahifa tuzilishini aniqlash; uning atributlari qator va ustun sonlari bilan beriladi.

<frameset> tegi uchun mos yopiluvchi **</frameset>** tegi mavjud.


Freyimli Web-sahifani shakllantirishda boshqaruvchi hujjatda **<frameset>** tegi **<body>** tegi o'rnida ishlatiladi.

<frame> - Web-sahifa tarkibidagi biror bir freym tarkibini ko'rsatadi. Uning tarkibida **src= "x"** atributi saqlanadi. Bunda x – HTML hujjatning nisbiy yoki absolyut manzili.

<noframes> - ushbu tegda ko'rsatilgan ma'lumotlar brauzer freymlarni ko'rsata olmagan taqdirda ekranga chiqadi. Ushbu tegda atributlar mavjud emas.

Dreamweaverda freymlarni yaratish

Dreamweaverda taklif qilinayotgan freymlarning standart to'plami sizga zarur sahifa tuzilmasini tashkil qilishga yordam beradi. Ob'ektlar panelining **Frames** (Freymlar) bo'limida freymlarning standart to'plami tugmalari joylashgan.



Tanlangan to'plam joriy hujjatni kamrab oladi, ya'ni, o'sha vaqt kirish nuqtasi joylashgan hujjat. Freymlar standart to'plami **belgisining xavorang sohasi** ayni paytda belgilangan sahifani yoki hujjatdagi freymni, **ok soha** esa – yangi freym yoki freymlarni bildiradi.

Freymlarning standart to'plami o'rnatish uchun:

1. To'plamga kiritmochi bo'lgan hujjatga kiritish nuqtasini joylashtiring.
2. Panellar ob'ektining **Frames** bo'limidan freymlarning standart to'plamini tanlang. To'plamga kiritish uchun uning tugmasini bosishingiz yoki tugmani hujjatga o'tkazishingiz mumkin.

Freymlar va freymlar to'plami HTML ning alohida hujjatlari hisoblanadi. Freymlarni o'zgartirish uchun uni belgilash lozim. Buni hujjat oynasida yoki **Frames** palitrasi yordamida qilishingiz mumkin.

Freymlar yoki freymlar to'plamini belgilayotgan paytda **Frames** palitrasi va hujjat oynasida belgilash chiziqlari paydo bo'ladi.

Frames palitrasi xayolan hujjatning freymlarini tasvirlaydi. **Frames** palitrasidan freymlar yoki freymlar to'plamini tanlashingiz, so'ngra uni kurish yoki **Properties** (Xusiyatlar) palitrasida belgilangan element xususiyatlarini qayta tahrirlashingiz mumkin.

Frames palitrasi freymlar to'plami ierarxiyasini ko'rsatib turadi. **Frames** palitrasida freymlar to'plamini kalin 3 o'lchamli chegara o'rab oladi, Freymlar esa mayin kulrang chiziq bilan uralgan, har bir freym esa o'z ismiga ega.


Frames palitrasini kurish uchun **Window** (Oyna) menyusidan **Frames** punktini tanlang.

Frames palitrasida alohida freymni tanlash uchun shu palitrada ramkani bosing.

Frames palitrasida freymlar to'plamini tanlash uchun, **Frames** palitrasida freymlarni urab olgan chegarani bosing.

Freym xususiyatlarini sozlash

Properties (Xusiyatlar) palitrasi alohida freymning xususiyatlarini o'rnatish yoki o'zgartirish uchun foydalaniladi. Freym xususiyatlarni ko'rish uchun, **Properties** (Xusiyatlar) palitrasining pastki burchagidagi yunalishli tugmani bosing.



Freym xususiyatlarini aniqlash uchun:

1. **Frames** palitrasidan freymni tanlang.
2. Xususiyatlar palitrasining **Frame Name** (Freymlar nomi) maydonida freymga nom bering.
3. Quyidagi sozlashlarni o'rnatish:

-**Src** maydonida mana shu freymda boshidan tasvirlanadigan sahifa faylini tanlang. Faylni topish va belgilash uchun fayl nomini kiriting yoki papka belgisini bosib.

-Joriy freym tarkibini tasvirlashda muhit etishmasa, **Scroll** ro'yxati aylantirgich chizigining paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ko'pgina brauzerlar Auto sozlashidan foydalanishadi.

-**No Resize** bayroqchasi joriy freym o'lchamlarini chegaralaydi va foydalanuvchiga uning chegaralarini o'zgartirishni ma'n qiladi. Siz har doim hujjat oynasida freym o'lchamlarini o'zgartirishingiz mumkin. Biroq, bu sozlash o'rnatilgan bo'lsa, foydalanuvchi brauzerda freym o'lchamlarini o'zgartira olmaydi.

-**Borders** ro'yxati joriy freym ramkasi tasvirini boshqaradi. Mumkin bo'lgan sozlashlar: Yes, No, Default. Bu xususiyat freym to'plami uchun aniqlangan ramka xossalarni o'zgartiradi. Ko'pgina brauzerlar avtomatik tarzda Yes ni ishlatadi.

-**Border Color** maydoni joriy freymning hamma ramkalari uchun rangni o'rnatadi. Bu sozlash freymlar to'plami ramkasining rangining o'rmini bosadi.


-**Margin Width** maydoni chap va o'ng maydonlarning kengligini piksellarda o'rnatadi (freym ramkasi va uning orasidagi bo'shliq).

- **Margin Height** maydoni pastki va yuqori maydon balandligini o'rnatadi (freym ramkasi va uning orasidagi bo'shlik).

Freymlar to'plami xususiyati

Freymlar to'plami xususiyatlarini kurish uchun:

1. **Frames** palitrasida freymnlarni kamrab oladigan chegarani bosib.
2. Freymlar to'plamining hamma xususiyatlarini kurish uchun **Properties** (Xususiyatlar) palitrasining pastki o'ng burchagidagi yunalishli tugmani bosib.



Freymlar to'plamining xususiyatini aniqlash uchun:

1. Freymlar to'plamini tanlang.
2. **Borders** (Ramkalar) ro'yxatida hujjatni brauzerda kurish vaqtida freym ramkalarini tasvirlash mumkinmi yoki yo'qligini ko'rsating.

Quyidagilarni o'rnatib:

-**Yes**, ramkalar tasvirlanadi.

- **No**, ramkalar tasvirlanmaydi.

- **Default**, foydalanuvchi brauzeri ramkalar tasvirlanishini o'zi tanlaydi.


3. **Border Width** (Ramka kengligi) maydoniga joriy freymlar to'plami ramkalarining kengligini kiriting.

4. **Border Color** (Ramka rangi) maydoniga 16 lik ranglarni kiriting yoki ochiladigan palitradan ramkaning rangini tanlang.

5. Freym o'lchamini belgilash uchun **Row Col Selection** (qatorni/ustunni belgilash) sohasini bosib (qatorni tanlash uchun) yoki yuqori qismdagi ilovani bosib (ustunni tanlash uchun). So'ngra **Value** (Qiymat) maydonida belgilangan qator yoki ustunning qiymatini kiriting. **Units** (O'lchov birligi) ochiladigan ro'yxatida esa **Value** (Qiymat) maydonidagi qiymat uchun o'lchov birligini o'rnatib.

Freym o'lchamlarini aniqlash

Freymlar chegaralarini, uning taxminiy o'lchamlarini o'rnatish uchun hujjat oynasiga keltiring. So'ngra freymning brauzerdagi nisbiy o'lchamini foizlarda aniqlash uchun **Properties** (Xususiyatlar) palitrasidan foydalaning.



Freymlar o'lchamlarini aniqlash uchun:

1. Freymlar to'plamini tanlash uchun freym chegarasini bosing. Agar chegaralar kurinmas bo'lsa, **View** menyusidan **Visual Aids > Frame Borders** punktlarini tanlang.
2. Barcha xususiyatlarni kurish uchun **Properties** (Xususiyatlar) palitrasida yunalishli tugmani bosing.
3. **Row Col Selection** sohasida siz o'zgartirmokchi bo'lgan qator yoki tugmani bosing.
4. Brauzer oynasi o'lchami o'zgarganda, **Value** (Qiymat) maydoniga muhit taksimoti qiymatini kiriting va u uchun quyidagi o'lchov birliklaridan birini tanlang:
 - Pixels** belgilangan qator yoki ustunning o'lchamlarini absolyut birliklarda ifodalaydi. Bu sozlash freym uchun eng yaxshi tanlovdir, chunki u doim bir xil o'lchamda bo'lishi kerak, masalan, harakatlanuvchan chizgich kabi. Agar siz freymlar uchun turli o'lchov birliklari o'rnatilgan, unda kolgan freymlar o'lchamlari piksellarda ko'rsatilgan freymlar ularni tula o'lchamga kiritgandan so'ng brauzerda joylashtiriladi.
 - Percent** shuni ko'rsatadiki, joriy freymning o'lchami freymlar to'plami o'lchamida necha foizni tashkil qilishini aniqlaydi. O'lchami foizlarda ko'rsatilgan freym o'lchami piksellarda ko'rsatilgan freymdan keyin joylashtiriladi.
 - Relative** freym o'lchamini boshqa freymlar o'lchamlariga proporcional ravishda aniqlaydi. O'lchami **Relative** orqali aniqlangan freymlar **Pixels** va **Percent** da ulchangan freymlardan keyin joylashtiriladi va brauzer oynasidagi qolgan joyni egallaydi.

Murojaat yordamida freym tarkibini boshqarish

Murojaat orqali sahifa ochmokchi bo'lgan freymni tanlash uchun **Properties** (Xususiyatlar) palitrasida **Target** (Maqsad) ochiluvchi ro'yxatini tanlang.

Freymlar ko'rsatish uchun:

1. Matn yoki ob'ektni belgilang.
2. **Properties** (Xususiyatlar) palitrasida **Link** maydonida papka belgisini bosing va murojaat o'rnatmokchi bo'lgan faylni tanlang.
3. **Target** (Maqsad) ro'yxatidan tanlangan fayl tarkibini kaerda tasvirlamokchi bo'lgan maqsadni tanlang.
 - **_blank** brauzerning yangi oynasida bog'langan hujjat ochadi va joriy oynani ochik holda xotirada saqlaydi;
 - **_parent** ona freymda bog'langan hujjat ochadi;
 - **_self** joriy freymda, uning takibini o'zgartirgan holda hujjat ochadi;
 - **_top** eng yuqori freymda hujjat ochadi;

Agar siz **Properties** (Xususiyatlar) inspektorida freymlarga nom kuygan bo'lsangiz, ular **Target** (Maqsad) ro'yxatida paydo bo'ladi. Freym nomini belgilaganda tanlangan freymda bog'langan hujjat ochiladi.

Freymlar va freymlar to'plamini xotirada saqlash

Brauzerda sahifani kurish uchun, freymlar to'plami fayli va ularga bog'liq bo'lgan freymlar fayllari oldindan xotirada saqlangan bo'lishi kerak. Siz freymlar to'plami va

freymnlarni alohida xotirada saqlashingiz yoki bu jarayonni alohida-alohida bajarishingiz mumkin.

Dreamveawer da freym yaratayotganda, har bir yangi hujjatga mos holda aniq nom bilan vaqtinchalik fayl qo'yiladi.

Xotirada saqlash sozlashining birini tanlaganingizda **Save As** (Soxranit kak...) muloqot oynasi paydo bo'ladi va hujjatni faylning vaqtinchalik nomi bilan xotirada saqlashni taklif qiladi. Har bir fayl "Untitled" vaqtinchalik nomiga ega bo'lganligi uchun xotirada saqlayotgan faylingizni identifikatciya qilish qiyin bo'lsa kerak. Bunday holda qaysi fayl xotirada saqlanayotganini bilish uchun hujjat oynasida freym belgilanadigan chiziqqa karang, chunki **Save As** (Soxranit kak...) muloqot oynasi joriy vaqtda belgilangan freymni xotirada saqlaydi.

Freymmlar to'plamini xotirada saqlash uchun:

- Freymmlar to'plamini xotirada saqlash uchun **File** (Fayl) menyusidan **Save Frameset** (Soxranit nabor freymov) punktini tanlang.

- Freymmlar to'plamini yangi faylda saqlash uchun **File** (Fayl) menyusidan **Save Frameset As** (Soxranit nabor freymov kak) punktini tanlang.

Ilova freymni xotirada saqlash uchun uni bosing, so'ngra **File** (Fayl) menyusidan **Save Frame** (Soxranit freym) punktini tanlang.

Barcha ochilgan hujjatlarni xotirada saqlash uchun **File** (Fayl) menyusidan **Save All Frames** (Soxranit vse freymy) punktini tanlang.

Nazorat savollari

1. Web-saytning freym tuzilishi..
2. HTML da freym tuzilishini yaratish.
3. Dreamweaverda freymnlarni yaratish.
4. Freym xususiyatlarini sozlash.
5. Freymmlar to'plami xususiyati.
6. Freym o'lchamlarini aniqlash.
7. Murojaat yordamida freym tarkibini boshqarish.
8. Freym va freymmlar to'plamini xotirada saqlash.

Adabiyotlar ruyxati.

1. D. Kirsanov. Veb – dizayn. – SPb: Simvol-Plyus, 2001.
2. Mark R. Braun i drugie. Ispolzovanie HTML 4. Spetsialnoe izdanie «Vilyams». Moskva – 2002 god.
3. Pol Mak-Fedris Ispolzovanie JavaScript. Spetsialnoe izdanie «Vilyams». Moskva – 2002 god.
4. Broydo V.L. Ofis texnikasi. 2002 yil. T.
5. A.R. Maraximov, S.I. Raxmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». Toshkent - 2001.